Калит сўзлар: *скруббер, чанг, иккиламчи газ, водород фторид, натрий-фторид, суперфосфат, АНКТ-410, карбонат содаси, техник оқ сода, техник шампун, абсорбент, чангли газ.*

В статье представлены результаты экспериментального исследования по абсорбции вторичного газа в абсорбирующую жидкость с целью очистки вторичных газов, образующихся в производственных процессах предприятий химической промышленности, определения оптимальных технических параметров скруббера сухой очистки. В проведенных экспериментах в качестве объекта был выбран газообразный фтористый водород, выделяющийся в реакционную среду при производстве суперфосфата, и поглощение 10%, 20% и 30% растворов кальциевой технической соды, натрия углекислого и технический шампунь на воде анализировали в лаборатории.

Лабораторные анализы проводили в два этапа, ситовым и микроскопическим методами, а экспериментальные погрешности определяли путем сравнения полученных результатов. Для проведения экспериментов использовались стандартные методы.

Ключевые слова: *скруббер, пыль, вторичный газ, фтористый водород, фтористый натрий, суперфосфат, АНКТ-410, газированная сода, техническая белая сода, технический шампунь, абсорбент, запыленный газ.*

The article presents the results of an experimental study on the absorption of secondary gas into an absorbent liquid in order to clean the secondary gases generated in the production processes of chemical industry enterprises in a dry cleaning scrubber and to determine its optimal technical parameters. In the conducted experiments, the hydrogen fluoride gas released in the reaction medium during the production of superphosphate was selected as an object, and the absorption of 10%, 20%, and 30% solutions of calcium technical white soda, sodium carbonate soda, and technical shampoo in water was analyzed in the laboratory.

Laboratory analyzes were carried out in two stages, by sieve and microscopy methods, and experimental errors were determined by comparing the obtained results. Standard methods were used to conduct the experiments.

Key words: *scrubber, dust, secondary gas, hydrogen fluoride, sodium fluoride, superphosphate, ANKT-410, carbonated soda, technical white soda, technical shampoo, absorbent, dusty gas.*

Кириш.Саноат ишлаб чиқариш жараёнида ҳосил бўладиган турли ҳолатдаги (газсимон, суюқ ёки қаттиқ) чангли газларни ушлаб қолиш ёки нейтраллаш усулини тўғри танлаш, чанг ушлаш самарадорлигини ошириш ва энергиятежамкор конструксияларни яратишда чангли газларнинг ҳоссаларини аниқ билиш муҳим ўрин эгаллайди. Бу эса ўз навбатида ишлаб чиқариш корхоналаридан чиқаётган чангли газларни ҳосил бўлиш сабабларини ўрганишни ва уларнинг физик ҳамда кимёвий ҳоссаларини тахлил қилишни тақозо этади [1,2 ва бошқалар].

Изланишлар методикаси.

Ушбу мақолада чангли газларни хўл усулда тозаловчи скруббернинг [3] мақбул иш параметрларини белгилаш мақсадида Ўзбекистон республикасидаги йирик кимёвий корхоналардан ҳисобланадиган “Farg’onaazot” AJ нинг АС-72М цехи суперфосфат минерал ўғити ишлаб чиқариш жрааёнида ҳосил бўладиган иккиламчи водород-фторид гази ҳамда фосфорит унининг чанги танланди. Танланган водород-фторид газининг абсорбентли суюқликка ютилиши ва фосфорит уни чангининг дисперслик таркиби анализ қилинди [4,5]. Тажрибаларни ўтказишда белгиланган стандарт усуллардан фойдаланилди [6,7]. Тажрибалар уч босқичда олиб борилди.

Тажриба натижалари.

Биринчи босқичда чанг ва иккиламчи газ манбалари ҳамда уларнинг ҳосил бўлиш сабаблари ўрганилди. Маълумки “Farg’onaazot” AJ да Суперфосфат ишлаб чиқариш жараёни фосфорит уни ва сулфат кислотасини реакция муҳитида аралаштириш, аралашмага сулфат аммоний суюқланмасини сепиш орқали барабанли гранулятор-қуритгичда гранулалаш ва гранулаланган ўғитни қуритиш ҳамда ўғитни регламент бўйича гранулометрик таркибиларга ажратишдан иборат [1,8,9]. Лойиҳаланган технологик чизиқ мавжуд классик усулларга нисбатан анча энергиятежамкор ва ўғит сифати бўйича ҳам юқори кўрсатгичга эга ҳисобланади. Технологик чизиқда аралаштирувчи ректорлар сони уч дона бўлиб бу жараёнда асосан реакция пайтида икки молекулали водород-фторид гази ва реакцияга киришмаган фосфорит унининг чанги ҳосил бўлади. Ҳозирда корхонада реакцияга киришмаган фосфорит унининг чангини тозалаш учун НИОГАЗ циклонидан ва водород-фторид газини нейтраллаш учун ичи бўш скруббер ҳамда тозаловчи суюқлик сифатида сувдан фойдаланилмоқда. Мавжуд жараёнда 1м^3 ҳаво таркибидаги газ ва чанг аралашмаси миқдори 2697,79 мгр ташкил этиши тажриба йўли билан аниқланди. Тажрибаларни ўтказишда кўп омилли АНКТ-410 газоанализаторидан фойдаланилди [1]. Тажрибалар беш марттадан такрорланган ҳолда ўтказилди ва ўрта арифметик қиймат танланди. 1-расмда Суперфосфат минерал ўғити ишлаб чиқариш жараёнининг технологик схемаси келтирилган [1].



1-расм.Суперфосфат минерал ўғити ишлаб чиқариш технологик схемаси.

1-Барабанли қуритгич; 2-Барабанли гранулятор; 3-Арлаштиргичли горизонтал реактор; 4-Колорифер; 5-Аралаштиргичли вертикал реактор; 6-Ковушли элеватор; 7-Болғали майдалагич; 8-Ғалвир; 9-Циклон НИОГАЗ; 10-Ичи бўш скруббер; 11-Вентелятор; 12-Марказдан қочма типдаги насос; 13-Лентали конвейр; 14- Таъминловчи бункер; 15-Барабанли совитгич.

Иккинчи босқичда водород-фторид (2HF) газини нейтраллаш учун абсорбентлар танланди. Газнинг 10%, 20% ва 30 % эритмали абсорбентга ютилиши кимёвий ва микроскопия (DSM-310 маркали камера ва LANGDORPSSESTENGER-1603201 маркали SM001-CYANS биологик микроскопи танланди) усулидан фойдаланиб анализ қилинди. Абсорбент учун моддалар ГОСТ 5100-85 талаби бўйича танланди. Иккиламчи водород-фторид газининг емирувчанлиги ва актив мухитга тез мослашувчанлигини инобатга олиб калцийли техник оқ сода (Na_2CO_3), натрий корбонат содаси ($Na_2CO_3 \cdot H_2O$ кир ювиш содаси) ҳамда техник шамуннинг ($C_8H_8O_3$) сувдаги 10 %, 20 % ва 30 % эритмаси тайёрланди. Кимёвий реакция хисоби қилинди.

$$Na_2CO_3 \cdot H_2O + HF \rightarrow NaF + H_2O + CO_2\uparrow \quad (1)$$

(1) тенгламадан кўринадики калцили техник оқ соданинг сувдаги эритмасига водород-фторид ютилганда сув ва натрий-фторид эритмаси ҳамда корбонат ангдрид гази ҳосил бўлди.

$$Na_2CO_3 \cdot H_2O + HF \rightarrow NaF + 2H_2O + CO_2\uparrow \quad (2)$$

(2) тенгламадан кўринадики калций-корбонат содасининг сувдаги эритмасига водород-фторид ютилганда икки молекулали сув ва натрий-фторид эритмаси ҳамда корбонат ангдрид гази ҳосил бўлди.

Техник шампуннинг сувдаги эритмасига водород-фторид ютилганда сув ва корбонат фоторид эритмаси ҳамда корбонат ангдрид гази ҳосил бўлди.

Юқорида танланган абсорбентларнинг суюқликдаги 10; 20 ва 30 % эритмаси тайёрланди ва водород-фторид газининг гр миқдорида абсорбентли суюқликка ютилиши тажриба йўли билан аниқланди [1]. Олинган чиқинди сув наъмуналарининг нейтраллиги (pH даражаси) лаборатория анализидан ўтказилди. Лаборатория анализи натижалари 1-жадвалда келтирилган.

1жадвал

Эритма миқдори, %	Абсорбентли суюқлик миқдори, гр	Чўкма номи	Чўкма миқдори, гр	Чиқинди сув нордонлиги, pH
10	100	натрий-фторид	1,88	6,5
	100	натрий-фторид	1,11	6,14
	100	корбонат-фоторид	0,83	5,8
20	100	натрий-фторид	3,21	7,9
	100	натрий-фторид	2,44	7,1
	100	корбонат-фоторид	0,98	6,8
30	100	натрий-фторид	5,61	9,46
	100	натрий-фторид	3,28	8,7
	100	корбонат-фоторид	1,12	8,1



2-расм. Техник сода.



3-расм. Калций-карбонат содаси.



4-расм. Техник шампун.

Ишлаб чиқариш жараёнида ҳосил бўлаётган водород-фторид гази тезлигининг юқорилиги ҳамда 1м^3 ҳавога 2697,79 мгр иккиламчи газ ва чанг тўғри келишини инобатга олиб, суюқлик таркибига қўшиладиган абсорбентни 30 % танланиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб водород-фторидни 30 % абсорбентли суюқликка ютилганда хосил бўладиган чўкма тузнинг ҳолати микроскопда 400 марта катталашган ҳолати кўрилди ва 1-жадвалдаги тажриба натижалари билан таққосланди. 2; 3 ва 4-расмлар.

Микроскопия усули ва лаборатория анализи натижалари орасидаги ҳатолик 5 % дан ошмади.

Учинчи босқичда фосфорит уни чангининг дисперслик таркиби элак ҳамда микроскопия усулидан фойдаланиб анализ қилинди. Фосфорит уни чанги **ЛМ-2Е** маркали туйиш қурилмасининг лаборатория моделида 5 дақиқа давомида туйилди ҳамда **СМЦ-25** маркали сараловчи элак қурилмасининг лаборатория моделида 3 дақиқа давомида 3 босқичли саралашдан ўтказилди. Элак сеткаларининг ўлчами 20, 60, 100 мкм гача танланди. Олинган натижалар асосида чанглар фоизлар ҳисобида фракцияларга ажратилди. Қуйида Суперфосфат ўғити чангининг тозалашда қўлланилаётган чанг тозалаш қурилмаларининг тозалаш самарадорлиги кўрсаткичлари ҳамда олинган лаборатория анализи натижалари келтирилган.

Чангнинг дисперслик таркиби анализи шуни кўрсатдики 1-20мкм гача 95%, 20-60мкм гача 2%, 60-100 мкм гача 3%ни ташкил этди. 1-жадвалда Суперфосфат чангининг фракциялар бўйича миқдори, асперация бўлимига ўрнатилган ЦН-15 НИОГАЗ циклони ва С-1 маркали ичи бўш скруббернинг тозалаш самарадорлиги келтирилган.

1-жадвал

Суперфосфат минерал ўғити ишлаб чиқариш

Элак сеткаларининг ўлчами, мкм	Гранулометрик таркиби %	Циклон %	Скруббер %
1-20	95	20%	35%
20-60	2	100%	-
60-100	3	100%	-

Бундан ташқари фосфорит чангининг дисперс таркибини аниқлашда оптик микроскопия усулидан ҳам фойдаланилди (Заррачаларнинг биологик микроскопдаги бундай анализи ±1,5 % нисбий хатолик беради. Ўлчамларнинг ўртача қийматга келтириш ±3,4 % нисбий хатолик беради). Оптик микроскопия усулида фосфорит уни чангининг микрофото сурати олинади. Дисперс чанг ўлчамларини аниқлаш учун соч толасидан фойдаланилади ҳамда фоизларда фракцияларга ажратилади.

Фосфоритнинг суюқлик муҳитида эришини инобатга олиб сув билан аралаштирилмади. Суратга олиш **DSM-310** маркали камера ва **LANGDORPSSESTENGER-1603201** маркали **SM001-CYANS** биологик микроскопда амалга оширилди. Суратларга ишлов бериш ЭҲМ да бажарилди. Микроскопнинг катталаштириши 400 баробар бўлганда минерал ўғит чангларининг ўлчами $1 \div 100$ мкм оралиғидаги фоизлари соч толаси ўлчамига таққосланган ҳолда аниқланди 5-расм.



5-расм. Фосфорит уни чангининг SM001-SYANS микроскопида 400 мартта катталашган холатдаги кўриниши.

Элак ҳамда микроскопия усули орасидаги лаборатория анализи ҳатолиги 7 % ни ташкил этди. Демак скруббернинг тозалаш самарадорлигини аниқлаш бўйича ўтказиладиган эксперементал тадқиқотларда майдаланган заррачаларнинг ўртача медиан қиймати фосфорит унининг чанги учун $\delta_{35} \approx 8$ мкм деб қабул қилиш мумкин бўлади.

Хулоса.

Ўтказилган кимёвий риакция хисобларидан кўринадики мавжуд жараён учун энг мақбул вариант калцийли техник оқ сода бўлиб, ракцияда ҳосил бўлган натрий-фторид чўкмасидан саноатнинг бошқа тармоқларида бирламчи ҳом-ашё сифатида фойдаланиш мумкин.

Лаборатория анализи натижаларидан шундай ҳулосага келиш мумкинки қурулмада экспрементал тадқиқотларни ўтказишда калцийли техник оқ соданинг сувдаги 30 % эритмасидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Адабиётлар

[1]. Исомидинов А.С. Кимё саноати чангли газларини тозалашнинг самарали усул ва қурилмаларини яратиш: Дисс. … PhD. – Тошкент, 2020. – 118 с.

[2]. Исомидинов А.С. Исследование гидравлического сопротивления роторно–фильтрующего аппарата // Universum.–Москва, 2019.–№ 10(67).–С. 54-58.

[3]. Исомидинов А.С., Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т. Ҳўл усулда чангли газларни тозаловчи роторли қурилма // Фарғона политехника институтининг илмий-техник журнали. – Фарғона, 2018. – №1. – Б. 195–198.

[4]. Тожиев Р.Ж., Ахроров А.А. Анализ слои раздела фаз и уравнения коэффициент массоотдачи в системе газ-жидкость // Научно-технический журнал ФерПИ.-Фергана.-2020.-№4.-С 177-180.

[5]. Ахроров А.А., Исомиддинов А.С., Тожиев Р.Ж. Гидродинамика поверхностно-контактного элемента ротор-фильтрующего пылеуловителя // Universum: технические науки.-Москва. 2020. Часть 3, №8(77).-С. 10-16.

[6]. Коузов П.А. Основы анализа дисперсного состава промышленных пылей и измельченных материалов. – Ленинград: Химия, 1971. – 280 с.

[7]. Исомидинов А.С. Чанг намуналарини танлаш ва уларнинг дисперс таркибини анализ қилиш // Global science and innovations 2019: Central Asia. V-Международной научно-практической конференции. – Астана, 2019. – С. 264-268.

[8]. Isomidinov A., Axrorov A., Karimov I., Tojiyev R. Application of rotor-filter dusty gas cleaner in industry and identifying its efficiency // Austrian journal of technical and natural sciences.–Vienna. 2019.–№ 9-10.–P.24-31.

[9]. Тожиев Р.Ж., Исомиддинов А.С., Ахроров А.А., Сулаймонов А.М. Выбор оптимального абсорбента для очистки водородно-фтористого газа в роторно-фильтровальном аппарате и исследование эффективности аппарата // Universum: технические науки.-Москва. 2021. Часть 4, №3(84).-С. 44-51.

HO‘L USULDA CHANG TOZALOVCHI BARABANLI APPARATNING GIDRODINAMIK JARAYONLARINI TADQIQ QILISH

G.I. Madaminova

Farg‘ona politexnika instituti
E-mail: g.madaminova@ferpi.uz

(Qabul qilindi 29.04.2023 y.)

Maqolada ho‘l usulda chang tozalovchi barabanli apparatni tajriba qurilmasida, turli gaz va suyuqlik oqimlari rejimlarida o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqot natijalari keltirilgan. Qurilmaning ishchi qismlaridagi mahalliy va umumiy qarshilik koeffitsientlari va yo‘qotilgan umumiy bosimlari aniqlangan. Natijada bu bosimlarga bog‘liq holda apparatning changli gazlarni tozalash samaradorligini optimal qiymatlari va energiya istemolini aniqlash uchun imkoniyat yaratilgan.

Kalit so‘zlar: *ho‘l usul, baraban, setka, gaz sarfi, suyuqlik sarfi, bosim, chang, tezlik, apparat.*

В стате представлены результаты эксперименталного исследования в экспериментальной установке, барабанного мокрого пылеочистного аппарата при различных режимах течения газа и жидкости. Определены местные и общие коеффитсиенты сопротивления и потери полных давлений в рабочих участках устройства. В результате в зависимости от этих давлений можно определит оптимальные значения эффективности пылегазоочистки и энергопотребления устройства.

Ключевые слова*: мокрый способ, барабан, грохот, расход газа, расход жидкости, давление, пыл, скорость, аппарат.*

The article presents the results of an experimental study in an experimental setup, a drum wet dust cleaning apparatus under various gas and liquid flow regimes. The local and general coefficients of resistance and the loss of total pressures in the working sections of the device are determined. As a result, depending on these pressures, it is possible to determine the optimal values of the efficiency of dust and gas cleaning and the energy consumption of the device.

Key words: *wet method, drum, screen, gas flow, liquid flow, pressure, dust, speed, apparatus.*

Kirish

Hozirgi kunda dunyo miqyosida sanoatni rivojlanishi natijasida, atmosfera havosini ifloslantirish darajasi ortib bormoqda. Ayniqsa kimyo, qurilish materiallari, gidrometallurgiya sanoati korxonalaridan atmosferaga chiqarilayotgan tashlamalar salmog‘i yuqori [1,7,8,9]. Bu muammolarni hal qilish uchun dunyo miqyosida turli konstruksion tuzilishga ega bo‘lgan chang va gazlarni tozalovchi apparatlar yaratilib ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [2,3,4,5,6]. Yaratilayotgan qurilmalarga qo‘yiladigan asosiy talablar, konstruksion tuzilishining soddaligi, tozalash samaradorligining yuqoriligi va enargiya sarfining kamligi hisoblanadi. Bu talablardan kelib chiqib biz tomonimizdan ho‘l usulda ishlovchi apparatni yangi tuzilmasi ishlab chiqilgan va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [10].

Tadqiqot ob’ekti va usuli

Yangi yaratilgan barabanli chang tozalash qurilmasining kinematik sxemasi 1-rasmda va umumiy кщrinishi 2-rasmda keltirilgan.



1-Rasm. Ho‘l usulda chang tozalovchi barabanli qurilma sxemasi. 1-silindrik korpus, 2-val, 3-baraban, 4-elektr motori, 5-tayanch, 6-changli havoni kiritish quviri, 7-tozalangan havoni chiqarish quvuri, 8-suv idishi, 9-suv uzatish quvuri, 10- suvni taqsimlovchi quvur, 11-shtuser, 12-suv ventili. 13-ventilator 14-shlam ventili,15- yetaklovchi shkiv, 16-yetaklanuvchi, 17- tasma.

Barabanli qurilmani hisoblash uchun nazariy tadqiqot ishlari olib borilgan. Natijada apparatdagi umumiy bosimni hisoblash uchun tenglama keltirib chiqarilgan [10,11].

$$P_{об} = \lambda_1 \cdot \frac{l}{d} \cdot \rho_{см} \cdot \frac{\omega_{см}^{\ 2}}{2} + \Delta П \frac{\Sigma S_c \cdot \delta}{\Sigma S_c \cdot a} \cdot \frac{\rho_{см} \cdot \omega_{см}^2}{2} + \lambda_2 \cdot \frac{l}{d} \cdot \rho \cdot \frac{\omega^2}{2} \qquad (1)$$

1-rasm. Barabanli qurilmani umumiy ko‘rinishi.

bunda λ_1-changli gazni qurilmaga uzatuvchi quvur devori bilan ishqalanish koeffitsienti, l-changli gaz harakatlanayotgan quvur uzungigi, m; d-quvur diametri, m; ρ_{sm}-changli havo aralashmasi zichligi, kg/m^3; ω_{sm}-quvurda harakatlanayotgan changli havo aralashmasi tezligi, m/s. Aralashma zichligi.

ω_{sm} – changli havo aralashmasini baraban setkasi yuzasida harakatlanish tezligi, m/s; ξ_s – baraban setkasining qarshilik koeffitsienti.

Apparatning nazariy umumiy qarshilik koeffitsienti quyidagiga teng bo‘ladi [10].

$$\xi_{ум} = \xi_к + \xi_c + \xi_ч \qquad (2)$$

$$\xi_{ум} = \lambda_1 \frac{l}{d} + \Delta П \frac{\sum S \cdot \delta}{\sum S \cdot a} + \lambda_2 \frac{l}{d} \qquad (3)$$

Baraban setkasining umumiy qarshilik koeffitsienti setkadan changli havo o‘tadigan yuzasiga bog‘liq xolda quyidagicha aniqlanadi [10,11].

$$\xi_c = \Delta П \frac{\sum S_c \cdot \delta}{\sum S_c \cdot a}, \qquad (4)$$

bunda ΔP-to‘g‘rilash koeffitsienti bo‘lib, tajribalar orqali aniqlanadi, ΣS_c- setkadan changli havo o‘tadigan qismining umumiy yuzasi, m^2; δ-setka simi qalinligi, m; a-setkaning kvadrat teshik o‘lchamlari, m; bunda λ_2 – tozalangan havoni chiqarish quvuridagi ishqalanish koeffitsienti; l-tozalangan havo harakatlanayotgan quvur uzungi, m; d-quvur diametri, m; ρ-tozalangan havo zichligi, kg/m^3; ω-quvurda harakatlanayotgan tozalangan havo tezligi, m/s.

Olingan natijalar.

Apparatni qarshilik koffitsientini tajribaviy aniqlashda ventilatorni so‘rish qismidagi gaz sarfini, ventilatorni apparat korpusiga o‘rnatilib, apparatdan chiqayotgan gaz sarflari aniqlangan. Bu gaz sarflari farqidan apparatni mahalliy qarshilik koeffitsientlari aniqlandi. Apparatni mahalliy qarshiligi ξ_m=0,35 ni tashkil etgan. Hisoblash ishlarini soddalashtirish uchun 3-formula quyidagi ko‘rinishga keladi.

$$\xi_y = 0,35 + \Delta П \frac{\sum S_c \cdot \delta}{\sum S_c \cdot a} \qquad (5)$$

Tajribalarning keyingi bosqichida apparat korpusiga kvadrat teshik o‘lchami a=0,6;0,8;1mm li setkalar ishchi barabanga o‘ralib, setkali baraban hosil qilindi va korpusga ketma-ket o‘rnatilib tajribaviy tadqiqitlar natijasida apparatga suv sepilmagan holatdagi qarshilik koeffitsientlari aniqlangan. Natijalarga ko‘ra setka kvadrat teshigi o‘lchami a=0,6mm, setka simi qalinligi δ=0,25 mm bo‘lganda qarshilik koeffitsienti ξ_s=2, teshik o‘lchami a=0,8mm**,** setka simi qalinligi δ=0,325 mm bo‘lganda ξ_s =1,8; teshik o‘lchami a=1mm, setka simi qalinligi δ=0,4 mm bo‘lganda ξ_s=1,6 ni tashkil etdi Olingan natijalar asosida grafik qurilgan (2-rasm).



2-rasm. Apparatga o‘rnatilgan setka o‘lchamlariga bog‘liq holda qarshilik koeffitsientining o‘zgarish grafigi

Olingan regressiya tenglamasini ko‘rinishi quyidagicha.

$y = 3{,}9866x + 1{,}2937$ $R^2 = 0{,}9468$

Tajribaviy tadqiqot natijalari asosida setkalarni qarshilik koeffitsientlarini aniqlash uchun tuzatish koeffitsientlari aniqlandi (1-jadval) .

1-jadval.

Tuzatish koeffitsientini aniqlashda o‘tkazilgan tajribalar natijalari

№	Setka kvadrat teshigi o‘lchamlari; **a,** mm	Setka simi qalingigi; **δ, mm**	Setkadagi simlar soni; **n,** dona	Qarshilik koeffitsienti; **ξ**	Tuzatish koeffitsienti **ΔP**
1	0,6	0,25	1176	1,65	17,6
2	0,8	0,325	888	1,45	17
3	1,0	0,4	714	1,25	16

Tajribalarning keyingi bosqichida apparat korpusiga setka o‘rnatilgan holatda suv sepmasdan va suv sepilib, yo‘qotilgan bosim aniqlandi. Olingan tajriba natijalari kompyuter dasturi asosida qayta ishlanib grafik qurildi (3-rasm).



3-rasm. Gaz tezligiga bog‘liq holda yo‘qotilgan bosimni o‘zgarish grafigi. (suv sepilmagan holatda)
1-d=0.6mm; 2-d=0.8mm; 3-d=1mm;

Olingan regressiya tenglamalari quyidagicha

$y = 1{,}407x^2 - 11{,}76x + 53{,}5$ $R^2 = 0{,}9843$
$y = 1{,}4264x^2 - 11{,}787x + 54{,}088$ $R^2 = 0{,}9849$
$y = 1{,}2384x^2 - 6{,}1803x + 21{,}296$ $R^2 = 0{,}9979$
$y = 1{,}3665x^2 - 11{,}608x + 51{,}668$ $R^2 = 0{,}9846$

Kvadrat teshik o‘lchami a=0,6;0,8;1mm li setkali barabanlarga xar biri uchun aloxida-aloxida $Q=141\div732 m^3$/soat (141 m^3/soat qadam bilan) o‘zgarmas gaz sarflari berildi. Xar bir gaz sarflarida apparat setkali barabaniga 4 dona **S32-412** markali shtuserlardan $Q_s=0{,}075\div0{,}3 m^3$/soat (0,075 m^3/soat qadam bilan) suv sepildi. Tanlangan setkalarga sepilgan suvning xar bir qadamida apparatdan chiqayotgan gaz tezliklari va sarflari aniqlandi. Gaz sarflari farqlari orqali apparatga suv sepilgan holatidagi umumiy qarshilik koeffitsientlari aniqlandi. Har bir rejim uchun aniqlangan

qarshilik koeffitsientlari va gaz tezliklariga bog‘liq holda yo‘qotilgan umumiy bosim aniqlandi.Olingan tajriba natijalari kompyuter dasturi asosida qayta ishlanib bog‘liqlik grafiklari qurildi (3,4,5,6-rasmlar).



4-rasm. Suyuuqlik sarfi Q_s=0,075 m^3/soat-const bo‘lganda yo‘qotilgan umumiy bosimining gaz tezligiga bog‘liqligi.

Olingan regressiya tenglamasini ko‘rinishi quyidagicha

$y = 1,3665x^2 - 11,608x + 51,668$ $R^2 = 0,9846$
$y = 1,4563x^2 - 6,0986x + 25,67$ $R^2 = 0,9988$
$y = 1,3423x^2 - 5,6846x + 21,27$ $R^2 = 0,9996$
$y = 1,4147x^2 - 1,3914x + 7,586$ $R^2 = 0,9999$



5-rasm. Suyuuqlik sarfi Q_s=0,150 m^3/soat - const bo‘lganda yo‘qotilgan umumiy bosimining gaz tezligiga bog‘liqligi.

Olingan regressiya tenglamasini ko‘rinishi quyidagicha.

$y = 1,2384x^2 - 6,1803x + 21,296$ $R^2 = 0,9979$
$y = 1,3681x^2 - 5,7122x + 21,856$ $R^2 = 0,9996$
$y = 1,518x^2 - 6,758x + 30,23$ $R^2 = 0,9984$
$y = 1,4715x^2 - 1,5511x + 9,866$ $R^2 = 0,9997$



6-rasm. Suyuuqlik sarfi Q_s=0,225 m^3/soat-const bo‘lganda yo‘qotilgan umumiy bosimining gaz tezligiga bog‘liqligi.

Olingan regressiya tenglamasini ko‘rinishi quyidagicha.

$y = 1,407x^2 - 11,76x + 53,5$ $R^2 = 0,9843$
$y = 1,3785x^2 - 5,2229x + 19,744$ $R^2 = 0,9997$
$y = 1,6174x^2 - 8,3427x + 38,432$ $R^2 = 0,998$
$y = 1,4376x^2 + 0,5688x + 1,684$ $R^2 = 0,9994$



7-rasm. Suyuuqlik sarfi Q_s=0,3 m^3/soat -const bo‘lganda yo‘qotilgan umumiy bosimining gaz tezligiga bog‘liqligi.

Olingan regressiya tenglamasini ko‘rinishi quyidagicha.

$y = 1,4264x^2 - 11,787x + 54,088$ $R^2 = 0,9849$
$y = 1,3721x^2 - 4,2562x + 15,886$ $R^2 = 0,9997$
$y = 1,6017x^2 - 6,9114x + 32,53$ $R^2 = 0,9979$
$y = 1,5273x^2 - 0,3005x + 6,406$ $R^2 = 0$

1-setka diametri d=0,6 mm bo‘lganda; 2-setka diametri d=0,8 mm bo‘lganda; 3-setka diametri d=0,6 mm bo‘lganda;

Yuqoridagi 4, 5, 6, 7-rasmlarda keltirilgan grafiklardan ko‘rinadiki o‘zgarmas suyuqlik sarflarida setka teshiklari o‘lchami kichiklashishi bilan yo‘qotilgan bosimning qiymati ortishi kuzatiladi. Suyuqlik sarflari Q_s=0,150÷0,3 m^3/soat oraliqda (0,075 m^3/soat qadam bilan) o‘zgartirilganda ham yo‘qotilgan umumiy bosim qiymati ortib bordi. Yo‘qotilgan umumiy bosimning nazariy va tajribaviy qiymatlari orasidagi xatolik Δ=5% dan oshmaydi. O‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar tavsiya etilgan 1-formulani to‘la tasdiqladi.

Xulosa.

Maqolada ho‘l usulda chang tozalovchi barabanli apparatni tajriba qurilmasida, turli gaz va suyuqlik oqimlari rejimlarida o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqot natijalari keltirildi. Qurilmaning ishchi qismlaridagi mahalliy va umumiy qarshilik koeffitsientlari va yo‘qotilgan umumiy bosimlari aniqlandi. Natijada bu bosimlarga bog‘liq holda apparatning changli gazlarni tozalash samaradorligini optimal qiymatlari va energiya istemolini aniqlash uchun imkoniyat yaratildi.

Adabiyotlar

[1]. Валдберг А.Ю., Николайкина Н.Е. Протсессы и аппараты защиты окружающий среды. Защита атмосферы: Учебное пособие для вузов / М.: Дрофа, 2008. – 239 с. 4.

[2]. Gulmiraxon M. эт al. ANALYSIS OF THE DISPERSION COMPOSITION OF DUST PARTICLES //Yosh Tadqiqotchi Jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – S. 70-79

[3]. Домуладжанов И. Х., Мадаминова Г. И. Вредные вещества после сухой очистки в циклонах и филтрах //Универсум: технические науки. – 2021. – №. 6-1 (87). – С. 5-10.

[4]. Исомидинов А.С., Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т. Роторное устройство для мокрой пылеочистки // Научно-технический журнал ФерПИ-2018 Фергана, 2018.- №1 –Б. 195-198.

[5]. Isomidinov A., Madaminova G., Zokirova M. ANALYSIS OF MODERN INDUSTRIAL DUST GAS CLEANING DEVICES //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – S. 137-144.

[6]. Isomidinov, A., Madaminova, G., Qodirov, D., & Ahmadaliyeva, M. (2021). Studying the Effect of Interior Scrubber Hydraulic Resistance on Cleaning Efficiency. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(5), 87-93.

[7]. Ikromaliyevna M. G. NEW DESIGN OF WET METHOD WET CLEANING BLADE-DRUM DEVICE //American Journal Of Applied Science And Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 05. – S. 106-113.

[8]. Karimov, I., Tojiyev, R., Madaminova, G., Ibroximov, Q., & Xamdamov, O. T. (2021). Wet method dust remover dlack drum device. Barqarorlik va Yetakchi Tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 1(5), 57-63.

[9]. Каримов, И., Тожиев, Р., Мадаминова, Г., Иброхимов, Қ., & Хамдамов, О. Т. (2021). Ҳйдродйнамисс оф wet душ пowдер бласк друм экуипмент. Научный онлайн-журнал исследований в области устойчивого развития и управления, 1(5), С.49-56.

[10]. Мадаминова Г.И., Тожиев Р.Ж., Каримов И.Т. Барабанное устройства для мокрой очистки запыленного газа и воздуха// Универсум: технические науки.– №. 5 (86). Част 4.,М., Изд.”МСНО”,-2021. С.45-49.

[11]. Мадаминова Г.И. Исследования по определению контактных поверхностей пыли //Универсум: технические науки. – 2022. – №. 5-7 (98). – С. 63-67.

AVTOMOBIL YO‘LLARI VA KO‘CHALARNI MANZARALI KO‘KALAMZORLASHTIRISH

A.A. Mirzaolimov

Farg‘ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 11.04.2023 y.)

Yo‘l insonni albatta qandaydir maqsadga «olib boradi», Yo‘l me’morchiligi (arxitekturasi). Shuning uchun makondagi yo‘l inshootlarining dinamik ko‘rinishi yo‘ldagilar uchun tushunarli, shakllardagi marom dinamikasi esa yo‘lning asosiy nuqtalariga yo‘nalgan bo‘lishi kerak. Yo‘l me’morchiligida asosan yo‘l kesib yoki aylanib o‘tadigan yirik aholi punktlari, katta ko‘priklar, dovonlar, yo‘l tutash joylariga e’tibor beriladi. Yo‘l bo‘yidagi manzaraning uzunligi va ta’sirchanligiga qarab ular alohida me’moriy havza, dominant yoki kompozistion havza markazi bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *Arxitektura, shaharsozlik, landshaft, ko‘cha va yo‘llar, me’moriy muhit, ko‘kalamzorlashtirish, piyodalar yo‘lagi, monumental bezatish.*

The road definitely "leads" a person to some goal, Road architecture (architecture). Therefore, the dynamic appearance of road structures in the space should be understandable for those on the road, and the rhythmic dynamics of the forms should be directed to the main points of the road. In road architecture, attention is mainly paid to large settlements, large bridges, passes, and road junctions that the road crosses or bypasses. Depending on the length and impressiveness of the landscape along the road, they can be a separate architectural basin, a dominant or the center of a compositional basin.

Keywords: *Architecture, urban planning, landscape, streets and roads, architectural environment, landscaping, sidewalks, monumental decoration.*

Дорога обязательно «ведет» человека к какой-то цели, Дорожной архитектуре (архитектуре). Поэтому динамичное появление дорожных конструкций в пространстве должно быть понятным для тех, кто находится в дороге, а ритмическая динамика форм должна быть направлена на основные точки дороги. В дорожной архитектуре внимание в основном уделяется крупным населенным пунктам, крупным мостам, перевалам и транспортным развязкам, которые дорога пересекает или обходит. В зависимости от протяженности и внушительности ландшафта вдоль дороги они могут быть отдельным архитектурным бассейном, доминантой или центром композиционного бассейна.

Ключевые слова*: Архитектура, градостроительство, ландшафт, улицы и дороги, архитектурная среда, благоустройство территории, тротуары, монументальное оформление.*

Kirish: Odatda harakatda yo‘nalgan maqsad shaharlar, katta ko‘priklar bo‘ladi va yo‘ldagi insonlar ularga yaqinlashib qolishganini uzoqdan his qilishlari kerak. Bunga erishish uchun yo‘lda ko‘rinadigan shakllarning maromi aniq bo‘lishi, shahar oldidagi ikki-uch me’moriy havzalar dinamikasida bog‘liqlik bo‘lishi, har bittasining ichida, ayniqsa, shahar oldidagi oxirgi havzada dinamika bo‘lishi kerak. Shunga o‘xshab, katta ko‘priklar, tog‘ dovonlari, tabiiy to‘siqlar tomonga yo‘nalgan dinamika ham aniq bo‘lishi lozim. Avtomobil yo‘llari yoqasidagi me’moriy ko‘rinishlar «aniqligi» qanday oshib borishini chizma bilan ko‘rsatsa bo‘ladi. Kompozistion markazlar yaqinlashgani sari ishoralarning «aniqligi» oshib boradi, buni xususan shartli ustunlar – dominantlarning balandligi oshishi bilan ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga har bitta dominantning o‘zi kompozistion o‘q yoki havza chetida bo‘lsa ham o‘z me’moriy havzasining markazi bo‘ladi, ularni bir-biridan ajratib turish lozim.

Havzaning ko‘p qismi ko‘tarma chetidan ko‘rinishi uchun me’moriy havza chegarasi uzun kesimi yuqoriga chiqqan joydan o‘tishi kerak. Tik ko‘tarilgan joylardan tashqari aholi punktlari, manzara chegarasi, ko‘zga tashlanadigan alomat (akstent) bilan birlashgan burilish joylari ham me’moriy havza chegarasi bo‘lishi mumkin. Bitta havzadagi manzara ichida bir xil fon bilan shu fonda ajralib ko‘rinadigan, diqqatni tortadigan akstent ajratiladi. Manzaradagi bitta elementning o‘zi fon yoki akstent qilib olinishi elementning tez-tez ko‘rinishiga, uning yonidagi elementlardan keskin farq qilishiga bog‘liq bo‘ladi. Faqat ko‘rinishi, rangi yoki o‘lchami boshqacha bo‘lishining o‘zi elementga diqqatni tortmaydi, u e’tiborga tushadigan bo‘lishi, boshqa elementlardan ajratib ko‘rsatilishi (akstentlanishi) kerak.

Yo‘ldagi akstentlar ikki xil bo‘lishi mumkin. Birinchi xilida ular havzaning chetida turib me’moriy havzalarni bir-biridan ajratadi, boshqa xilida esa dominant bo‘lib havza ichidagi umumiy bir ko‘rinishdagi fonda keskin ajralib turadi (dominant bo‘ladi). Uzoqdan ko‘rinadigan (optimal ko‘rinadigan masofadagi), havzadagi me’moriy kompozistiyaning asosiy o‘qi yoki markazi bo‘ladigan yo‘l manzarasidagi elementgina dominant bo‘lishi mumkin. Yo‘ldagi vositalar, yo‘l ko‘rsatgichlaridan boshlab harakat xizmati majmualarigacha akstent vazifasini bajarishi mumkin. Dominantga misol qilib shaharga kirish yo‘lining bezatilishi, yo‘nalish chizmasi, yodgorlik, ajratib bo‘yalgan pavilon, yo‘l ustidagi yo‘l o‘tkazgichlar va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Muhokama va natijalar: Me’moriy havzalar ko‘pincha yuqoriga tik ko‘tarilgan joylarda qabariq egrilik, yo‘l va manzaradagi boshqa elementlar bilan qo‘shib ajratiladi. Cho‘l manzarasidagi havzalarni asosan oldindagi tik ko‘tarilgan qabariq egrilar ajratadi. Quyidagi ajratish usullari ham ko‘p ishlatiladi: o‘rmon joyda – manzaradagi boshqa elementlar bilan uyg‘unlashgan bino va aholi punktlari yoki daraxtlar to‘p o‘sgan alohida joylar, o‘rmonlar, yo‘l kesishgan joylar, yo‘l o‘tkazgichlar, yo‘l tutashgan joylar; dasht joylarda – alohida o‘rmonlar, daraxtlar to‘p o‘sgan joylar, yo‘lni kesib o‘tadigan dalani himoya qiladigan tasmalar, dasht fonida keskin ajralib turadigan boshqa elementlar.

Umumiy ansamblning bir qismi bo‘ladigan har bitta me’moriy manzara boshqasidan farq qilsa, haydovchi yoki yo‘lovchi bu farqqa e’tibor qilsa, tushunsa va me’moriy bezatish uzoq davom etgani uchun charchatmasa esda qoladi. Me’moriy havzalarning optimal uzunligi quyidagicha bo‘lishi tavsiya qilinadi:

Yo‘l toifasi	Me’moriy havzanning uzunligi, km
I	10-16
II va III	8-10
IV va V	6-8

Avtomobil yo‘llarining me’moriy kompozistiyasini loyihalash. Yo‘l poyidan tashqaridagi hududning atrofidagi manzara - yo‘l belgilari, ko‘kalamzorlashgan tasma avtomobil yo‘li ko‘rinishining me’moriy qismlarini tashkil etadi. Haydovchilarning ruhiy va jismoniy xususiyatlariga qarab har bitta element ma’lum bir vazifani bajaradi. Harakatga xizmat qiladigan, va harakat bilan bog‘liq har bitta inshoot esa mo‘ljallangan maqsadidagi vazifadan tashqari yo‘ldagi umumiy me’moriy ansambldagi akstent vazifasini bajarishi kerak.

Haydovchi nazariga ko‘proq tushadigan yo‘l bilan manzaradagi hamma asosiy elementlarni aniq tasavvur qilish uchun loyihasi tuzilayotgan yoki qayta qurilayotgan yo‘lning chiziqli me’moriy chizmasi tuziladi.

Uning ko‘rinishi har xil bo‘lishi mumkin. Ahamiyatli tomoni, yo‘l bilan manzaradagi asosiy elementlarni ko‘rsatish, hamda ahamiyatsiz tafsilotlarni tushirib qoldirish uchun chizmaning miqyosi kichik bo‘lishi kerak. Miqyos (masshtab) 1:100000 nisbatda olinsa qulayroq bo‘ladi, murakkabroq holatlarda, tog‘li joylarda 1:50000 miqyosni ishlatish mumkin

Avtomobil yo‘llarini manzarali ko‘kalamzorlashtirish arxitekturaviy nisbatlar asosida asoslanadi va trassa elementiga bog‘lanadi. Manzarali ko‘kalamzorlashtirishni ko‘p almashtirish ham mumkin emas, bu yo‘lni bezatishda xilma-xillikni yuzaga keltiradi va avtomobillarni tez harakatlanishida kerakli qoniqish bermaydi. Ko‘kalamzorlashtirish xarakteri 2 -3 km dan kam bo‘lmagan va 10 km dan ko‘p bo‘lmagan oraliqda tez o‘zgarmasligi shart. Manzara beruvchi yoki ajralib turuvchi ekinlar maqsadi haydovchini yo‘lning muhim joylarida va potenstial xavfli uchastkalarda e’tiborini tortmasligi yoki aksincha haydovchini e’tiborini tortishi, muhim yoki harakat xavfsizligi uchun yoki yo‘llarni me’moriy tashkil etishda (misol uchun havzalarni chegarasini belgilashda) e’tiborni tortishi kerak. Akstentlovchi ekinlar bo‘ylama kesimni bo‘rtiq joylarida «eshik»ni tashkil qiladi (5.25, 5.26 – rasmlar).

Yo‘llarni monumental bezatish imkoniyatdan kelib chiqqan xolda tekislikda bo‘lishi lozim. Uning axborot tarkibi shunday bo‘lishi kerakki, haydovchi uzoqdan ko‘rganda yoki yonidan o‘tganda qayta ko‘rish ishtiyoqi tug‘ilmasligi lozim. Monumental bezatish kabi belgilarni ham bo‘ylama kesimni bo‘rtiq joylarida yoki rejadagi egrining ichki tomonida joylashtirish kerak. Bunda monument yoki ko‘rsatgichni asosiy mohiyati ko‘rinish – yo‘naltirish elementida asosiy vazifani

bajaradi. Agar uning o‘lchamlari etarli darajada katta bo‘lsa, u holda tavsiya etilgan landshaftda ajralib ham turadi.

Avtomobil yo‘llarini landshaftli bezash va ko‘kalamzorlashtirish bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir qator vazifalarni o‘z ichiga oladi: yuqori tezlikda avtomobillar harakat xavfsizligini va yuqori qulaylik darajasini ta’minlash maqsadida trassa elementlarining o‘zaro bir tekis bog‘liqligiga qo‘yilgan talablarga amal qilish; haydovchining “vizual yo‘nalishini” ta’minlash – haydovchi harakat vaqtida harakat rejimini to‘satdan o‘zgartirishni talab qiladigan, o‘zi uchun tasodifiy bo‘lgan yo‘l sharoitini o‘zgarishiga duch kelmasligi uchun etarlicha katta masofada va hattoki haqiqiy ko‘rinish chegarasidan tashqarida yo‘l yo‘nalishini ravshanligi. Yo‘lning ko‘rinadigan bo‘laklari va yo‘l bo‘yi mintaqasi haqiqiy ko‘rinish chegarasidan tashqarida harakat yo‘nalishini o‘zgarishini haydovchiga oldindandan ko‘rsatib to‘rishi kerak; yo‘l trassasi elementlarini shunday belgilash kerakki, kelajakda ba’zi-bir yo‘l bo‘laklari ko‘rinishining vizualligi buzilishiga olib kelmasin va haydovchida yo‘lning keyingi bo‘laklarida asossiz ravishda yo‘llarni keskin buzilishi borligiga tassurot yuzaga keltirmasin; harakat qulayligini oshirish, harakat ishtirokchilariga tabiatning go‘zalligini yanada yaxshiroq ko‘rsatish, yo‘l qurilishida mavjud yo‘l bo‘yidagi landshaft qonuniyatlarini buzilishini oldini olish, atrof muhit muhofazasi talablariga amal qilish uchun joyning landshaftiga yo‘lni bir tekis qo‘shilishini ta’minlash; tarixiy va madaniy yodgorliklar, qimmatbaho qishloq xo‘jaligi erlarini saqlab qolish, yo‘lning atrof muhitga zararli ta’sirini kamaytirish; daraxtlar va butalarni ekish, rejalashtirish va quritish ishlarini olib borish, suv havfzalarini yaratish, yo‘lning ba’zi bir bo‘laklari landshaftini ko‘rinishini ochib berish yoki yashirish bilan yo‘l bo‘yi mintaqasida tabiiy landshaftni yaxshilash va to‘ldirish. Shu maqsada yuqori toifali yo‘llarda qoidaga ko‘ra, engil avtomobillarning ulushi katta bo‘lganda, chiroyli ko‘rinishni yashiradigan o‘rmonni siyraklashtirish yoki o‘ymalar yon bag‘rini qirqish shuningdek, yo‘l yon bag‘rlari katta yalang‘och qismini yoki qazib ishlov berilgan joylarning chiroyli bo‘lmagan qismini o‘simlik qatlami bilan yashirish amalga oshiriladi.

Yo‘llarni ko‘kalamzorlashtirishning ko‘p sonli vazifalari tarkibiga yo‘lni landshaft bilan muvofiqlashtirish vositasi sifatida daraxt va bo‘ta ekinlaridan foydalanish, uni bezash va qo‘shimchalar kiritish kiradi.

Ko‘kalamzorlashtiruvchi-mutaxassis bilan hamkorlikda puxtalik bilan saralangan daraxt-bo‘ta ekinlari quyidagilarga imkon beradi: yo‘l bo‘yi landshafti yoki yo‘lning inshootlarini muvoffaqiyatsiz yoki ko‘rimsiz joylarini ko‘rinishini yopish: yo‘l chetidagi ishlov berilgan karerlar, o‘simliklar bilan qoplangan o‘ymaning yalang‘och yon bag‘ri, yo‘llarni kesib o‘tuvchi yo‘l o‘tkazgichlarga tutashuv ko‘tarmasi, yo‘l uchun ajratilgan mintaqa chegarasi yaqinida omborlar hududi va boshqalar.

Yo‘l bo‘yi mintaqasidagi bir xil cho‘l joylarda haydovchilarni diqqatini faollashtiradigan va jalb qiladigan alohida manzarali guruhlarni yaratish; shaharlar va kurort joylariga kirish yo‘llarida sayohat maqsadiga yaqinlashishni ta’kidlash, ayrim holatlarda tantanavor kayfiyatni yaratish maqsadida avtomobil yo‘lining to‘g‘ri bo‘laklarida baland daraxtlardan xiyobon ekish; trassa yo‘nalishini va burilishning keskinligini kelgusida o‘zgarishini haydovchilarga haqiqiy ko‘rinish chegarasida ko‘rsatadigan “to‘siq” ko‘rinishidagi ekinlardan vizual yo‘nalishni tashkil etish, cho‘l tumanlarda ikkinchi darajali yo‘lni bir satxda kesishishi va tutashishini ko‘rsatadigan “ishora beradigan” ekinlarni barpo qilish.

Joylarda tabiiy holatda yo‘naltirgichlar mavjud bo‘lmaganda ularni yo‘l bo‘yi mintaqasida manzarali daraxtlar guruhlari ko‘rinishida yoki yodgorliklar ko‘rinishida, diqqatga sazavor joylarni yo‘l chetidan joylashishini ko‘rsatadigan sun’iy yo‘naltirgichlar tashkil etiladi.

Ko‘kalamzorlashtirish yo‘l harakati xavfsizligi, yo‘llarni ekspluatastiya qilish talablari bajarilishini ta’minlashga oldindan mo‘ljallangan muhandislik echimlari asosida amalga oshirilishi lozim. Bu yo‘l loyihasining ajralmas qismi bo‘lib, yo‘llar chorrahasi, avtobus bekatlari, ko‘prikli o‘tish va yo‘l o‘tkazgichlar atrofini ko‘kalamzorlashtirish loyihasi bo‘lishi kerak. Ko‘kalamzorlashtirish loyihasida tabiiy resurslardan maksimal foydalanish imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Yo‘l loyihasida ko‘kalamzorlashtirish ehtiyoji hisobga olinishi kerak. Zahiralar va grunt olingan joylarning joylashishi ko‘kalamzorlashtirish ishlari davomida qo‘shimcha ishlar bajarilishiga olib kelmasligi kerak. Ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha ishlar qurilish vaqtida amalga oshirilishi va ob’ektni tayyorlash ushbu ishlarni o‘z ichiga olishi kerak. Yo‘llarni me’moriy va landshaft loyihasi me’morlar va yo‘lchilardan iborat kompleks qidirish partiyalari tomonidan bajarilishi kerak va fotogrammetrik ishlar amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, madaniy, tarixiy va arxitektura yodgorliklari bilan aholi punktlari ajratilishi, hamda atrof-muhitda dominant sifatida aniqlanishi mumkin bo‘lgan ob’ektlar belgilanishi kerak, ya’ni: aerosuratlar, har qanday hajmdagi topografiya rejalari, materiallar, loyiha oldi ishlanmalari (ishlab chiqarish sxemasi va h.k.); me’moriy havzalarning taxminiy chegaralari va mazmuni; me’moriy havzalar chegarasi sifatida xizmat qiladigan bo‘ylama kesimning eng sezilarli qabariqlarining joylashishi.

Ko‘kalamzorlashtirishning miqdorini aniqlash uchun 1:500 masshtabdagi yo‘l xaritasida yo‘l bo‘yidagi o‘simlik ekiladigan maydonlar ko‘zdan kechiriladi. Qayta tiklashga yaroqsiz bo‘lgan landshaft guruhlari konturi belgilanadi, rekonstrukstiya qilinadiganlarni balandligi, diametri, turi (shox shabba shakli, tanasi) aniqlanadi. Dendrologik eskizlarda landshaftlar guruhlari, rekonstrukstiya qilinadigan joylarni ajratish yo‘li bilan chizmalar tayyorlanadi.

Dam olish maydonlari, murakkab yo‘l kesishmalari, yo‘l bo‘yidagi buzilgan releflar hududida, topografik yoki fototopografik rasmga olishlar 1:500-1:1000 masshtabda amalga oshiriladi. Yo‘lda me’moriy va tarixiy yodgorliklar mavjud bo‘lganda umumiy o‘lchovlar amalga oshiriladi, buning asosida ushbu ob’ektlarni rekonstrukstiya qilish va tiklash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin. Aholi yashash joylari orqali o‘tadigan yo‘llarning uchastkalarida yo‘l harakati xavfsizligi sharoitlarini o‘rganish bilan bir qatorda, me’mor binolarni razvyortka (yoyib tekshirish) ishlarini amalga oshiradi va binolarni bezash va obodonlashtirish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Yo‘llarni qurish va rekonstrukstiya qilish, yo‘l uchastkalarini kapital ta’mirlash bo‘yicha ishchi loyihalarni amalga oshirishda loyihalar va ishchi loyihalarda arxitektura va landshaft dizayni talablarini inobatgaolgan holda, yo‘llarni rejalashtirish, yo‘llarni rekonstrukstiya qilish va kapital ta’mirlashni nazarda tutish kerak.

Ko‘kalamzorlashtirish loyihasida mavjud axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish ishlari tarkibiga quyidagilar kiradi: me’yoriy – texnik hujjatlar bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish va o‘rganish; qidirilayotgan ob’ektning kartografik (rejalashtirish) materiallarini to‘plash; buyurtmachidan ko‘kalamzorlashtirishning holatini va mos turini hisobga olish, tashkil etish texnologiyasi, ishchi sxemalarni mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot olish; o‘rmon o‘stirish, hududni tuproq - gidrologik va topografik sharoitlari to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘ish; yo‘l uchun ajratilgan mintaqa va yon bag‘irlarni (nurashga qarshi ko‘kalamzorlashtirishni loyihalashda) nurash jarayoni tavsifi; qor bosish hajmi (qordan ximoyalovchi ko‘kalamzorlashtirishni loyihalashda); qumlarni mavjudligi va ko‘chish tavsifi (qumdan himoyalovchi ko‘kalamzorlashtirishni loyihalashda); transportdan ifloslanish tavsifi (shovqin- gaz-changdan himoyalovchi ko‘kalamzorlashtirishni loyihalashda); yo‘lning arxitektura-tasviriy bezatilganlik darajasi (manzarali ko‘kalamzorlashtirishni loyihalashda) va boshqalar; havo va tuproq harorati, havoni nisbiy namligi, yog‘ingarchiliklar, qor qalinligi, vegitastiya davri va boshqalarning ko‘p yillik o‘rtacha ko‘rsatgichlari (jumladan iqlim ma’lumtnomalari va meteostanstiya ma’lumotlaridan) to‘g‘risida ma’lumot yig‘ish.

Yo‘lning vizual ravonligini va ravshanligini ta’minlash qoidalari.

V izual yo‘nalish beruvchi vositalarga: yo‘l jihozlari yo‘l bo‘yi o‘simliklari, ayniqsa, baland bo‘yli daraxtlar kiradi. Daraxtlarning baland cho‘qqilari uzoqdan aniq ko‘rinadi va haydovchilarning e’tiborini tortib, yo‘lning keyingi yo‘nalishini ko‘rsatadi (23-rasm);

Yo‘lning yo‘nalishlarini daraxt cho‘qqilari bilan belgilash: a - daraxt shox-shabbalari burilishni yo‘l o‘qining sindirilganidan so‘ng aniq ko‘rsatadi; b - bir guruh daraxtlar tomonidan ko‘rsatilgan T shaklida kesishish; v - oralig‘ masofada joylashgan daraxt guruhlari tomonidan belgilangan uzun yo‘lning bir qismi; g - bir guruh daraxtlar tomonidan ko‘rsatilgan kichik radiusning egri chizig‘i, bu yo‘lni alohida yuqori jismlarga yo‘naltiradi, bu esa haydovchilarning e’tiborini oshiradi.

Zamonaviy avtomobil yo‘llarini atrofdagi manzara bilan uyg‘unlashtirish va mavjud landshaftni saqlab qolish, hamda uni yangi elementlar bilan boyitish yo‘llarni qurish va foydalanishda tabiatga etkazilgan zararni qoplash imkonini beruvchi manzarali va himoya ko‘kalamzorlashtirishning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Yo‘l atrofining landshaftini haydovchilar va yo‘lovchilar ma’lum bir tezlikda yurganda anglaydilar. Shunday qilib, diqqat faqat alohida landshaft joylarga qaratiladi. Shuning uchun, har bir peyzaj shaklini yoki landshaftni dominant ob’ektini tanlash uchun: ko‘l, tepalik, toshlar, bog‘, bino, inshootlar, binolar va boshqalarni tanlash kerak. Bu landshaftni xilma-xilligini ta’minlaydi va monotonlikka yo‘l qo‘ymaydi.

Avtobuslarni to‘xtatish joylari yo‘l muhitida aniqlanishi uchun ularni obodonlashtirishda “fon” va “yo‘naltiruvchi” daraxtlar qo‘llaniladi. Ulardan farqli o‘laroq, dam olish maskanlari tabiiy muhit bilan iloji boricha ko‘proq birlashtiriladi. Agar relefda o‘zgarish sodir etish va o‘simlik qoplamini ko‘rinishini o‘zgartirish va o‘simliklar bilan o‘ymalar, ko‘tarmalarni niqoblash zarur bo‘lsa, u holda quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi: nishabda - qiyalikni mustahkamlaydigan daraxtlar va butalar guruhlarini; yo‘l bo‘ylab baland daraxtlarni; ko‘rinish balandligini kamaytirish uchun daraxtlar va butalar guruhini; baland qiyaliklardagi bir nechta tokchalar ustida - kichik daraxtlar va butalar guruhlarini tashkil etish.

Avtomobil yo‘llarining estetik jihatini ifodalovchi muhitni yaratish uchun landshaft bilan o‘zaro bog‘langan o‘simliklarni erkin tarzda tiklash tavsiya etiladi. O‘simliklarni loyihalashda jihozlash elementlarini, kichik me’moriy shakllar, manzaraviy haykallar, vizual axborot bilan birlashtirilishi kerak. Qator daraxtlar haydovchini uzoqdan burilish yo‘nalishiga yo‘naltiradi. Daraxt tanasi qalinligi 15 smdan ko‘p bo‘lganda daraxtlarni yo‘l chekkasida joylashtirish masofasi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$b_1 = 0{,}07v$,

bu erda b_1 – yo‘l chetidan minimal masofa, m; v – avtomobil hisobiy harakat tezligi, km/soat.

Xulosa: Yashil ekinlarni yaratish orqali yo‘l atrofini tartibga solish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar qo‘llanishi mumkin. Zich ekilgan daraxtlar va butalar guruhlari, ba’zi sabablarga ko‘ra, yo‘ldan ma’lum bir ko‘rinishni yopish kerak bo‘lsa, «to‘siq» yoki «parda» yaratishlari mumkin. Bunday to‘siqlar zichlik va balandlikda o‘zgarib turadigan bir necha qatorlarda joylashtirilishi mumkin. Ko‘chalarning arxitekturaviy manzarasini shakllantirishda daraxt va butalar beqiyos rang-barang shakllar, fakturalar va qiyofa hosil qiladi. O‘simliklarning manzaraboplik xususiyatlarining ko‘pligi, buning ustiga, vaqt va fasllar doirasida o‘z qiyofasini o‘zgartirib turishi; hududlarning landshaft-arxitekturaviy ko‘rinishini o‘zgartirishga cheklanmagan imkoniyatlarni ochib beradi.

Adabiyotlar

[1]. “LANDSHAFT ARXITEKTURASI” - A.S. URALOV, L.A. ADILOVA. Toshkent — 2014 (228-231 betlar)

[2]. “LANDSHAFT ARXITEKTURASI OBYEKTLARINI LOYIHALASH” - K.D. RAXIMOV, A.S. URALOV. Toshkent—2015 (176-186 betlar)

[3]. Nabiev.M.N, Mirzaolimov.A .A. (2021) «Greening and Landscaping Of The City Streets». «The American Journal of Applied Sciences». 3(05), 240-244.

[4]. Axmedov. J, Mirzaolimov. A. (2021) «Use of Modern Requirements in Beaytification and Landscaping of City Streets». «International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding». ISSN 2364-5369, Volume 8, No.7, July 2021.

SHAHAR DIZAYNI, NAZARIYA VA AMALIYOT

A.A. Mirzaolimov

Farg‘ona politexnika instituti, Tel: +998999996444

(Qabul qilindi 18.04.2023 y.)

Bugun zamonaviy shaharlar ko‘p qavatli binolari, serharakat ko‘chalari, o‘ziga chorlayotgan do‘konlari, bozorlari va istirohat maskanlari bilan insonning hayot tarziga, ruhiyati va badiiy-estetik didiga ta’sir etuvchi omilga aylangan. Shuning uchun ham shahar madaniyati alohida fenomen sifatida tadqiq

etiladi. Mazkur fenomenning shakllanishida arxitektura, shaharsozlik va badiiy-estetik vositalarni o‘zida uyg‘unlashtirgan «shahar dizayni» muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: *dizayn, arxitektura, shahar muhiti, loyihalashtirish, plakat, stend, panno, san’at asarlari, badiiy estetik obraz.*

Сегодня современные города с их многоэтажными домами, оживленными улицами, привлекательными магазинами, рынками, базами отдыха стали фактором, влияющим на образ жизни, психику и художественно-эстетический вкус людей. Именно поэтому городская культура изучается как отдельное явление. Важную роль в формировании этого явления играет «градостроительный дизайн», сочетающий в себе архитектурные, градостроительные и художественно-эстетические средства.

Ключевые слова: *дизайн, архитектура, городская среда, планировка, плакат, стенд, панно, произведение искусства, художественно-эстетический образ.*

Today, modern cities with their high-rise buildings, busy streets, attractive shops, markets, and recreation centers have become a factor affecting people's lifestyle, psyche, and artistic-aesthetic taste. That is why urban culture is studied as a separate phenomenon. "Urban design" that combines architecture, urban planning and artistic-aesthetic means plays an important role in the formation of this phenomenon.

Key words: *design, architecture, urban environment, planning, poster, stand, panel, works of art, artistic aesthetic image.*

Kirish: San’atshunoslikda “shahar atrofi dizayni”, “shahar muhiti dizayni”, “shaharni badiiy bezatish” va “shahar dizayni” tushunchalari ishlatiladi. Ular mohiyatan aynan tushunchalardir, shuning uchun “shahar dizayni” deganda biz shahar ichini, inshootlari va maydonchalarini, aholidan oladigan istirohat maskanlarini, kishilar nigohini, diqqatini tortadigan madaniy, maishiy muassasalar atrofini badiiy-estetik bezatish san’atini, loyihalashtirishni nazarda tutamiz. Uning

1-rasm. Dunyonong rivojlangan shaharsozligi.

asosiy resipiyenti shahar kishisidir.

“Shahar dizayni” tushunchasi o‘tgan asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan va u kishilar, ayniqsa iste’molchilar to‘planadigan joylarni, vitrinalarni informasiya tarqatish funksiyasini bajaradigan tumbalar reklamalar, ko‘rsatkich va afishalarni nazarda tutgan. Dizaynshunos V.L. Glazichevning fikriga ko‘ra, yuqoridagi oddiy bezaklar o‘rniga 50- yillarga kelib bil-bord, aylanma vitrinalar, savdo-sotiq o‘choqlariga ulanib ketgan kioskalar, ko‘p qavatli uylar oldida xalq amaliy san’ati namunalari bilan bezatilgan maydonchalar paydo bo‘ladi [5]. Natijada kishilarning badiiy-estetik didini shakllantirishga, inshootlar, ko‘p qavatli uylar, istirohat maskanlarini dizayn qonunlariga muvofiq badiiy bezatishga ehtiyoj tug‘iladi. Shahar kishisining serharakatligi, seytnot, psixologik

ta’sirlarning ortib borayotgani, butun badiiy-estetik izlanishlarda va san’at asarlari yaratishda bo‘lgani kabi shahar dizayni oldiga ham qator talablar qo‘yadi (1-rasm).

Birinchi talab shunda ediki, shahar dizayni mavjud inshootlar kompleksini, kishilarning ko‘zi tushadigan joylarni badiiy-estetik go‘zal, betakror va o‘ziga xos mohiyatli qilishi lozim. Qad ko‘tarayotgan inshootlar sonining oshishi bilan ularning tashqi ko‘rinishiga, badiiy-estetik jixatlariga talab ham ko‘paydi, ya’ni o‘tgan davrda an’anaga aylangan temir-beton inshootlarni qurishga badiiy-estetik ko‘rinish, bezash lozim bo‘ladi. Masalan, 60-70 yillarda Toshkentda (ayniqsa Chilonzor tumanida) nomini olgan temir- beton uylarda deyarli hech qanday badiiy- estetik mohiyat ko‘zga tashlanmaydi. Zerikarli, qo‘ng‘ir rangli beton-uylar ham shaharsozlikda dizayn belgilari shakllanmaganidan dalolat beradi. Mustaqillik yillarida zerikarli ko‘rinishdagi temir-beton inshootlarning birinchi qavatini zamonaviy shisha, mramor, plastika, alyubond va rang-barang vitrinalar bilan bezatish an’anaga aylandi. Bugun ushbu binolar dizaynida asekko (devorga rasm chizish uslubi) freska, vitraj, bakkar (xrustal bilan bezatish uslubi), rang-tasvir, grafika, glintika (toshga o‘yish san’ati), gobelen, izrazes, inkrustasiya bilan birga o‘zbek xalq amaliy san’ati – naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganch o‘ymakorligi va boshqalardan foydalanilayotganini ko‘ramiz.

Ikkinchi talab serharakat shahar kishisining vaqtini tejash hamda unda ma’lum bir voqealar, hodisalar haqida ta’surot uyg‘otish, fikr shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan [2]. O‘sha davrda hukmron bo‘lgan kommunistik mafkura ko‘chalar, maydonlar va binolarga turli shiorlar, plakatlar ilishni an’anaga aylantirgan. Ularda asosiy e’tibor shriftga, ya’ni shior mazmuniga mos keluvchi shriftdan foydalanishga qaratilgan. Shiorlar ko‘pincha qizil alvonga uzoqdan ko‘zga tashlanuvchi kesma shriftlar bilan yozilgan. 70-yillarga kelib katta ko‘chalarda, korxonalar maydonchalar, istirohat maskanlari va ma’muriy idoralar oldida katta plakatlar, temir konstruksiyalar yoki oq mramor bilan qoplangan stendlar, mozaika pannolar o‘rnatish keng tarqaladi. Mazkur stend va pannolarni hozirgacha Toshkent shahrida uchratish mumkin.

Shuni qayd etishimiz kerakki, mazkur plakat, stend va pannolar asosan ideologik vazifani bajargan, ularda shaharning badiiy-estetik obrazini yaratish, san’at asarlarini dizayn talablariga muvofiq loyihalashtirish, bezatish nazarda tutilmagan.

Uchinchi talab shahar – inson konsepsiyasi yuzaga kelgani bilan bog‘liqdir. O‘sha davrda o‘tkazilgan maxsus tadqiqotlar ko‘rsatadiki, shahar shunchaki makon, kishilar ishlaydigan va istiqomat qiladigan muhitgina emas, u insonning dunyoqarashi, badiiy-estetik didi va hayotiy idealini shakllantiradigan ijtimoiy-tarbiyaviy omildir. Shahar muhiti, undagi tarixiy-madaniy an’analar, turmush tarzi, arxitektura, ko‘chalar va istirohat maskanlari insonda ma’lum etnostereotiplarni shakllantiradi. Mazkur tadqiqotlarda shaharni loyihalashtirishga dizayn san’ati nuqtan nazaridan yondashish lozim, degan fikr ilgari suriladi. To‘g‘ri, ularda hali “shahar dizayni” degan ibora ishlatilmaydi, ammo tadqiqotchilar shahar muhitini badiiy-estetik g‘oyalar va asarlar bilan bezatish konsepsiyasini ilgari suradilar. Masalan, S.B. Bazazьyansning fikriga ko‘ra, shahar muhiti, ko‘chalar, inshoot va maydonlar musavvirga rang-barang san’at turlaridan foydalanishga imkon beradi, shuning uchun «har bir ijodkor shahar muhitini badiiy-estetik ta’sir ob’yekti, shahar kishisini esa resipiyent» sifatida qabul qilishi mumkin.

Shu bilan birga shahar muhitini etnomadaniy belgilarsiz tasavvur etish ham yuqoridagi izlanishlarda ko‘zga tashlanadi. Shaharni badiiy-estetik bezatishda o‘ziga xoslik, betakrorlik, etnomadaniy an’analarga muvofiqlikni izlash emas, balki nasl- nasabsiz, milliy belgisiz «sosialistik shaxs» va “sosialistik san’at” yaratishga intilish ustun turadi.

Shubhasiz, yuqoridagi uchta fundamental ahamiyatga ega talab shahar dizayni haqida tasavvurlar uyg‘otdi, shahar-inson aloqalarini badiiy-estetik mohiyat bilan boyitishga yetakladi. Toshkentda Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institutining ochilishi O‘zbekistonda dizayn san’atini alohida ilm-fan, ijodiy faoliyat sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Respublikamizda dizayn haqidagi qarashlar endi shakllanmoqda, “shahar dizayni” tushunchasi ham endi qo‘llanilmoqda. Bu borada olib borayotgan ilmiy izlanishlarimiz bizni quyidagi fikrlarni bildirishga undaydi (2-rasm)

2-rasm. O‘zbekiston zamonaviy shaharsozligi.

Shahar dizayni shaharsozlik, arxitektura, shahar infrastrukturasi va landshaftining tarkibiy kismi sifatida qaralishi, quriladigan har bir inshoot, shakllantiriladigan infrastruktura esa badiiy-estetik mohiyatga betakror, rang-barang, qiziqarli ko‘rinishiga ega bo‘lishi lozim. Buning, uchun shaharsozlar, arxitektorlar dizaynerlar bilan ijodiy hamkorlik o‘rnatishi darkor.

Shahar dizayni rang-barang sohalar bilan bog‘liq ijodiy faoliyat turidir. U arxitektura, yo‘l transporti, savdo-sotiq, madaniy- maishiy xizmatlar uyushtirish, kommunikasiya, mebelshunoslik, ijtimoiy boshqarish va tabiiy ravishda, san’atning barcha janrlarini, turlarini bilishni talab etadi. Shuning uchun “Shahar dizayni” kursini ishlab chiqish va mutaxassislar tayyorlash jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shahar dizayni atrof-muhitga shahar dizayn inson triadasi sifatida yondashishga undaydi [3]. Mazkur konsepsiya markazida shahar va inson manfaatlarini o‘zining ijodiy faoliyatida uyg‘unlashtiruvchi mutaxassis – dizayner turadi. Aynan ushbu mutaxassis insonda ijtimoiy muhitdan, undagi badiiy-estetik va etnomadaniy qadriyatlardan to‘la qoniqish hissini uyg‘otadi, o‘z shahrini sevib, uni yanada go‘zal qilib, yaratib yashashga undaydi.

Shahar dizaynida zamonaviy, g‘arbona va an’anaviy, sharqona san’at janrlarini, turlarini uyg‘unlashtirish imkoni kattadir. Ushbu janrlarni, turlarni sintezlashtirish mutaxassisni erkin, keng izlanishlarga undaydi va uning asarlarini ommalashtiradi, hayotiy qiladi. Demak, shahar dizayni badiiy-estetik ijodni ijtimoiy hayotga, amaliyotga yaqinlashtiradi, izlanishlarga pragmatik yo‘nalish beradi.

“Tashkent Sity” xalqaro ishbilarmonlik markazi nafaqat yurtimizdagi, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik va yangi loyiha hisoblanadi, — deydi “Tashkent Sity” xalqaro biznes markazi hududidagi ob’ektlarni qurish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha direksiya direktori Sherzod Hidoyatov. — Agar rivojlangan davlatlarda bunday majmualar, asosan, bitta yo‘nalish, biznes yoki savdo-sotiqqa ixtisoslashtirilsa, yurtimizda bu ikki yo‘nalishdan tashqari, dam olish, yashash yo‘nalishlari ham qamrab olingani uning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Loyihaga binoan, bu yerda biznes-markazlar, savdo majmualari, mehmonxonalar, ofislar, Kongress-xoll, ko‘rgazma zallari, ko‘p qavatli zamonaviy uylar, ijtimoiy soha ob’ektlari hamda boshqa inshootlar barpo etiladi.

“Tashkent Sity” xalqaro ishbilarmonlik markazining dastlabki loyihaviy qiymati 2 milliard AQSh dollarini tashkil qiladi. U yetti lotga, ya’ni hududga ajratilgan bo‘lib, ularning loyihasi, quriladigan inshootlar maketlari bilan yaqindan tanishgan kishi har birini bamisoli bunyodkorlik bobidagi mo‘’jizaga qiyoslashi turgan gap. Chunki eng zamonaviy texnologiyalar va me’morlik andozalari asosida barpo etiladigan inshootlar odatdagilaridan tamomila farq qiladi. Masalan, markazning birinchi hamda ikkinchi qismlarida quriladigan turarjoylar Yevropa standartlari,

jumladan, A, A+ sinfi tasnifiga to‘liq javob beradigan yashash sharoitlariga ega bo‘ladi. Ushbu hashamatli uylarning 1, 2-qavatlarida savdo majmualari faoliyat yuritsa, bino ostida aholi va tashrif buyuruvchilarning transportlariga mo‘ljallangan avtoturargoh tashkil etiladi.

Darvoqe, bir kunda 24 soat ishlashi ko‘zda tutilgan markazni loyihalashtirishda avtomobil to‘xtash joylariga alohida e’tibor qaratilgan. Ya’ni hududdagi ochiq maydonlarda bunday maskanlar bo‘lmaydi. Ular quriladigan har bir inshootning yerto‘lasidagi 1 hamda 2-qavatlariga joylashtiriladi. Bu haydovchi va yo‘lovchilar uchun ham birdek qulay bo‘lib, ko‘chalarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tirbandliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Arxitekturada butkul yangi loyiha yaratish qiyin. Chunki uning qaysidir jihatlari boshqa majmualarni eslatishi mumkin, — deydi direksiya qurilish va loyihalashtirish bo‘limi boshlig‘i Bahrom Rizayev. — Ammo biz bir qator xorijiy davlatlarning dunyoga mashhur kompaniyalari mutaxassislari ko‘magida yaxlit kompleks tarzidagi noyob loyihani yaratishga muvaffaq bo‘ldik. Natijada “Tashkent Sity”dagi har bir bino nainki alohida, balki ular bir-biri bilan o‘zaro uyg‘unlashib, tugal me’moriy yechim hosil qiladi. Shunday bo‘lsa-da, izlanishdan, yangiliklar kiritishdan to‘xtaganimiz yo‘q. Loyihaning ulkanligi, murakkabligini hisobga olib, ushbu jarayonga xalqaro maslahatchilar, xususan, “Katta to‘rtlik”ga kiradigan “Cushman&Wakefield” kompaniyasi maslahatchilarini loyihaning tijorat konsepsiyasi qismini mukammallashtirish uchun jalb etganmiz. Ular Toshkent shahrini har tomonlama o‘rganib chiqqan holda, loyihani yanada takomillashtirish, bino-inshootlarning o‘zaro uyg‘unligini mukammallashtirish, boyitish uchun yaqindan yordam berishayapti. Loyihalarni tayyorlashda ko‘proq baland va zilzilabardosh inshootlar qurish borasida yetakchi sanalgan AQSh, Xitoy, Yaponiya normalariga tayanildi. Bu esa mahalliy hamda xorijiy mutaxassislarga birdek ma’qul kelib, barcha hudud o‘z investorini topdi.

Zamonaviy hordiq maskani

Hisob-kitoblarga ko‘ra, “Tashkent Sity”ning umumiy maydoni 1 million 300 ming kvadrat metrni tashkil qiladi. Shundan 443 ming kvadrat metri yashash majmualariga ajratilsa, qolgan qismida biznes ofislar, savdo-ko‘ngilochar majmualar faoliyat ko‘rsatadi. Bundan tashqari, shahar aholisi va mehmonlari bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, maroqli hordiq chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar muhayyo qilinadi: sun’iy ko‘l, so‘lim xiyobon, megapolislarga xos sayilgoh tashkil etiladi.

Kezi kelganda, aytish joizki, Toshkent shahrida ilgari Sayilgoh ko‘chasida faoliyat ko‘rsatgan ko‘ngilochar maskanlar o‘rnini bosadigan birorta ko‘cha yo‘q. Biznes markazning Sayilgoh qismi ayni shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgani bilan g‘oyat ahamiyatlidir. Mazkur hududda 11 bino qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ularning birinchi qavatlaridan restoran, kafe, magazinlar o‘rin egallaydi. Kechayu kunduz faoliyat yuritadigan ko‘chada odamlar nafaqat aylanib yuradi, balki o‘tirib hordiq chiqaradi. Buning uchun musiqali va rangli favvoralardan tashqari,

3-rasim. Toshkent Sity.

mazkur sohadagi yangi yo‘nalish bo‘lmish quruq favvoralar ham bunyod etiladi, landshaft dizayni asosida yashil hududlar yaratiladi (3-rasm).

Sayilgoh loyihasi ustida juda ko‘p ishladik, — deydi Bahrom Rizayev. — Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy kabi davlatlar tajribasini o‘rganib, ulardan yangi g‘oyalar oldik. Odamlarni o‘ziga ohanrabodek tortadigan me’moriy yechim topishga harakat qilayapmiz. Landshaft dizaynini yaratishda esa Moskva shahrini obodonlashtirishda “Moya ulitsa” dasturini tayyorlagan yirik kompaniya mutaxassislarini jalb qildik. Qisqasi, ishbilarmonlik markazidagi ulkan va mahobatli binolar bilan birga, hudud infratuzilmasi, muhandislik tarmoqlari, yoritish tizimi — barcha-barcha ob’ektlar loyihasi o‘ta puxta ishlab chiqildi.

Hademay, chizmalarda aks etgan ana shunday mashaqqatli mehnat mahsullari amaliyotga ko‘chib, poytaxtimizda zamonaviy hamda muhtasham shaharcha paydo bo‘ladi. Shak-shubhasiz, o‘zbek me’morligining shaharsozlik jabhasida yangi bosqichni boshlab bergan mazkur markaz yurtimiz iqtisodiy qudrati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining yorqin timsollaridan biriga aylanadi [6].

Xulosa: Maqolada zamonaviy shahar muhitini milliy urf-odatlarga tayangan holda o‘rganish hamda zamonaviy arxitekturaning talablarini ifodalash, milliylikni saq lash aks ettirilgan. Muallif tomonidan kelajak arxitekturasi va shaharni bezagi imkoniyatlari istiqboli bashorat qilingan.

Adabiyotlar

[1]. Nabiev.M.N, Mirzaolimov.A .A. (2021) “Greening and Landscaping Of The City Streets”. “The American Journal of Applied Sciences”. 3(05), 240-244.

[2]. Axmedov. J, Mirzaolimov. A. (2021) “Use of Modern Requirements in Beaytification and Landscaping of City Streets”. “International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding”. ISSN 2364-5369, Volume 8, No.7, July 2021.Glazichev V.L. Dizayn kak on yest. — M.: Yevropa.-2006.- S.17-19.

[3]. Shimko V.T. Arxitekturnoye formirovaniye gorodskoy sredы.-M.:Vыsshaya shkola, 1990.- S.10-12.

[4]. Mixaylov S.M., Mixaylova A.S. Osnovi dizayna. — M.: Soyuz dizaynerov Rossii, 2004. — S.42-48.

[5]. https://shosh.uz/uz/shahar-dizayni-nazariya-va-amaliyot-2/

[6]. https://xs.uz/uz/post/toshkentda-barpo-etilayotgan-kelazhak-shahri-shaharsozlik-haqidagi-tasavvurlarni-butunlaj-ozgartirib-yuboradigan-noyob-lojihadir

0.4 kV LI ELEKTR TARMOQLARIDA KUCHLANISHNI ROSTLASH USULLARINI TAHLIL QILISH

I.X. Xoliddinov, I.A. Boxodirov

Farg‘ona politexnika instituti
(boxodirovislomjon21@gmail.com)
(Qabul qilindi 10.05.2023 y.)

Ushbu maqolada elektr ta’minoti ishonchliligini ta’minlashda, kuchlanishni rostlash usullarining ilmiy asoslari ko‘rib chiqiladi. Bundan maqsad: murakkab texnologik jarayonlarga ega bo‘lgan zamonaviy korxonalar va mavjud energiya tizim tarmoqlarida uzluksiz, sifatli elektr energiyasini yetkazib berish ko‘zda tutiladi. Taklif etilayotgan usullar orqali elektr energiyasini ishlab chiqishdan to iste‘moligacha bo‘lgan oraliqdagi kuchlanish isrofini va tushuvini boshqarish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *Elektr energiyasi sifat ko‘rsatkichlari, kuchlanish isroflari, kuchlanishni rostlash usullari, sanoat korxonalarini elektr energiyasi bilan ta‘minlash, ishonchlilik ko‘rsatkichlari.*

В данной статье рассматриваются научные основы методов регулирования напряжения для обеспечения надежности электроснабжения. Целью этого является обеспечение непрерывного качественного электроснабжения современных предприятий со сложными технологическими процессами и действующими сетями энергосистемы. С помощью предложенных методов можно контролировать потери и падения напряжения между выработкой и потреблением электроэнергии.

Ключевые слова: *Показатели качества электроэнергии, потери напряжения, методы регулирования напряжения, электроснабжение промышленных предприятий, показатели надежности.*

This article examines the scientific basis of voltage adjustment methods to ensure reliability of power supply. The purpose of this is to provide continuous, high-quality electricity supply to modern enterprises with complex technological processes and existing energy system networks. Through the proposed methods, it is possible to control the voltage loss and drop between the generation and consumption of electricity.

Keywords: *Quality indicators of electric power, voltage losses, methods of voltage adjustment, supply of industrial enterprises with electric energy, reliability indicators.*

Elektr ta’minoti ishonchliligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bu - uzluksiz yetkazib berishdir. Mamlakatimizda 2022-yili elektr energiyasi 62,4 mlrd kVt·soat ishlab chiqarildi va iste’mol qilindi. Ammo qish faslida ko‘plab elektr energiya uzulishlari tufayli asosiy ishonchlilik ko‘rsatgichi buzildi. Buning oqibatida iste’molchilarga elektr energiyasi uzluksiz yetkazib berilmadi[1].

Elektr ta’minoti sifatining yana bir muhim ko‘rsatkichi - kuchlanishning barqarorligi. Elektr energetika tizimining istalgan nuqrasida uni kerakli darajada ushlab turish muammosi hozirgi vaqtda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy yirik sanoat korxonalari (neft va neft mahsulotlarini ishlab chiqarish, kimyo sanoati, tog‘-kon sanoati, metallurgiya va boshqalar) birinchi toifali iste’molchilari bo‘lib, texnologik jarayonlarda uzluksiz elektr energiyasi bilan ta‘minlash ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda [2]. Bunday korxonalar uchun bir necha soniya hatto soniyaning o‘ndan bir qismidagi quvvat uzilishi ham inson hayotiga xavf solibgina qolmay, texnologik jarayonning uzilishiga va ishlab chiqarishning to‘xtashiga olib keladi. 0,4 kVli elektr tarmoqlarining aksaryat qismi 2 va 3 toifa iste’molchilariga kiradi. Ushubu toifa iste’molchilariga ham elektr energiyasini uzluksiz, sifatli va ishonchli yetkazib berishimiz lozim. Qish mavsumida kuchlanishni tushuvlari aynan 2 va 3 toifa iste’molchilari kuzatiladi. Buni bartaraf qilish va oldini olish har bir elektr ta’minoti korxonasining vazifasidir[3].

Kuchlanishining barqarorligini faqatgina cheklangan ma’noda tushunish mumkin. Mavjud texnik yechimlarning hech biri kafolatlangan quvvat oqimlarini normal kuchlanish darajasida ushlab turolmaydi. Ideal holatda quvvat oqimining ishonchliligi tashqi buzilishlardan to‘liq himoyalangan bo‘lishi kerak. Lekin amalyotda bu holatni ta’minlashda ko‘plab muammolar yuzaga keladi. Ma’lumki, [4] har qanday tugundagi kuchlanish qiymatlari doimiy ravishda o‘zgatirib turadi.

GOST 13109-97 bo‘yicha kuchlanish qiymatlarni 1 kV gacha bo‘lgan tarmoqlarda o‘zgarishi ruxsat etilgan chegaraviy qiymatlari keltirilgan. Bu qiymatlarni aniqlash uchun quydagi formuladan foydalaniladi:

$$\delta U\% = \frac{U - U_{nom}}{U_{nom}} \cdot 100\% = \pm 5\% \quad (1)$$

bu yerda;

$\delta U\%$ - kuchlanish og‘ishining ruxsat etilgan qiymati (%);

U_{nom} – o‘rnatilgan nominal kuchlanish (kV);

U - tarmoqdagi kuchlanish (kV);

GOST 13109-97 bo‘yicha qo‘shimcha ravishda, uskunaning eng yuqori kuchlanishiga ruxsat etilgan qiymatlari mavjud[5]. Ushbu qiymatlar elektr qurilmalari izolyatsiyasini ishonchliligi bilan belgilanadi. Chunki kuchlanishning yuqori qiymatidan oshib ketishi izolyatsiyaning tez yemirilishi va tarmoqda qisqa tutashuvlar yuz berishiga olib keladi. Agar tarmoqda 6-10 kV kuchlanishli elektr dvigatellar mavjud bo‘lsa, tarmoqning maksimal kuchlanishi nominaldan ±10% dan yuqori bo‘lmasligi lozim[6].

Kuchlanishni rostlashda bir necha usullari mavjud. 0,4 kVli elektr tarmoqlarida asosan kuchlanish PBV qurilmasi orqali rostlanadi. PBV – “Переключение без возбуждения” qo‘zg‘atishsiz rostovchi transformator – (QRT) deb ham yuritiladi. 1-rasmda PBVni prinspial sxemasi keltirilgan.



1-rasm; PBV (qo‘zg‘atishsiz rostovchi transformator) ning prinspial sxemasi.

Kuchlanishni laboratoriya sharoitida rostlash uchun PBV qurilmasidan foydalandik. Birinchi holat uchun PBV qurilmasi netral rejimda ya’ni 0 xolatida tekshirildi. Bunda aktiv qarshilik R=1000 Om, induktiv qarshilik L=1 Hn olindi. Tarmoqqa kiruvchi nominal kuchlanishi $U_{kir}=U_{B1}=228$ V, kiruvchi toki $I_{kir}=I_{B1}=0{,}075$ A ni tashkil qildi.

Tarmoqdan olingan barcha qiymatlar jadvali. 1-jadval.

t / s	U_{B1} / V	I_{B1} / A	φ_{B1} / °	P_{B1} / kW	U_{D1} / V	I_{D1} / A	φ_{D1} / °	P_{D1} / kW
0,0	228,2	0,075	13,5	0,015	207,3	0,351	78,0	0,014
0,1	228,3	0,074	12,4	0,015	207,3	0,352	78,0	0,014
0,2	228,3	0,074	12,2	0,015	207,4	0,352	78,0	0,014
0,3	228,4	0,074	11,9	0,015	207,4	0,352	78,0	0,014
0,4	228,4	0,074	11,9	0,015	207,5	0,352	78,0	0,014
0,5	228,5	0,074	11,9	0,015	207,5	0,353	78,0	0,014
0,6	228,5	0,074	11,9	0,015	207,5	0,353	78,1	0,014
0,7	228,6	0,074	11,9	0,015	207,6	0,353	78,1	0,014
0,8	228,6	0,074	11,9	0,015	207,6	0,353	78,0	0,014
0,9	228,6	0,074	12,1	0,015	207,6	0,353	78,1	0,014
1,0	228,5	0,074	12,3	0,015	207,6	0,353	78,1	0,014
1,1	228,5	0,074	12,2	0,015	207,5	0,353	78,1	0,014
1,2	228,5	0,074	12,4	0,015	207,5	0,353	78,1	0,014
1,3	228,5	0,074	12,2	0,015	207,5	0,353	78,1	0,014
1,4	228,5	0,074	12,4	0,015	207,5	0,353	78,1	0,014
1,5	228,5	0,073	12,4	0,015	207,5	0,353	78,1	0,014
1,6	228,6	0,073	12,3	0,015	207,6	0,353	78,1	0,014
1,7	228,6	0,073	12,3	0,015	207,6	0,353	78,1	0,014
1,8	228,6	0,074	12,4	0,015	207,7	0,353	78,1	0,014
1,9	228,7	0,074	12,3	0,015	207,7	0,353	78,1	0,014
2,0	228,7	0,074	12,3	0,015	207,7	0,353	78,1	0,014

1-jadvalda keltirilgan qiymatlardan ko‘rinib turibdiki, kiruvchi kuchlanish 228 V bo‘lganida chiquvchi kuchlanish 207 V ga tushyapti. Bunga sabab iste’molchining yuklamasi nominaldan ortiq yuklanganligi. Ushbu holatni 2-rasm grafigida ham ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm; Tarmoqdagi barcha qiymatlar, U_{kir} va U_{chiq} kuchlanishlar tushuvi grafigi.

Ushbu grafida ko‘rinib turibdiki tarmoq iste’molchilariga GOST 13109-97 bo‘yicha belgilangan qiymatdagi ±5% dan ortib ketmoqda. Bu holatdagi ±10% kuchlanish tushuvini 6-10 kVli elektr tarmoqlari uchun foydalansak bo‘ladi. Lekin biz 0,4 kV li tarmoqqa nisbatan bu qiymatni qabul qila olmaymiz [7]. Demak PBV qurilmasini 0 holatdagi rejimi bizning standartimizga mos kelmadi. Eni esa ushbu 0 holatidan +5 holatiga ko‘tarib tekshirib ko‘ramiz. Bunda kiruvchi kuchlanish U_{kir} =235 V ni, chiquvchi kuchlanish U_{chiq}= 218 V ni tashkil qildi. Qolgan qiymatlar 2-jadvalda keltirilgan.

Tarmoqdan olingan barcha qiymatlar jadvali. 2-jadval.

t / s	U_{B1} / V	I_{B1} / A	φ_{B1} / °	P_{B1} / kW	U_{D1} / V	I_{D1} / A	φ_{D1} / °	P_{D1} / kW
0,0	241,0	0,083	14,0	0,016	218,0	0,373	77,9	0,016
0,1	241,1	0,083	14,1	0,016	218,1	0,373	78,0	0,016
0,2	241,1	0,083	14,1	0,016	218,1	0,373	78,0	0,016
0,3	241,1	0,083	14,4	0,016	218,1	0,373	78,1	0,016
0,4	241,1	0,083	14,4	0,016	218,1	0,373	78,1	0,016
0,5	241,1	0,083	14,4	0,016	218,1	0,373	78,1	0,016
0,6	241,1	0,083	14,5	0,016	218,1	0,373	78,1	0,016
0,7	241,2	0,083	14,5	0,016	218,1	0,373	78,1	0,016
0,8	241,2	0,083	14,8	0,016	218,2	0,373	78,2	0,016
0,9	241,2	0,083	14,6	0,016	218,2	0,373	78,2	0,016
1,0	241,2	0,083	14,6	0,016	218,2	0,373	78,2	0,016
1,1	241,1	0,082	14,6	0,016	218,2	0,373	78,2	0,016
1,2	241,1	0,082	14,7	0,016	218,2	0,373	78,2	0,016
1,3	241,1	0,082	14,6	0,016	218,1	0,373	78,2	0,016
1,4	241,0	0,081	14,6	0,016	218,1	0,373	78,2	0,016
1,5	241,0	0,081	14,7	0,016	218,0	0,373	78,2	0,016
1,6	241,0	0,082	14,7	0,016	218,0	0,373	78,2	0,016
1,7	240,9	0,081	14,7	0,016	218,0	0,373	78,2	0,016
1,8	240,8	0,081	14,7	0,016	217,9	0,373	78,3	0,016
1,9	240,9	0,080	14,8	0,016	217,9	0,373	78,3	0,016
2,0	241,0	0,080	14,9	0,016	218,0	0,373	78,2	0,016

2-jadvalda berilgan ko‘rsatgichlar chiquvchi kuchlanishning nominalga yaqin qiymatini ko‘rsatmoqda. Biz iste‘molchilarni yuklamasini o‘zgartirmagan holatda PBV qurilmasini +5 darajasiga qo‘yganimizda kuchlanish tushuvi standart qiymatga yaqin keldi. Qiymatlarimiz qanchalik yaqinligini 3-rasmda ham ko‘rishimiz mumkin.



3-rasm; Tarmoqdagi barcha qiymatlar, U_{kir} va U_{chiq} kuchlanishlar tushuvi grafigi.

Olingan qiymatlar kirish kuchlanishi va chiquvchi kuchlanish tushuvi 1% ni tashkil etmoqda. 0,4 kVli elektr tarmoqlarida uchun ushbu ko‘rsatgichlar kuchlanish og‘ishi δU% qoniqtiradi [8].

Xulosa: Kuchlanish og‘ishi yuklamaning ortishi bilan bog‘liq holat ekanligini yuqoridagi jadvallar orqali taxlil qildik. Elektr tarmoqlari qish mavsumida kuchlanish og‘ishi ko‘plab kuzatiladi. Tarmoqning kiruvchi kuchlanishi U_{kir}=228 V ni, iste‘molchi qabul qilgan chiquvchi kuchlanishi U_{chiq}=207 V ni tashkil qildi. Bu olingan natijamizning og‘ish ko‘rsatgichi 10% ni tashkil etsa, GOST 13109-97 bo‘yicha 0,4 kVli elektr tarmoqlari uchun nostandart qiymat xisoblanadi va bu elektr energiyasining sifat ko‘rsatgichiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi qiymatlar biz kutgan natijani bermagandan so‘ng PBV qurilmasini +5 pog‘onasiga sozladik. Bunda tarmoqqa kiruvchi kuchlanish U_{kir}=241 V ni, iste‘molchi qabul qilgan chiquvchi kuchlanishi U_{chiq}=218 V ni tashkil qildi. Ushbu qiymat ya‘ni kuchlanishni og‘ish ko‘rsatgichi 1% ni ko‘rsatdi. GOST 13109-97 bo‘yicha bu qiymat nominalga yaqin kelgan ijobiy ko‘rsatgich hisoblanadi.

Adabiyotlar

[1]. Евдокунин Г.А. Электрические системы и сети: Учебное пособие. – СПб: Издательство Сизова М.П., 2004. – 304с.

[2]. Ю. С. Железко. Потери электроэнергии. Реактивная мощность. Качество электроэнергии : рук. для практ. расчетов /. - М.: ЭНАС, 2009. - 456 с.

[3]. ГОСТ 13109-97. Межгосударственныйстандарт: электри-ческая энергия, совместимость технических средств электромагнитная, нормы качества электрической энергии в системах электроснабжения общего назначения.

[4]. Патент UZ FAP № 01892. Устройство для регистрации дополнительных потерь электроэнергии при несимметрии нагрузок в низковольтных электрических сетях. /Аллаев К.Р., Шаисматов С.Э., Холиддинов И.Х., Холиддинова М.М. // Расмий ахборотнома. –2022, – № 1. – С. 36.

[5]. Патент UZ FAP №01166. Устройство для регистрации дополнительных потерь электроэнергии при несимметрии нагрузок в низковольтных электрических сетях./Аллаев К.Р., Шаисматов С.Э., Холиддинов И.Х.// Расмий ахборотнома. –2016, – № 12. – С. 36. 22.05.2015.

[6]. Холиддинов И.Х., Пономаренко О.И. Обеспечение приборной базы системы контроля качества электроэнергии в современных системах электроснабжения. // Universum: Технические науки : электрон. научн. журн. 2016. №8(29). URL:*http://7universum.com/ru/tech/archive/item/3527*

[7]. Руководство по эксплуатации измерителя показателей качества электроэнергии «Malika-01». – Ташкент, – 2016. – 30 с.

[8]. Kholiddinov I., Tuychiev Z., Eraliev Kh. and Kholiddinova M. Influence Of Asymmetrical Modes On The Value Of Additional Power Losses In Low-Voltage Electrical Networks. Vol:54 Issue:10:2021 DOI 10.17605/OSF.IO/S.

ENERGIYA TEJAMKOR ISITISH-SOVUTISH QURILMASINI TAJRIBA NAMUNASINI ISHLAB CHIQISH VA EKSPEREMENT TADQIQOTLAR O‘TKAZISH

D.A. Tursunov[1], D.T. Yusupov[2]

[1]Farg‘ona politexnika instiuti, E-mail: doniyortakaha@gmail.com
[2]O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti
(Qabul qilindi 8.05.2023 y.)

Ushbu maqolada ijtimoiy ahamiyatga ega binolar isitish-sovutishda qo‘llaniladigan yangi qurilmanig tajriba na’munasi ishlab chiqilishi keltirilgan. Qurilma ustida olib borilgan eksperiment tadqiqotlar natijalari jadval va grafik ko‘rinishida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *energiya samaradorlik, isitish-sovutish, resurs, qurilma, ijtimoiy, binolar, energiya, tejamkor, avtonom, eksperiment, dasturiy ta’minot.*

В данной стате представлена разработка экспериментального образса нового устройства, исползуемого при отоплении и охлаждении сотсиално значимых зданий. Результаты экспериментальных исследований, проведенных на приборе, представлены в виде таблис и графиков.

Ключевые слова: *энергоэффективность, отопление и охлаждение, ресурс, устройство, социальное, здания, энергия, экономичное, автономное, эксперимент, программное обеспечение.*

This article presents the development of an experimental sample of a new device used for heating and cooling socially significant buildings. The results of experimental studies carried out on the device are presented in the form of tables and graphs.

Key words: *energy efficiency, heating and cooling, resource, device, social, buildings, energy, economical, autonomous, experiment, software.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022 yil 18 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF 60 sonli farmonida ko‘zda tutilganidek «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko‘rish uchun 2022 yil 1 martga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy, tijorat va ma’muriy-maishiy bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirish dasturlari amalga oshirilishi belgilanib olingan [1].

Yuqoridagilardan kelib chiqib ijtimoiy ahamiyatga ega binolarni isitish va sovutishda xozirda ko‘plab sanoat na’munalarini ko‘rishimiz mumkin. Biroq ularni aksariyat qismida yo‘qolib borayotgan energiya resurslarni tejash masalasi umuman ko‘rilmagan. Yoki binolarni tashqi ko‘rinishi buzilishiga, murakkab sxema va tan narxining qimmatligi hal qilinmagan. Bundan tashqari binolarni sovutishda faqatgini ananaviy elektr energiyaga qaramligi ko‘rish mumkin.

Ushbu maqolada ijtimoiy ahamiyatga ega energiya tejamkor hamda quyosh energiyasidan va qayta tiklanuvchi energiya mabasida ishlay oladigan, xonani iqlimini mo‘tadillashtirib beruvchi isitish-sovutish tizimga ega qurilmaning yaratilgan tajriba na’munasi xaqida malumotlar berilgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, binolarni isitish-sovutish tizimida bir qancha usullari mavjud. Bizning qurilmada birinchi navbatda o‘rnatiladigan hududning iste’mol yuklamasidan kelib chiqib quyosh paneli tanlanadi va o‘rnatiladi.

Ishdan maqsad. Isitish va sovutish rejimida an'anaviy elektr eenrgiyasidan foydalanmasdan energiya resurslarni tejash masalasi va energiya samaradolikga erishishdan iborat.

Tadqiqot materiallari

Yangi tuzilishdagi qurilma binolarni isitish va sovutishda energiya tejash masalasini yaxshilabgina qolmay, sovutishda "Frion" gazining ishlatilmasligi bilan ham ajralib turadi. Bu esa inson va ekologiyaga bo'lgan zarali ta'sirlarni oldini oladi. Shuningdek "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF 60 sonli farmoni ijrosiga mos keladi. Qurilmani prinsipial sxemasini ko'rishimiz mumkin [2].

Prinsipial sxemadan kelib chiqib qurilmaning quyidagi elementlari tayyorlandi.

1. Korpus qismini shakllantirishda "Sompas" dasturi yordamida chizmasi tayyorlanib "Lazer" qurilmasi yordamida kerakli o'lchamlarga moslab kesildi, hamda "Listogip" qurilmasida shakl berildi.

1-rasm. "Compas" dasturi yordamida korpusning chizmasining tayyorlanishi.



2-rasm. Korpus qismining loyixasi.

2. Ventelyator jixozi qurilma ichida hosil bo‘lgan issiq va sovuq havo oqimini yo‘naltirish uchun xizmat qiladi. Jixoz chizmasi “3D Maks” dasturiy ta’minoti yordamida tayyorlanib 3D printer orqali tayyorlandi [3].

Eksperement tadqiqotlar o‘tkazish

Tajriba ishlari oldindan tayerlangan chizmalar asosida qurilma yig‘ishdan boshlandi.



4-расм. 3D принтер ёрдамида тайёрланиши.

3-rasm. Ventelyator qismining ko‘rini.

“Compas” darturida chizilgan qurilmaning korpusi lazer uskunasi yordamida kesilib yig‘ildi. Yig‘ilgan korpus tahlil qilinib aniqlangan kamchiliklar to‘g‘rilandi va qayta chiqarilib yig‘ildi. Qurilma yig‘ilganda unga ichki elementlar joylashtirildi shu jarayonda qurilma ichki elemenlarini mustaxkam o‘rnatish uchun chizmada belgilanmagan teshiklar deyametri aniqlanib kiritib qo‘yildi. Ustki qismi ekran joylashtirish joyi qulay xolatga keltirilib to‘g‘rilandi. Korpusning yon tomonlari simmetrik joylashishi uchun qo‘shimcha ishlov berildi va dasturiy ta’minot programmasida ushbu xolatni etiborga olib o‘zgartirishlar kiritildi. Mustaxkamligini oshirish uchun qo‘shimcha biriktirish joylari ochildi.



6-rasm. Korpusning qayta ishlangan chizmasi.

7-rasm. Korpusni tayyorlash jarayoni.

8-rasm. Pardanig ichki qismiga o‘rnatilgan element tajribasi.

9-rasm. Parda ichki elementi tajribasi(ikkinchi namuna).

Korpusni sinovdan o‘tkazish jarayoni shuni ko‘rsatdiki uni kesish aniqligi sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Plazmali lazer uskunasida va lazer uskunasida tayyorlangan korpuslar ikki xil sifatga ega bo‘ldi. Lazer uskunisi kesish aniqligi yuqori bo‘lganligi uchun kesilgan o‘lchamlar mos kelishi yuqori bo‘ldi.

Ichki elementlar aloxida sinovdan o‘tkazildi. Ya’ni sovitish tizimi va isitish tizimi ichki elemenlari Teplovizor yordamida aloxida-aloxida sinovdan o‘tkazildi [4].

Olingan natijalar va ularning muxokamasi.

Yaratilgan qurilma yordamida xonalarning isitish-sovutish tizimida sarf bo‘ladigan energiya qiymatini quyidagi ko‘rinishida keltiramiz.

1-jadval.

Tashqi issiqlik darajasi past xolatda.

№	Xonaning maydoni	Xona balandligi	Quyosh tushishi	Kompyuter va televizorlarr soni	Xonadagi mavjud insonlar soni	Sovutishga ketadigan energiya sarfi
1	24	2.75	Past	2	5	1 kVt
2	28	2.75	Past	2	5	1.4 kVt
3	36	2.75	Past	2	5	2.1 kVt
4	40	2.75	Past	2	5	2.4 kVt



1-jadval.

Tashqi issiqlik darajasi o‘rtacha xolatda.

№	Xonaning maydoni	Xona balandligi	Quyosh tushishi	Kompyuter va televizorlarr soni	Xonadagi mavjud insonlar soni	Sovutishga ketadigan energiya sarfi
1	24	2.75	o‘rtacha	2	5	1.5 kVt
2	28	2.75	o‘rtacha	2	5	1.8 kVt
3	36	2.75	o‘rtacha	2	5	2.6 kVt
4	40	2.75	o‘rtacha	2	5	3 kVt



2-jadval.

Tashqi issiqlik yuqori o‘rtacha xolatda.

№	Xonaning maydoni	Xona balandligi	Quyosh tushishi	Kompyuter va televizorlarr soni	Xonadagi mavjud insonlar soni	Sovutishga ketadigan energiya sarfi
1	24	2.75	yuqori	2	5	1.8 kVt
2	28	2.75	yuqori	2	5	2.2 kVt
3	36	2.75	yuqori	2	5	3.1 kVt

4	40	2.75	yuqori	2	5	3.5 kVt



Xulosa

1. Korpus qismini shakllantirishda “Sompas” dasturi yordamida chizmasi tayyorlangan, “Lazer” qurilmasi hamda “Listogip” qurilmasi yordamida korpus qismi tayyorlangan..

2. Issiq va sovuq havo oqimini yo‘naltirish uchun xizmat qiladigan elementi chizmasi “3D Maks” dasturi yordamida tayyorlanib 3D printer orqali tayyorlangan.

3. Qurilmani isitish-sovutish elementlarining ko‘rsatkichi Teplovizor yordamida aniqlangan.

4. Ushbu maqolda yaratilgan qurilma yordamida xonalarning isitish-sovutish tizimida sarf bo‘ladigan energiya miqdori xonaning maydoni 24 m^2 bo‘lganda 1 kVt, 28 m^2 bo‘lganda 1.4 kVt, 36 m^2 bo‘lganda 2.1 kVt, 40 m^2 bo‘lganda 2.4 kVt istemol qilishi aniqlangan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bu qurilma energiya va iqtisodiy samaradorligi mavjud qurilmalardan 50 % past istemol qilishi bilan farqlanib turishi aniqlangan.

Adabiyotlar

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
[2]. O‘zbekiston respublikasi adliya vazirligining foydali model uchun berilgan FAP 20220381 sonli bildirish xati.
[3]. Ender 3 Pro/ Shenzhen Creality 3D Technology Co. LTD/ 2021
[4]. Тепловизор Testo 890-1/ Оргон по сертификации “ПРОТЕСТ - Москва” ОА/ 2021
[5]. Ангелюк И.П./ Совершенствование низкотемпратурных систем отопления жилых зданий на основе рекуперативных теплообменных аппаратов/ 2021
[6]. Солныкова Ю.С/ Совершенствование систем радиационного отопления зданий с целю сбережения энергетических ресурс/ 2012
[7]. Пятачков В.В/ Совершенствование систем радиационно-конвективного отопления производственных объектов/ 2012
[8]. Баронбаев И.К/ Основы теории и особенности практики повышения энергоэффективности теплового режима гражданских зданий. /2011
[9]. Бегдай С.Н/ Повышение тепловой эффективности одноэтажных зданий с гелиоколлектором / 2008.

TRANSFORMATOR NEYTRALI YER BILAN BEVOSITA VA AKTIV QARSHILIK ORQALI ULANISHDA BIR FAZALI QISQA TUTASHUV TAHLILI

A.X. Eraliyev, H.Sh. Ne’matjonov

Farg‘ona politexnika instituti, hikmatillanematjonov2123@gmail.com
(Qabul qilindi 3.05.2023 y.)

Maqolada transformator neytralining yerga tur xil usulda ulanishi ko‘rib o‘tilgan. Ushbu

o‘tkazilgan tajribalar transformatorning neytrali turli usulda ulangan holatlarda qisqa tutashgan fazalarda qisqa tutashuv tokining o‘zgarishi, faza kuchlanishlarining o‘zgarishi aktiv va induktiv qarshilik qiymatlari o‘zgarishiga bog‘liqligi ko‘rib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Transformator, neytrali yerga bevosita ulangan, neytral, aktiv qarshilik, , qisqa tutashuv toki, bir fazali qisqa tutashuv*

В статье нейтраль трансформатора подключается к земле двумя разными способами. В этих проведенных экспериментах считалось, что изменение тока короткого замыкания в короткозамкнутых фазах, изменение фазных напряжений зависит от изменения значений активного и индуктивного сопротивления в случаях, когда нейтраль Трансформатор подключается по-разному.

Ключевые слова*: Трансформатор, нейтрал, эффективно заземленный, нейтраль, индуктивное сопротивление, активное сопротивление, ток короткого замыкания, отклонение напряжения, однофазное короткое замыкание*

In the article, the transformer neutral is connected to the ground in two different ways. In these conducted experiments, it was considered that the change of the short-circuit current in the short-circuited phases, the change of the phase voltages depends on the change of the active and inductive resistance values in cases where the neutral of the transformer is connected in different ways.

Keywords: *Transformer, neytral effectively earthed, neutral, inductive resistance, active resistance, short circuit current, voltage deviation, single phase short circuit*

Energetika tizimida transformatorlarning neytrali yerga ulashning usullari muhim ahamiyatga ega. Ushbu uslullartizimdagi turli nonarmal rejimlarni oldini olish va avariya holatlarini bartaraf etish imkonini beradi.

Energiy Sistema neytrallari deb generator yoki transformatorlarning yulduz shaklida ulangan cho‘lg‘amlarining umumiy nuqtasiga aytiladi.

Mashina va transformatorlar neytrallarining yer bilan tutashish turi ko‘p jihatdan elektrotizilmalarning izolyatsiyalanish sifati va kommutatsiya jihozlarini tanlashga, o‘ta kuchlanishlar kattaligi va ularni cheklash usullariga, yer bilan bir faza orqali qisqa tutashuvdagi toklarning kattaligi, releli himoyaning ish sharoitiga va elektr tarmoqlaridagi xavfsizlikka, aloqa liniyalariga ko‘rsatiladigan elektromagnit ta’sirga va hokazolarga ko‘p jihatdan bog‘liq.[1]

Neytrallarning ish rejimiga qarab elektr tarmoqlari to‘rt guruhga bo‘linadi:

1) neytrallari yerga ulanmagan tarmoqlar;
2) neytrallari yerga rezonansli ulangan tarmoqlar;
3) neytrallari yerga samarali ulangan tarmoqlar;
4) neytrallari yerga qo‘zg‘almaydigan ulangan tarmoqlar.

Yerga tutashuv toki umumiy energiya tizimlarida xavfli yuqori miqdorlarni qabul qilishi mumkin bo‘lgan deyarli sof sig‘immiy tokka ega bo‘ladi. Agar qisqa tutashgan faza yerga muayyan miqdorli induktivlik orqali ulansa, yerga tutashuv toki neytrallanadi yoki so‘nadi, ya’ni deyarli yo‘qoladi [4]. Induktivlik g‘altagi yerga tutashuvni neytrallagich yoki Petersen so‘ndirish g‘altagi deb ataladi (uning ixtirochisi sharafiga)[1].



1-rasm: Neytralli tarmoqlarning yer bilan qisqa utashuv holati.

Yerga ulanish sig‘imlari quvvat o‘zgargan holatda o‘zgarishi tufayli tizimlar (liniyalar ulanishi va uzib qo‘yilishi), Petersen induktivlik g‘altagi ham o‘zgaruvchan bo‘lishi kerak. Shu tufayli energiya tizimining tanlangan joylarida transformatorlar neytral nuqtasi birikmalari yerga ulanish liniyasiga ulanadigan plunjerli

g‘altaglar yoki shoxobchali g‘altaglardan foydalaniladi.

Neytrallash uchun kerakli induktivlikning matematik aniqlanishini faqat simmetrik tarkibiy qismlar usulidan foydalanilgan holda qayta amalga oshirish mumkin.

Yerga tutashuvni neytrallagichning reaktiv qarshiligi uchun quyidagi shart qo‘llaniladi:

$$X_E = \frac{1}{3\omega C_E} \quad (1)$$

Qisqa tutashuv toki liniya qarshiliklari doimiy mavjudligi tufayli aktiv tarkibiy qismga ham egaligi sababli to‘liq kompensatsiya qilish mumkin emas. Aktiv tarkibiy qism qisqa tutashuv tokining taxminan 10% ni tashkil etadi va yerga ulanishning muvozanatlanmagan qoldiq toki sifatida tavsiflanadi.

Neytrallari yerga rezonansli ulangan uch fazali tarmoqlar

Yuqorida ko‘rsatilgan normalarni qanoatlantirish maqsadida yerga tutashish tokini kamaytirish uchun bizning qit’adagi 3—35 kV li tarmoqlarda neytrallarni yoy so‘ndirgich g‘altak orqali yerga tutashgiriladi (2 - rasm).



2 – rasm. Neytrallari yerga rezonansli ulangan uch fazali tarmoqlar.

Normal ish rejimida g‘altakdan amalda tok o‘tmaydi. Fazalardan bilan to‘la tutashganida yoy so‘ndirgich g‘altak faza kuchlanishida bo‘ladi va yerga tutashgan joydan sig‘im toki Js bilan bir qatorda g‘altakning induktivlik toki JL ham o‘tadi. Induktivlik va sig‘im toklari bir-biriga nisbatan faza bo‘yicha 180° burchakka farq qilganligi uchun yerga tutashish joyida ular bir-birini kompensatsiyalaydi. Agar IS = IL (rezonans) bo‘lsa, yerga tutashgan joy orqali tok o‘tmaydi. Shu tufayli shikastsh joyda yoy hosil bo‘lmaydi va u bilan bog‘liq bo‘lgan xavfli oqibatlar bartaraf qilinadi

Neytrali yerga qo‘zgalmaydigan hamda samarali ulangan uch fazali tarmoqlar



3-rasm; Tarmoqdagi barcha qiymatlar, U_{kir} va U_{chiq} kuchlanishlar tushuvi grafigi.

Neytralni yerga qo‘zg‘almaydigan qilib ulashdan Bizning mamlakatimizda 220 va 380 V li tarmoqlarda foydalaniladi. Bu vaqtda hamma manbalarning neytrallari yerga ulanadi. 110 kV li va undan yuqori kuchlanishli tizilmalarda izolyatsiyalash qiymati neytralni yerga ulash usulini tanlashda hal qiluvchi faktor hisoblanadi. Bu yerda neytralni yerga samarali ulash qo‘llaniladi, bunda bir fazali q. t. da shikastlanmagan fazalardagi kuchlanish normal ish rejimidagi fazalararo kuchlanishning taxminan 0,8 qismiga teng bo‘ladi. Bu neytralni yerga ulash usulining asosiy afzalligidir [5].

Yuqoridagi o‘rganishlardan kelib chiqib LD-DIDACTIC GMBH fizik modelda hamda Matlab R2017b da o‘tkazilgan tajribalarda tarmoqdagi bir fazali qisqa tutashuvning faza kuchlanishi va shu fazaning faza burchagiga ta’siri uch xil holat bo‘yicha tajribalar o‘tkazilgan (5 - rasm).



5 – rasm.Matlab dasturida yig‘ilgan ishchi laboratoriya sxemasi.

Dastlabki tajriba davomida transformator neytrali aktiv qarshilik orqali yerga ulanganda bir fazali qisqa tutashuv holati hosil qilinganda tarmoq parametrlari o‘zgarishi ossilogrammasi 6 – rasmda keltirilgan. Ayni shu tajriba mobaynida bir fazali yer bilan aktiv qarshilik orqali qisqa tutashuv rejimi aktiv qarshilikni 200 dan 1000 gacha diapazonda o’zgartirib ulandi va bu holatda tarmoq kuchlanishlari o‘zgarishi ossilogrammasi transformator neytrali yerga mustahkam ulangan holatga nisbatan sezilarli o‘zgarishni ko‘rish mumkin. Transformator neytrali yerga aktiv qarshilik orqali ulangan Uc fazada qisqa tutashuv tokining qiymati neytrali yerga mustahkam ulangan holatdagi qisqa tutashuv tokining qiymatiga nisbatan 30% kamroq qiymatni tashkil qildi. Tajribada tarmoq parametrlari o‘zgarishi transformator neytrali 1000 om qarshilik orqali ulangan holatda qisqa tutashgan fazadagi kuchlanish qiymati 239 kv ni qisqa tutashuv tokining qiymati esa 416 A ni tashkil etmoqda. Qarshilikning qiymati pog‘onali pasaytirib borilgani sari qisqa tutashuv tokining qiymati ortib bordi. Qarshilikning eng kichik pog‘onasida ya’ni 200 om qarshilikli qiymatda esa qisqa tutashuv tokining qiymati 916 A ni kuchlanish qiymati esa 203.8 kv ni tashkil etdi. Matlab dasturida hamda Laboratoriya stendida olingan natijalarning umumiyligi shundaki, C fazada qilingan qisqa tutashuv ikki holatdaham nolga yaqin qiymatda pasaydi



a) b)

6-rasm a) Matlab dasturidagi neytrali bir fazali yer bilan aktiv qarshilik orqali qisqa tutashuvning ossillogrammasi b) LD-DIDACTIC GMBH laboratoriya stedida transformator neytrali bir fazali yer bilan aktiv qarshilik orqali qisqa tutashuvning ossillogrammasi.

So‘ngra bir fazali yer bilan qisqa tutashuv tajribasi transformator neytrali bevosita yerga ulangan holatda qisqa tutashuv tajribasi o‘tkazildi va bu Matlab dasturida ham ko‘rib chiqildi. Ushbu tajriba mobaynida tarmoq parametrlari o‘zgarishi ossilogrammasi 7 – rasmda keltirilgan. Tajriba davomida eng kichik yerdan izolyatsiyalangan tarmoqda bir fazali yer bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri qisqa tutashuv tajribasi o‘tkazilib, ushbu holatda Uc fazada qisqa tutashuv rejimi hosil qilindi. Natijada Uc fazaning kuchlanishi nol qiymatni tashkil etib ushbu fazadagi qisqa tutashuv tokining qiymati sezilarli darajada otib 2287 A gacha ko’tarilganini ampermetr ko‘rsatkichlaridan ko‘rib o‘tish mumkin.. Qolgan fazalarda qisqa tutashuvning ta’siri deyarli sezilmadi. Demak neytrali yerga ulanmagan tarmoqlarda bir fazali qisqa tutashuv tokining ta’siri boshqa fazalar uchun

deyarli sezilarsiz ekanini ko‘rish mumkin.



a) b)

7-rasm. a) Matlab dasturida neytrali bir fazali yer bilan aktiv qarshilik orqali qisqa tutashuvning ossillogrammasi b)) LD-DIDACTIC GMBH laboratoriya stedida transformator neytrali bir fazali yer bilan bevosita qisqa tutashuvning ossillogrammasi.

O‘tkazilgan tajribalardan shuni ko‘rish mumkinki transformator neytrali turli xil ulanish holatlarida qisqa tutashuv vaqtida elektr uzatish liniyasidagi qisqa tutashgan fazasidagi qisqa tutashuv toki hamda faza kuchlanishining o‘zgarishi ko‘rib chiqildi. Natijada tarnsformator neytrali yerga bevosita ulangan holatda qisqa tutashgan faza kuchlanishi nolga tenglashib qisqa tutashuv tokining qiymati esa 2287 A gacha ko‘tarilgani, transformator neytrali aktiv qarshilik orqali ulangan holatda qisqa tutashgan faza kuchlanishi qiymati maksimal 20% pasayib qisqa tutashuv toki qiymati esa eng kichik aktiv qarshilik holatida ham neytrali yerga bevosita ulangan tarmoqqa nisbatan 60% kam qisqa tutashuv toki oqayotganini ko‘rib o‘tdik.

Adabiyotlar

[1]. Rojkova L.D., Kozulin V.S. Stansiya va podstansiyalarning elektr asbobuskunalari. Toshkent: O‘qituvchi, 1986 y.

[2]. Q.R. Allayev Elektromexanik o‘tkinchi jarayonlar Toshkent “Moliya” 2007

[3]. Лукашов Э. С. Введение в теорию электрических систем. Под ред. В. К. Шербакова. Издательство Наука сибирское отделение. 1981 г.

[4]. I.X.Xoliddinov, A.X.Eraliev “Elektr Stansiya va podstansiya” fanidan o‘quv qo‘llanma. FarPI , 2020

[5]. Лосев С.Б., Чернин А.Б. Расчет электромагнитных переходных процессов для релейной защиты на линиях большой протяженности. М.: Энергия, 1972. 144с.,ил.

[6]. N.M.Aripov, T.K.Jabborov.A.X.Eraliev Elektr stansiyalarini elektr jixozlari. Toshkent: 2021 y.

[7]. А.М. Авербух. Примеры расчетов неполнофазных режимов и коротких замыканий. 2-е издание, перераб. и доп. –Л.:Энергия. Ленинград. Отд-ние, 1979 –184с.,ил.

[8]. John d. Mcdonald ’’Electric power substations engineering‘‘ 2012 by Taylor vs fransiz group,526.

ELEKTR ENERGIYA SIFAT KO‘RSATKICHLARINI O‘LCHOVCHI ZAMONAVIY QURILMALAR TAHLILI

I.X. Xoliddinov, F.N. Nasretdinova, M.O. Yo‘ldashova, I.Z. Ibroximov

Farg‘ona politexnika instituti
(muxayyoabduraxmonova292@gmail.com)

(Qabul qilindi 6.05.2023 y.)

This article provides information on power quality indicators, voltage nonsensicality, the percentage limit of nonsensicality coefficients at nominal voltages, the coefficient of n harmonic components of voltage and devices for measuring the quality of electricity, their analysis. a device was selected that could accurately measure and edit the electrical energy quality indicators.

***Keywords**: electric power quality indicators, GOST 13109-97, voltage nosinusoidality, electric power quality standards, electric energy quality measuring devices.*

В данной статье приведены сведения о показателях качества электроэнергии, носинусоидальности напряжения, процентном пределе коэффициентов носинусоидальности при номинальных напряжениях, коэффициенте n гармонических составляющих напряжения и приборах для измерения качества электроэнергии, их анализе. редактировать показатели качества электроэнергии.

Ключевые слова: *показатели качества электроэнергии, ГОСТ 13109-97, носинусоидальность напряжения, нормативы качества электроэнергии, средства измерения качества электроэнергии.*

Ushbu maqolada elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlari, kuchlanish nosinusoidalligi, nosinusoidallik koeffitsientining nominal kuchlanishlarda ruxsat etilgan qiymatlari foizlardagi chegarasi, kuchlanishning n-ta garmonik tashkil etuvchilar koeffitsienti va elektr energiyasini sifat ko‘rsatkichlarini o‘lchovchi qurilmalar haqidagi ma’lumotlar, ularning tahlillari ko‘rib chiqilib elektr energiya sifat ko‘rsatkichlarini aniq o‘lchab uni tahrir qila oladigan qurilmani tanlab olindi.

Kalit so‘zlar*: elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlari, GOST 13109-97, kuchlanish nosinusoidalligi, elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlari me’yorlari, elektr energiya sifat ko‘rsatkichlari o‘lchovchi qurilmalar.*

Yuqori quvvatli bir fazali yuklamalarning paydo bo‘lishi elektr energiyasi sifatining tez o‘zgaruvchan parametrlari normal holatidan buzilishga olib kelmoqda, bu o‘z navbatida elektr energiyasi tiziming har bir bo‘g‘iniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Elektr energiyasini past kuchlanishli tarmoqlar orqali uzatishda, ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish, yangi texnologiyalarni takomillashtirish va joriy etish natijasida ventilli o‘zgartirgichlar, bir fazali va uch fazali elektr payvandlash qurilmalari, katta quvvatli elektr yoy pechlari, volt-amper xarakteristikasi nochiziqli yuklamalar tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Kuch transformatorlari, magnitli kuchaytirgichlar va gaz razryadli lampalar shunday xususiyatlarga ega. Shuning uchun ularni o‘lchovchi qurilmalarni tahlil qilib, joriy etishga talab ortib bormoqda.[1]

Elektr energiyasi sifat ko‘rsatkichlari va ularning me’yorlarini ifodalashda quyidagi terminlar bilan tavsiflanadi:

Kuchlanish og‘ishi – kuchlanishni o‘zgarish tezligi sekundiga 1 % dan oshmaganda kuchlanishni haqiqiy qiymati uni nominalidan farqiga aytiladi.

Kuchlanish tebranishi- kuchlanish og‘ish tezligi sekundiga 1% dan kam bo‘lmaganda ta’sir etuvchi eng katta va eng kichik kuchlanish orasidagi farq tushuniladi.[2]

Kuchlanish nosinusoidallik koeffitsienti - nosinusoidal kuchlanishning garmonik tarkibi asosiy qiymatini asosiy chastota kuchlanishiga nisbati bilan aniqlanadi.

Fliker miqdori – bu belgilangan vaqt davomida fliker ta’siriga insonning sezuvchanligi o‘lchovidir.

Kuchlanish nosimmetriyasini teskari ketma-ketlik koeffitsienti K_{2U} - nominal liniya kuchlanishini U_{nom} asosiy chastotaning teskari ketma- ketlikdagi kuchlanishi U_2 ga nisbati bilan teng bo‘lgan kuchlanishiga aytiladi va quyidagicha belgilanadi:

$$K_{2U}\ \%= U_{nom}\ / U_2$$

Kuchlanish nosimmetriyasini nol ketma-ketlik koeffitsienti - nominal liniya kuchlanishiga U_{nom} asosiy chastotaning nol ketma - ketlikdagi kuchlanishi U_0 ga nisbatiga teng bo‘lgan kuchlanishiga aytiladi

$$K_{0U}\ \% = U_{nom}/ U_0$$

Chastota og‘ishi- o‘rtacha chastota qiymati $f_{o‘}$ va haqiqiy qiymatini f_{nom} nominal qiymatlari o‘rtasidagi farq tushuniladi.[3]

Kuchlanish impulsi - elektr tarmog‘ining bir nuqtasida kuchlanish keskin o‘zgarishi, undan keyin nominal kuchlanishning tiklanishi yoki nominal kuchlanishga yaqinlashishi tushuniladi, kuchlanish implusi ko‘rsatkichi U_{imp} bilan tavsiflanadi.

Kuchlanishni vaqtinchalik ortish koeffitsienti- U_A kuchlanishining amplitudali qiymatlari asosiy chastotaning har yarim davrida $1{,}1\sqrt{2}\ U_{nom}$ kuchlanish darajasidan keskin oshishi bilan o‘lchanadi.



1-rasm. Sodda elektr tarmog‘i uchun tok va kuchlanishning vektor diagrammasi.

GOST 13109-97ga muvofiq elektr energiya sifat ko‘rsatkichlari va ularning me’yorlari

1 jadval

№ t/r	EESKlarni nomlanishi va ularni belgilanishi	Ruxsat etilgan qiymatlar	
		ruxsat etilgan	chegaraviy
1	O‘rnatilgan kuchlanish og‘ishi δU_o, %	±5	±10
2	Kuchlanish tebranishi δU_t (%)	–	1,2 egri chiziqlar 1 – rasmda
3	Fliker miqdori: - Qisqa muddatli P_{st}(n.k) - Uzoq muddatli P_{lt}(n.k)	 – –	 1,38; 1,0 1,0; 0,74
4	Kuchlanishni nosinusoidallik koeffitsienti K_u (%)	2-jad. bo‘yicha	2-jad. bo‘yicha
5	Kuchlanishni n-chi garmonik tashkil etuvchilari koeffitsienti $K_u(n)$(%)	3-jad. bo‘yicha	3-jad. bo‘yicha
6	Kuchlanish nosimmetriyasini teskari ketma – ketlik koeffitsienti K_{2u} (%)	2	4
7	Kuchlanish nosimmetriyasini nol ketma – ketlik koeffitsienti K_{0u} (%)	2	4
8	Chastotani og‘ishi Δf (Gts)	±0,2	±0,4
9	Kuchlanish yo‘qolishini davomiyligi	–	30
10	Kuchlanish impulsi U_{imp} (kV)	–	–
11	Kuchlanishni vaqtinchalik ortish koeffitsienti $k_{o'.u}$(n.k)	–	–

Elektr energiya sifat ko‘rsatkichlarini “INSTITUTE OF ELECTRICAL AND ELECTRONICS ENGINEERS”, “CIGRE”, “CIRED INTERNATIONAL CONFERENCE ON ELECTRICITY DISTRIBUTION”, “POWER SYSTEMS COMPUTATION CONFERENCE” quyidagi tashkilotlar tarafidan GOST 13109-97 bo‘yicha talablar qo‘yiladi [1-5].

Kuchlanishni sinusoidalligini buzilish koeffitsienti K_u

2-jadval

Normal ruxsat etilgan qiymatlari, U_{nom}, kV da				Chegaraviy ruxsat etilgan qiymatlari, U_{nom}, kV da			
0,38	6...20	35	110...220	0,38	6...20	35	110...330
8,0	5,0	4,0	2,0	12,0	8,0	6,0	3,0

Quyidagi jadvalda kuchlanish nosinusoidalligining ruxsat etilgan va chegaraviy qiymatlari kuchlanishlar bo‘yicha keltirilgan. Ruxsat etilgan qiymatlarda tarmoqdagi elektr qurilmalar ishlash davomiyligi uzoq davom etadi. Chegaraviy qiymatlarda uzoq muddat ishlagan elektr qurilmaning ishlash davomiyligi kamayishiga hamda isroflarning ko‘payishiga olib keladi [6-9].

Kuchlanishning n-ta garmonik tashkil etuvchilar koeffitsienti $K_{u(n)}$

3-jadval

U_{nom} 3ga ko‘paymaydigan toq garmonikalar, kV					U_{nom} 3ga ko‘payadigan toq garmonikalar, kV					U_{nom} juft garmonikalar, kV				
n	0,38	6...20	35	110... 330	n	0,38	6...20	35	110... 330	n	0,38	6...20	35	110... 330
5	6,0	4,0	3,0	1,5	3	5,0	3,0	3,0	1,5	2	2,0	1,5	1,0	0,5
7	5,0	3,0	2,5	1,0	9	1,5	1,0	1,0	0,4	4	1,0	0,7	0,5	0,3
11	3,5	2,0	2,0	1,0	15	0,3	0,3	0,3	0,2	6	0,5	0,3	0,3	0,2
13	3,0	2,0	1,5	0,7	21	0,2	0,2	0,2	0,2	8	0,5	0,3	0,3	0,2
17	2,0	1,5	1,0	0,5						10	0,5	0,3	0,3	0,2
19	1,5	1,0	1,0	0,4						12	0,2	0,2	0,2	0,2
23	1,5	1,0	1,0	0,4										
25	1,5	1,0	1,0	0,4										

4-jadval. Elektr energiya sifat ko‘rsatkichlarini o‘lchaydigan zamonaviy qurilmalar tahlili

Nomi	Afzalligi	Kamchiligi	Qaysi yo‘nalishga mo‘jallangan
“Resurs-UF2M” “RESURS-UF2C”	Rossiya davlatida ishlab chiqarilgan, GOST 32144-2013 va RD153-34.0-15.501-00 protokollari shaklining ixcham, to‘liq. EESK parametrlarining har daqiqalik qiymatlarini saqlaydi. Barcha tarmoq rejimlarida axborotni qayta ishlash algoritmi to‘g‘ri ishlab chiqilgan. Tarmoqni tahlil qilishda axborotlar yetarli.	Ishga tushurishdan avval arxivni tozalash, ma’lumot yuklab olish ko‘p vaqtni talab qiladi, to‘liq bo‘lmagan kun uchun protocol tuzilmaydi va narxining qimmat	Aktiv va reaktiv elektr energiya hisoblagichi, o‘ta kuchlanish, tok va kuchlanishning kirish signallarini raqamli signalga o‘zgartiruvchi, quvvat koeffitsienti o‘lchovchi qurilma.

“Ресурс- ПКЭ”	EESK parametrlarining har daqiqalik qiymatlarini saqlaydi. Barcha tarmoq rejimlarida axborotni qayta ishlash algoritmi to‘g‘ri ishlab chiqilgan. Elektr tarmoqlarini tahlil qilish uchun dasturiy ta’minot ma’lumotlari yetarli. Qurilma sana va vaqtni ko‘rsatib, o‘z ishining protokolini saqlash; ish rejimlarini va arxivlangan parametrlar ro‘yxatini sozlash; kamida 30 kun davomida o‘lchov natijalarini doimiy xotirada saqlash imkoniga ega.	Atrof- muhit harorati minus 20^0 C bo‘lganda noto‘g‘ri ishlaydi.	Bir fazali va uch fazali uch simli va to‘rt simli to‘g‘ridan- to‘g‘ri ulangan yoki o‘lchov kuchlanish transformatorlar yordamida ulangan elektr tarmoqlari va elektr ta’minoti tizimlarining EESKlarini avtomatik tarzda elektr o‘lchovlari uchun mo‘ljallangan. GOST 13109-97 talablariga muvofiq
“Эрис-КЭ.02”	bir necha davriy o‘lchov ob’yektlari uchun o‘lchov ma’lumotlarini saqlaydi. Grafik displeyning mavjud. protokollarni, o‘lchovlarni to‘xtatmasdan chop etishni ta’minlaydi.	Ma’lumotlar saqlash yarim soatlik qiymatnilari uchun amalga oshiradi, past aniqlik sinfga ega bo‘lgan tok qisqichlari bilan jihozlangan narxi qimmat.	EESK o‘zgarishini va tasodifiy hodisalarni yozib boradi, toklar nosimmertiyasi va garmonika tarkibi, quvvat oqimi miqdori kabi ma’lumotlarni ro‘yhatdan o‘takazadi .
Парма-ПЭК 6.05(RK6.05/1)	Tarmoqdagi avariyaviy va o‘tkinchi rejimlarni qayt qilish,elektr energiyasini hisobga olish tizimini onlayn tekshirish	Kuchlanish og‘ishi bo‘yicha ustavkasini sozlash imkoni yo‘q, kabel va shnurnining qisqaligi ulanishi noqulay, ishonchisiz,kuchlanish yo‘qolishi va o‘ta kuchlanish darajasini tuzatish imkoni kompyutersiz imkoni mavjud emas	EESK larni ro‘yhatdan o‘tkazish va quvvatni o‘lchash bilan parallel ravishda amalga oshiriladi. O‘tkinchi rejimlarni va kuchlanish impulslarini qayt qiladi.
РПКЭ-1-50.М	Ko‘rsatkichlarni ko‘rsatish qobilyati, o‘lchash paytida chop etish mumkin, uzluksiz ishlash qobilyati, kirish huquqlarini ko‘p darajali farqlanishi	Monitor kichkina , boshqarish qulay emas, kabellarini ulanishi ishonsiz, EESK larni o‘lchash va kuchlanish yo‘qolishini aniqlash qurilmaning turli xil	O‘rnatilgan kuchlanishni og‘ishi, kuchlanish nosimmetriyasini teskari va nol ketma – ketlik koeffitsienti, fazalararo egri kuchlanishning sinusoidalligini buzilish va *n*-chi garmonik tashkil

		ish rejimlarda amalga oshiriladi.	etuvchilari koeffitsienti, kuchlanish yo‘qolishini davomiyligi va vaqtinchalik ortish koeffitsienti, kuchlanish o‘zgarishi o‘rtasidagi vaqt oralig‘ini nazorat qiladi
«Энергомонитор 3.3 »	Ta’minot o‘chib qolganda ma’lumotlar saqlanib qoladi, knopkalarni sezgirligi yaxshi, komplektli kleshlar, silicon shnurlar, shtekerli ulanishga ega	Kuchlanish yo‘qolishi davomiyligi va kuchlanishni vaqtinchalik ortish koeffitsienti haqida ma’lumot bermaydi, ma’lumotlarni faqat kompyuterlarda yuklash mumkin joyida tuzatish imkoni yo‘q.	EESKning yuqori va pastki qiymatlarini ro‘yhatdan o‘tkazish, normal va avariyaviy holatlarda ruxsat etilgan chegaralarga kirmaydigan hisob kitoblarni ro‘yhatdan o‘tkazish ta’minlanadi
Прорыв-КЭ	Tahlil qilishda dasturning imkoniyatlari keng, ekspulatatsiya harorati -40dan +50 gacha, narxi qulay, EESK parametrlarini 3 soniyali qiymatlarini xotirada o‘lchaydi, qattiq elektromagnit muhitida foydalanish mo‘ljallangan	Ishlov berish va tahlil qilish imkoni yo‘q, monitori yo‘q, o‘lchash mobaynida eesklarni boshqarish mavjud emas va kompyutersiz ma’lumotlarga kirish mumkin emas.	Asosiy EESK larni, kuchlanish yo‘qolishini davomiyligu va kuchlanish tushuvini o‘lchaydi.
“Malika-01”	EESK larni o‘lchash, 3 oy davomida saqlash, ma’lumotlarni tahrir qilish, o‘lchash jarayonini kuzatish va quvvat yo‘qotishlarni ro‘yhatdan o‘tkazish ishlarini qiladi	Narx jihatdan qimmatligi, 24 soat bo‘lmaguncha ma’lumotlarni tahrir qilishning imkoni yo‘qligi	Chastotasi 50 Gst bir va uch fazali elektr qurilmalarni EESK kuzatish, elektr tarmoqlarini tekshirish, aktiv va reaktiv quvvatni o‘lchash
Multimetrlar	Sof sinusoidal to‘lqinlar uchun aniq ishlaydi	Kirish kuchlanishi to‘g‘rilanib va tenglashtiriladi, garmoniklarni o‘z ichiga olgan to‘lqinlarda xatoliklar yuz beradi,	Kuchlanish, tok va qarshilikni o‘lchash uchun ishlatiladi. Multimetrlar bilan amalga oshiriladigan odatiy o‘lchovlar chiziqli kuchlanish o‘lchovlari va ularning muvozatsizligidir.

Osiloskoplar	Ikki nuqta orasidagi kuchlanish farqini o‘lchash imkonini beradi, yerga ulangan osiloskopning kirish qisqichini tizimning yerga nisbatan qadaydir potensialga ega bo‘lgan nuqtasiga ulash muammosini bartaraf etadi.	O‘zgaruvchan tok zanjiridagi toklarni o‘lchash uchun tok zondlari bilan biga qo‘llaniladi,	Quvvat sifati yomonlashgan barcha holatlarda garmonikalarni ko‘rsatish, impuls o‘tish davrilarini tuzatish hamda kuzatish imkonini beradi
Joriy problar	To‘g‘ridan to‘g‘ri tokda ishlaydi,	Sezgirlikning o‘zgarishiga moyil bo‘lib har safar foydalanishdan oldin kalbrlashni talab qiladi	Hol effekti bilan ishlab o‘lchangan, tok tomonidan hosil qilingan, magnit maydon ta’sirida yarimo‘tkazgich kristalida kuchlanish paydo boladi.
Quvvat sifatini o‘lchash	Quvvat sifatini, kuchlanish pasayish, tebranishlar va implusi, nosinusoidal koeffitsientini, spektor tahlili, ma’lumotlarni tahlil qilish	Quvvat sifatini o‘lchashda bir martalik yoki qisqa muddatli hodisalarni ro‘yhatga oladi	Quvvat sifati o‘lchovlari va quvvat sifati analizatorlarini ishlab chiqaradilar

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki har bir elektr energiyasi sifat ko‘rsatkichini o‘lchovchi qurilmani o‘ziga hos afzallik hamda kamchiliklari mavjud.

Elektr energiya sifat ko‘rsatkichlarini o‘lchaydigan zamonaviy qurilmalar elektr tarmog‘idagi o‘zgarishlarni qayt qilib uni kamchiliklarini bartaraf etish uchun ma’lumotlarni olishga imkon beradi.

Adabiyotlar

[1]. Широков О. Г., Алферова Т. В., Алферов А. А., Прусаков С. Л. Оценка потерь электрической энергии, вызванных несинусоидальными режимами, при расчете небалансов системных подстанций 10 кВ // Вестник ГГТУ им. П.О. Сухого. 2015. №1 (60).

[2]. Ю. С. Железко. Потери электроэнергии. Реактивная мощность. Качество электроэнергии : рук. для практ. расчетов /. - М.: ЭНАС, 2009. - 456 с.

[3]. Патент UZ FAP № 01892. Устройство для регистрации дополнительных потерь электроэнергии при несимметрии нагрузок в низковольтных электрических сетях. /Аллаев К.Р., Шаисматов С.Э., Холиддинов И.Х., Холиддинова М.М. // Расмий ахборотнома. –2022, – № 1. – С. 36.

[4]. ГОСТ 13109-97. Межгосударственныйстандарт: электри-ческая энергия, совместимость технических средств электромагнитная, нормы качества электрической энергии в системах электроснабжения общего назначения.

[5]. Степанов, В. М. Влияние высших гармоник в системах электроснабжения предприятия на потери электрической энергии / В. М. Степанов, И. М. Базыль // Изв. Тул. гос. ун-та. - 2013. - № 12-2. - С. 27-31.

[6]. Избранные вопросы несинусоидальных режимов в электрических сетях предприятий / под ред. И. В. Жежеленко. - М. : Энергоатомиздат, 2007. - 296 с.

[7]. Патент UZ FAP №01166. Устройство для регистрации дополнительных потерь электроэнергии при несимметрии нагрузок в низковольтных электрических сетях./Аллаев К.Р., Шаисматов С.Э., Холиддинов И.Х.// Расмий ахборотнома. –2016, – № 12. – С. 36. 22.05.2015.

[8]. Холиддинов И.Х., Пономаренко О.И. Обеспечение приборной базы системы контроля качества электроэнергии в современных системах электроснабжения. // Universum: Технические науки : электрон. научн. журн. 2016. №8(29). URL:*http://7universum.com/ru/tech/archive/item/3527*

[9]. Руководство по эксплуатации измерителя показателей качества электроэнергии «Malika-01». – Ташкент, – 2016. – 30 с.

ELEKTR TA'MINOTI TIZIMIDA ASINXRON ISH REJIMLARINI BARTARAF ETISH QURILMALARINI TAHLILI

H.Sh. Ne'matjonov

Farg'ona politexnika instituti, hikmatillanematjonov2123@gmail.com
(Qabul qilindi 8.05.2023 y.)

Maqolada 500, 220, 110 kV li tarmoqlarda kuzatiladigan asinxron ish rejimlari – energiya tizimiga, tizimdagi qurilmalarning ishlashiga va uzluksiz elektr ta`minotiga salbiy ta`sir ko`rsatdi. Shuning uchun ham asinxron rejimlarni bartaraf etish usullarini va qurilmalarini tadqiq etildi. 500, 220, 110 kV li tarmoqlarda asinxron rejimlarni bartaraf etish qurilmalarini taxlil etish orqali uning milliy energiya tizim uchun qulay variantlarni taklif etish.

Kalit so'zlar: *Energetika tizimi, asinxron rejim, turg'unlik, tizim,tarmoq, o'tkinchi jarayon, energiya tizimning bo'linishi.*

В статье асинхронные режимы работы, наблюдаемые в сетях 500, 220, 110 кВ, оказали негативное влияние на энергосистему, работу устройств в системе, бесперебойное электроснабжение. Поэтому были исследованы методы и устройства для устранения асинхронных режимов. Анализируя устройства для устранения асинхронных режимов в сетях 500, 220, 110 кВ, предлагая удобные варианты для своей национальной энергосистемы.

Ключевые слова: *Энергосистема, асинхронный режим, устойчивость, система, сеть, переходный процесс, разделение энергосистемы*

In the article, asynchronous operating modes observed in 500, 220, 110 kV networks had a negative impact on the power system, the operation of devices in the system, and uninterrupted power supply. Therefore, methods and devices have been investigated to eliminate asynchronous modes. Analyzing devices for eliminating asynchronous modes in 500, 220, 110 kV networks, offering convenient options for their national power system

Keywords*: Power system, asynchronous mode, stability, system, network, transient process, power system separation*

Ma`lumki, 500, 220, 110 kV li tarmoqlarda asinxron rejimlarni bartaraf etish usullarini va qurilmalarini tadqiq etish, asinxron ish rejimlarining bartaraf etish algoritmini matematik va dasturiy modellarini shakllantirish tizimdagi mavjud muamolarni hal qilishning zamonaviy usullarini taqbiq qilishga yordam beradi. Ushbu tushuncha shu kungacha asinxron rejimni avtomatik bartaraf etish sohasidagi to'plangan amaliy va nazariy bilimlarning natijasida shakllantiriladi.

Energiya tizimlarining turg'unligini sezilarli darajada oshirish maqsadida avtomatlashtirish va boshqarish moslamalari keng qo'llaniladi. Bunga quyidagilar kiradi: barcha turdagi avtomatik qayta ulash qurilmasi (AQU) (bir fazali – BFAQU, tezkor–TAQU, uch fazali – UFAQU, asinxron – AAQU va boshqalar), avtomatik chastotani tushirish (AChT) [1].

Turg'unlikni o'rganishda oddiy va murakkab tuzilishdagi energiya tizimlari bir birida farq qiladi. Eng oddiy quvvat tizimi – bu " cheksiz quvvatli shina " bilan ifodalangan yuqori quvvatni qabul qiluvchi tizimga uzatish liniyasi orqali ulangan ekvivalent generator hisoblanadi (1–rasm) [1].



1–rasm. Oddiy quvvat tizimining sxemasi.

Bunday tizimdagi elektromexanik o'tkinchi jarayonlar tenglamalari bilan tavsiflanadi:

$$\begin{cases} T_j \frac{ds}{dt} = P_T - P_G \\ \frac{d\delta}{dt} = s \end{cases} \quad (1)$$

bu erda: δ – generator rotorining ko'ndalang o'qi va sinxron o'qi orasidagi burchak (rad); s – sinxron o'qqa nisbatan generatorning siljishi, (rad / s); P_T, P_G – turbina quvvati va generatori quvvati (nisbiy birlik); T_j – generatorning doimiy inersiyasi, (s^2 / rad).

Tizimning barqaror holati s, δ va hokazo koordinatalarining nol vaqt hosilalarining tengligiga mos keladi., E'_q, X'_q, δ



2–rasm.Aktiv quvvatning burchak sxemasi.

$$\begin{Bmatrix} P_T - P_G = 0 \\ s = 0 \end{Bmatrix} \quad (4)$$

Yuqoridagi ma’lumotlarga tayanib tizimning asinxron ish rejimini bartarafetish qurilmalarini ko‘rib chiqish orqali maqbul yechimni tanlab olamiz. Buning uchun dastavval asinxron rejimni avtomatik bartaraf etish qurilmalarini hisoblash usullarini taxlil qilib chiqamiz.

Quyida ko‘rib chiqiladigan usullar asinxron rejimni avtomatik bartaraf etish (ALAR) qurilmasining texnologik algoritmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari, usullar avariyaning rivojlanishidagi ma'lumotlari asosida avariya rivojlanish jarayonini tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Asinxron rejimda ekvivalent EES elektr parametrlarini olishning 3 usullari mavjud.

1) Asinxron rejimga dinamik o‘tish jarayonining differensial munosabatlarini tahlil qilish usuli.

2) ekvivalent sxema tarmoqlarining juft tenglamalarining kompleks mosligini taxlil qilish

3) asinxron rejimga dinamik o‘tishni rivojlantirish xususiyatlaridan foydalangan holda signalning ishchi namunasini shakllantirishni optimallashtirish usuli [2].

Yuqorida keltirilgan usullardan foydalanib energetik muhandislar tomonidan turli ALAR qurilmalarini ishlab chiqilgan. Quyida ushbu qurilmlar haqida so‘z boradi.

ALAR parametrini tanlash va uning samaradorligini tekshirish uchun, qoidalar asosida, ko‘plab hisob–kitoblarni bajarish kerak. Qabul qilingan hisob kitob qoidalari bir qator ishlash sharoitlariga bog‘liq: elektr uzatishning uzluksizlik darajasi, uning konfiguratsiyasi, uning rejimining elektr stantsiyalarining turg‘unligiga ta'siri, katta yuklama tugunlari va energiya tizimining rejimlariga ta'siri [3].

Bugungi kunda amaliy loyihalarda va ekspluatatsiyada ishlatiladigan ALAR moslamalari EESda AR paytida ish parametrlarini o‘lchash xususiyatlaridan foydalanadigan printsiplarga asoslanadi. Bunday parametrlarga quyidagilar kirishi mumkin: kuchlanish U, tok I, tarmoqning boshqariladigan m nuqtasida o‘lchangan aktiv P va reaktiv Q quvvat; kuchlanish va tok o‘rtasidagi burchak φ_p; ekvivalent EYuK E1 va E2 vektorlari orasidagi o‘zaro burchak δ_{12}; tarmog‘idagi boshqariladigan m nuqtaga o‘rnatilgan Z_r qarshilik rele terminallaridagi qarshilik; "orqada" joylashgan energiya tizimi qismining U_2 kuchlanish vektoriga nisbatan tarmoqning boshqariladigan uchastkasi oldida joylashgan quvvat tizimining kuchlanish U_1 vektorining siljishi.

Asinxron rejimni avtomatik bartaraf etish qurilmalarining turlari

2–jadval.

Ish prinspi	Sezuvchi organi	ARni qo‘llash / aniqlash
Tokli ALAR	TAO SAO	150 va undan past/ ETM aniqlanmaydigan tarmoqlarda
Masofaviy ALAR	MAO SAO	Tarmoqlarda/birinchi sikl boshlangandan keyin
	MAO SAO	Tarmoqlarda/birinchi sikl boshlanishigacha
		Stansiyalarda
Burchak ALAR	BAO	Stansiyalarda

ALAR–R	TAO BAO SAO QTAO	Tarmoqlarda/ birinchi sikl boshlanishi–gacha

Tokli ALAR. Ushbu ALAR qurilmasining ishlash algoritmidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, ARni bartaraf qilish uchun eng oddiy qurilma hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu turdagi ALAR larning funktsional imkoniyatlari qisman cheklangan: qurilma energiya tizimining nazorat qilinadigan qismida AR ni aniqlay oladi va AR bartaraf qilishga qaratilgan UV ni hosil qiladi, ammo ETM va AR belgilarini (tezlanish yoki tormozlanish) ishlab chiqa olmaydi. Shuning uchun ham, yuqorida aytib o‘tilganidek, tokli ALAR faqat 150 kv va undan past tarmoqlarda qo‘llaniladi. Quyidagi 2 – rasmda tokli ALARning mantiqiy sxemasi ko‘rsatigan. Unga ko‘ra ARni aniqlash uchun ALAR qurilmasida asinxron rejimni aniqlash organi (ARAO) mavjud bo‘lib, u ALAR qurilmasini tarmoq rejimidagi kutiladigan o‘zgarishlarga moslashtirish uchun belgilangan 4 ta nuqtani o‘z ichiga oladi, shu bilan birga belgilangan guruhlarni tanlash funksional tugma yordamida amalga oshiriladi va u terminalning raqamli kirishiga signallarni yuboradi. ARAO ALAR ning mantiqiy sxemasi quyidagi rasmda ko‘rsatilgan [7].

Masofaviy ALAR. Masofaviy ALAR moslamalarida ARni aniqlash usuli bu boshqariladigan nuqtada o‘lchangan I_r va kuchlanish U_r ning murakkab qiymatlari bo‘yicha hisoblangan Z_r qarshilik vektorining kompleks tekislikdagi hodografi xususiyatlarini kuzatish va tahlil qilishdir. Masofaviy ALAR moslamasi, amaldagi qurilmalardan farqli o‘laroq, nafaqat energiya tizimining boshqariladigan nuqtasida ARni aniqlay oladi va uni bartaraf qilishga qaratilgan BO hosil qiladi, ETM ham aniqlay oladi va ARning xarakterini ham (tezlanish yoki sekinlanish) [7].



2–rasm Tokli ALAR ning mantiqiy sxemasi.

Shunday qilib, masofadan turib ishlash printsipi bo‘yicha ALAR elektr stantsiyalarida va elektr tarmoqlarida cheklovlarsiz o‘rnatilagan ALAR qurilmalari talablarga javob beradi

ALAR moslamalarini ishlash algoritmi ko‘proq ushbu qurilmalarda tanlangan ARni aniqlash uslubiga bog‘liq, ammo turli ishlab chiqaruvchilarning uzoqdagi ALAR moslamalarining mantiqiy parametrlari farq qilishi mumkin, chunki hozirgi ALAR lardan farqli o‘laroq, ARni aniqlash organi (ARAO) masofaviy ALARda murakkab tuzilishga ega va turli xil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ALARni o‘zlarining fikriga ko‘ra masofaviy organning (MO) eng yaxshi xususiyatlarini ta'minlaydi.

13–rasm. ARAO dastur blokining tuzilishi.

Burchakli ALAR. Burchakli ALAR moslamalari orqali AR aniqlash usuli – kuzatilayotgan uchastkaning kuchlanish burchaklaridagi farqni natijasida amalga oshiriladi. Yagona sertifikatlangan burchakli ALAR qurilma – bu TekonGroup AJ tomonidan ishlab chiqarilgan ALARb qurilmalar. ALARb TEKON 300 seriyasidagi RH va AH ning mikroprotsessor qurilmasiga birlashtirilgan va qo‘zg‘aladigan generatorning elektr stantsiyasiga nisbatan asinxron rejimini bartaraf qilish uchun elektr stantsiyasida o‘rnatish uchun mo‘ljallangan [20]. da keltirilgan ma'lumotlarga ko‘ra, ALAR pog‘onali AQA bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi [7]:

ALAR ishlashi quyidagi kirish signallarida bloklanadi: terminalda nosozlik bo‘lsa; tokning ishchi zanjirlarining nosozligi va to‘liq bo‘lmagan fazali rejimdagi(TBF) kuchlanishini aniqlash; bir fazali avtomatik qayta ulash(BFAQU); teskari ketma–ketlik kuchlanishining paydo bo‘lishi; sinxron tebranishlar; boshqa rejimlar energiya tizimida AR bo‘lmagan generatorlar guruhlarining sinxron ishlashi bilan tavsiflanadi. Uzoq muddatli to‘liq bo‘lmagan faza rejimda ALARu qurilmasi bloklanmaydi. ARAO ALARu dastur blokiga kirish signallari energiya tizimining boshqariladigan tuguniga o‘rnatilgan TT va KT bilan o‘lchanadigan I0 oqimlari va U0 kuchlanish qiymatlari hisoblanadi. Boshqariladigan uchastkaning oxiridagi kuchlanish (1) ifodaga muvofiq aniqlanadi:

$$U=U_0+Z_0\cdot I_0 \quad (38)$$

Bunday holda, Z0 uchastkasining har bir bosqich uchun qarshiligi ikkita zona bilan belgilanadi

Nazorat qilinadigan uchastkaning kuchlanish vektorlari orasidagi o‘zaro burchak δ I zona va II zonaning pastki zonasi uchun quyidagi (2) formulalar bo‘yicha aniqlanadi:

$$\delta=\varphi_(U_0)-\varphi_U$$

$$\varphi_(U_0)=arctg (I_m (U_0))/(R_e (U_0)) \quad (39)$$

$$\varphi_U=arctg (I_m (U))/(R_e (U))$$

ALAR ni ishga tushirish bosqichidan qat'i nazar, δ burchakni oshirib, I zonaning eng uzoq nuqtasi uchun, ALAR ishga tushirish qiymatining belgilangan qiymati 90° dan 150° darajagacha o‘zgarib turadi. Birinchi bosqichning ishga tushirilishi 150° dan 180° gacha o‘zgarib turadi va ishga tushirish shartlarini saqlab turadigan pozitsiya qo‘yilmasining taxminiy burchagi bajarilganda sodir bo‘ladi. Ikkinchi va uchinchi bosqichlar asinxron sikl, hisoblagichi subzonalarning har biri uchun 0 dan 20 gacha bo‘lgan oraliqda belgilangan qiymatga yetganda boshlanadi. Signal faqat 180° dan 300° gacha burchakka etib kelganidan keyin hosil bo‘ladi. Tegishli subzonaning asinxron yurish sikllarini hisoblagichi ushbu subzonaning kirish burchagi 180° qiymatdan o‘tganida asinxron yurishni qayd etadi (3- rasm).



3–rasm. ALARu qurilmasidan foydalanishning asosiy misollari: a) havo liniyasida;b) generatorda PK tomonida.

ALAR–R. ALAR–R – bu ko‘p funktsiyali birlashtirilgan qurilma hisoblanadi. Bir tomondan, u turg‘unlik buzilishining oldini olish avtomatikasi (TBA)

funktsiyalarini bajarishi mumkin. TBA funktsiyasining identifikatsiyalash organi belgilangan parametrlarning o‘lchangan rejim parametrlari (nisbiy burchak, aktiv quvvat va ularning hosilalari) qiymatlarida ishlaydi. Boshqa tomondan, AR ni aniqlash, bartaraf qilish yoki qayta sinxronizatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda signallarni shakllantirish uchun to‘rtta O‘O mavjud [20]:

- burchakni aniqlash organi (BAO), asosiy organ hisoblanib, AR birinchi siklidan oldin ishlaydi;
- siklni aniqlash organi (SAO), BAO uchun zaxira yoki AR sikllarining belgilangan sonidan, 1–2 sikllardan keyin ishlaydi;
- tokni aniqlash organi (TAO), boshqa barcha O‘O uchun zahira sifatida, BAO va SAO blokirovkasi bilan eng oddiy sxemalarda ishlaydi;
- aniqlash organi AO, tashqi tarmoqdagi QT bilan sinxron generatorlarning asinxron rejimini aniqlash(QT) –qisqa tutashuvi bo‘lganda sinxron generatorning (SG) AR holatida ishlashidir.

ALAR ishlashi quyidagi kirish signallarida bloklanadi: terminalda nosozlik bo‘lsa; tokning ishchi zanjirlarining nosozligi va to‘liq bo‘lmagan fazali rejimdagi(TBF) kuchlanishini aniqlash; bir fazali avtomatik qayta ulash(BFAQU); teskari ketma–ketlik kuchlanishining paydo bo‘lishi; sinxron tebranishlar; boshqa rejimlar energiya tizimida AR bo‘lmagan generatorlar guruhlarining sinxron ishlashi bilan tavsiflanadi. Uzoq muddatli to‘liq bo‘lmagan faza rejimda ALARu qurilmasi bloklanmaydi. TBA funktsiyasining identifikatsiyalash organi belgilangan parametrlarning o‘lchangan rejim parametrlari (nisbiy burchak, aktiv quvvat va ularning hosilalari) qiymatlarida ishlaydi.

Xulosa qilib shuni ayta olish mumkinki, avariyaga qarshi avtomatika qurilmalarini energiya sistemaga tadbiq qilish jarayonida sisemaning xarakterli jihatlarini inobatga olib ushbu qurilmalarni tanlanadi. Bundan tashqari bugungi kundan ALAR –r qurilmasi hamda burchakli ALAR qurilmasi ko‘p qo‘llanilmoqda. Lekin buning uchun avvolo energiya tizimining raqamlashtirish jarayoniga e’tibor qaratilishi kerak. Tizimdagi har qanday asinxron ish rejimi tizimning bo‘linishiga va uning qayta tiklash uchun juda ko‘p mablag‘ talab qilishiga sabab bo‘ladi. Ammo to‘g‘ri tanlangan himoya va avtomatika qurilmalari buni oldini olishi mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar

[1]. Хачатуров А.А. “Исследование предельных режимов и ресинхронизация з сложных энергосистемах”. Труды ВНИИЭ, вып. 23, 1966G. 2. Q.R. Allayev Elektromexanik o‘tkinchi jarayonlar Toshkent “Moliya” 2007

[2]. Лукашов Э. С. Введение в теорию электрических систем. Под ред. В. К. Шербакова. Издательство Наука сибирское отделение. 1981 г.

[3]. I.X.Xoliddinov, A.X.Eraliev “Elektr Stansiya va podstansiya” fanidan o‘quv qo‘llanma. FarPI , 2020

[4]. Лосев С.Б., Чернин А.Б. Расчет электромагнитных переходных процессов для релейной защиты на линиях большой протяженности. М.: Энергия, 1972. 144с..

[5]. Жданов П.С. “Асинхронный режим в электрических системах, Электричество”, № 21,1936.

[6]. Федоров Д.А. “Определение мощности и токов асинхронно работающих синхронных генераторов в сложной электрической системе”. Труды МЭИ, вып. 54,1964.

ELEKTR TIZIM REJIMLARI VA ELEKTR SISTEMA REJIMLARIDA O`TKINCHI JAROYON TURLARINI MATLAB DASTURIDA TAXLILI

A.U. Xaqiqov

Farg’ona politexnika instituti, haqiqovanvarjon@gmail.kom

(Qabul qilindi 8.04.2023 y.)

Maqolada elektr energetika tizimida kuzatiladigan turli hil nonarmal rejimlar elektr energiya istemolchilaring uzliksiz elektr energiya istemoliga katta ta’sir ko‘rsatadi.Ushbu rejimlar davomida o‘tkinchi jarayonlar kuzatiladi. Ushbu o‘tkinchi jarayonlarni tahlil qilish uchun matlab dasturidan

foydalanildi

Kalit so‘zlar: *Energetika tizimi, nonarmal rejim o‘tkinchi jarayon, kuchlanish, tok, chastota, aktiv energiya, reaktiv energiya,*

различные ненормальные режимы, наблюдаемые в электроэнергетической системе в статье, оказывают большое влияние на непрерывное потребление электроэнергии потребителями электроэнергии.Во время этих режимов наблюдаются преходящие процессы. Для анализа этих переходных процессов использовалась программа MATLAB

Ключевые слова*: энергетическая система, неармальный режим переходный процесс, напряжение, ток, частота, активная энергия, реактивная энергия*

the various nonarmal modes observed in the electrical energy system in the article have a great influence on the non-disconnected electrical energy istemol of electrical energy consumers.Transient processes are observed during these modes. To analyze these transient processes, the matlab program was used

Keywords*: energy system, nonarmal mode transient process, voltage, current, Frequency, Active Energy, reactive energy.*

Elektr sistema (ES)–elektr energetik sistemaning shartli ravishda ajratilagan elektr qismi bo`lib, uning elementlari elektr energiyani ishlab chiqarish(generatsiya qilish), o`zgartirish, uzatish hamda iste`mol qilish yagona jarayoni bilan birlashadi. Ushbu elementlarni ikki guruhga bo`lish mumkin.[1]

Birinchisi, kuch elementlari–elektr energiyani a) ishlab chiqaruvchi (generatorlar, turbinalar); b) o`zgartiruvchi (kuchaytiruvchi va pasaytiruvchi transformatorlar, invertorlar); c) uzatuvchi (havo va kabel uzatish liniyalari,tarmoqlar); d) iste`mol qiluvchi(yuklamalar) elementlardir.

Ikkinchisi, boshqarish elementlari–sistema holatini o`zgartiruvchi va boshqaruvchi elementlar(sinxron mashinalarni qo`zgatishini avtomatik rostlagichlari, chastota rostlagichlari, relelar,uzgichlar, o`chirgichlar va h.k).

Elektr sistema ishini o`ganishda elektr jarayonlarini ko`rib chiqish va ularga bog`liq bo`lgan sistema elementlaridagi mexanik jarayonlariga ham to`xtab o`tish kerak bo`ladi.

Barcha sistema elemenlari elektr energiyani ishlab chiqish(ya`ni generatsiya), uzatish, taqsimlash va iste`mol qilish jarayonlari umumiyligi bilan bog`langan. Shuningdek sistema holati o`zgarganda elementlarda umumiy jarayonlar hosil bo`ladi. Ta’kidlash kerakki, alohida elementlarni birlashtiruvchi sistema alohida elementlarda kuzatilmaydigan xususiyatlarga ega bo`ladi. Sistemada sodir bo`ladigan jarayonlar uning elementlarida ro`y beradigan jarayonlardan ancha farq qilishi mumkin.

Sistemada mavjud bo`lgan va har vaqt oralig‘ida yoki biror vaqt intervalida uning holatini aniqlovchi jarayonlar majmui sistema rejimi (holat) deb ataladi. Rejim sistema elementlarining bog`lanish sxemasiga va uning parametrlariga bog‘liq bo‘ladi.

Miqdor ko`rsatkichlari: ishlab chiqarilayotgan aktiv P va reaktiv Q quvvatlar, Q va P quvvatlar oqimlari, ishlab chiqarilayotgan elektroenergiya miqdoriga bog‘liqdir.

Rejim parametrlari–sistemaning holatini miqdor jihatdan aniqlaydigan va sistema holati o`zgarganda o`zgaradigan(P,Q,U,I, f,ϕ kabi) parametrlaridir, ya`ni rejimni harakterlaydigan ko`rsatkichlardir [2].

Elementlarning to`la (Z,Y), aktiv (R,G) va reaktiv (X,B) qarshilik va o`tkazuvchanliklari, xususiy va o`zaro qarshilik, transformatsiya koeffitsentlari, zanjirlarning vaqt doimiylari, kuchaytirish koeffitsentlari va h.k. kabi parameter sistema parametrlaridir.

Rejim parametrlari o`zaro bog`lanish munosabatlariga (tenglamalarga) sistema parametrlari ham kiradi.

Sistema parametrlari rejim parametrlariga bog`liq bo`lsa, sistema nochiziq sistema deyiladi. Demak, uning tarkibida U(I) volt amper harakteristikasi egri chiziq bo`lgan nochiziq elementlari mavjud. Masalan, quyidagi nochiziq bog`lanishlarni ko`p marta hisobga olish kerak bo`ladi:

$$P = \frac{U^2}{R} \quad (1)$$

$$P = \left(\frac{U_1 U_2}{X}\right) sin\delta \quad (2)$$

bu yerda R, X– sistema parametrlari;

$P, U, \delta -$ rejim parametrlari.

Elektr sistema rejimlari ikki guruhga bo`linadi, ya`ni turg`un (barqaror) va o`tkinchi (noturg`un) rejimlariga, ular esa quyidagi turlarga bo`linadi.

1.Normal turg`un rejimi (ish rejimi)– bu o`zgarmay uzoq vaqt davom etadigan rejim. Normal ish rejimida sistema iste`molchini qabul qilingan me`yorlariga mos keladigan va yetarli darajada o`zgarmas sifatli elektr energiya bilan ta`minlanishi kerak.

Bunda sistema rejimi mutlaqo o`zgarmasa ma'qul bo`lar edi, ammo butunlay " turg`un rejim" amalda bo`lishi mumkin emas(1–rasm). Sistemadagi yuklama doimo o`zgarib turadi. Masalan, iste'molchilar soni, quvvati, tarkibi uzliksiz o`zgaradi, ya`ni yuklama "nafas" oladi.



a) b)

1–rasm. Sistemaning normal rejimi a)tarmoqning strukturaviy sxemasi b) tarmoq parametrlari ossilogrammasi.

Shu tufayli tarmoq kuchlanishi fluktuatsiya deyiladi.a). sistema sxemasi b) normal rejim vaqt diagrammalari: U– yuklamani ta`minlovchi nimstansiya shinalaridagi kuchlanish; P–yuklama iste`mol qiladigan quvvat oqimi; sistema chastotasi; o–index nominal qiymatni bildiradi.

Normal o`tkinchi rejim – bu sistemaning normal ish paytida bir ish rejimidan ikkinchi ish rejimiga o`tishidir [2].

Sistemada tez–tez uchraydigan «katta o`zgarishlar» sodir bo`ladi. Ular ishlab chiqariladigan va iste'mol qilinadigan quvvatlar miqdorlari hamda sistema konfiguratsiyasi o`zgarishiga bog`liqdir. Ya'ni sistema element (uzatish liniya,generator,transformator, kuchli nimstansiya,yuklama tuguni) larini ulash yoki uzish (yoqish, o`chirish) bilan bog`liq bo`ladi (2–rasm).

Avariya (shikastlanish) o`tkinchi rejimi. Har qanday boshqa sistemaga o`xshab elektr sistema ba'zida avariya (shikastlanish) ta`sirlariga duch kelishi mumkin.Avariya o`tkinchi rejimi – bu sistemaning avariya rejimi paytidagi holat va undan keying bo`ladigan yangi ish rejimiga o`tishidir(3–rasm).

Ushbu rejimlar uchun avariyani bartaraf etishga mo`ljallangan qurilmalarning texnik harakteristikalari hamda sistemaning keying ishlash shartlari aniqlanadi.

Avariyalar quyidagi sabablarga ko`ra bo`lishi mumkin. Birinchisi, sistema rejimi buzilishi natijasida. Masalan, alohida elementlarning yuklamasi ortib ketishi va ular avtomatik ravishda o`chirilishi hamda shu tufayli sistemaning alohida qismlariga bo`linib ketishi ya'ni "sistema barbod bo`lishi " bilan bog`liq bo`lgan avariyalar.



2–rasm. Sistemaning normal o`tkinchi rejimi.

a) sistemaning sxemasi; b) uzatish liniya L1 o`chirilishi: U1– nimstansiya N1 shinalardagi kuchlanish; P1– generator G1 dan kelayotgan quvvat oqimi; c) kuchli generator G2 ning yoqiliishi va yuklamasini to`plashi: U2– nimstansiya N2 shinalaridagi kuchlanish; P2– generator G2 dan kelayotgan quvvat oqimi. 0–indeks b ıg`ich qiymatni 1,2 – turg`un qiymatni bildiradi.

Ikkinchisi, sistemaning aloh lementlari vayron bo`lishi natijasida. Masalan, tashqi ta'sirlar (shamol, yaxmalak) tufayli elektr uzatish liniyalarning tayanchlari qulashi va vayron bo`lishi mumkin. Qisqa tutashuv toklarining oshib ketishi bilan bog`liq bo`lgan ichki ta'sirlar tufayli generatorlar, transformatorlar, reaktorlar va nimstansiyalar ishdan chiqishi mumkin.



3–rasm. Elektr sistema rejimlari.

Avariyadan keying turg`un rejim umumiy rejimdagi sistemaning normal sxemasi o`zgarishi bilan harakterlanadi. Avariyadan keyin bitta yoki qator shikastlangan elementlar o`chiriladi.Bu rejimda sistema normal rejimga nisbatan bir muncha yomonlashgan texnik–iqtisodiy harakteristikalari bilan ishlash mumkin. Demak, elektr sistemada sodir bo`ladigan to`rtta rejimni kuzatish mumkin ekan 4–rasm).

Rejimlarning alohida jarayonlari ko`rilganda rejim parametrlari jarayon parametrlari deb ataladi. Har qanday muhandislik masalalarini yechishda barcha jarayonlar faqat o`rganilayotgan masalaga bevosita tegishli jarayonlar ajratiladi va eng muhim omillar hisobga olinadi.

Ushbu tazrda o`tkinchi rejimlarni o`rganishda asosan normal va avariya o`tkinchi elektromagnit va elektromehanik jarayonlarga e'tiborni qaratamiz [3].

Shuningdek tadqiqot paytida o`tkinchi jarayonlar,xuddi rejimlarga o`xshab, quyidagi alomatlar bo`yicha turlarga bo`linishi, ya`ni taqsimlanishi mumkin:



4–rasm. O`tkinchi jarayonlar kechish vaqti bo`yicha turlarga ajralishi.

1). Kechikish sharoitlariga ko`ra – normal va avriyali o`tkinchi jarayonlar;

2). Yuzaga kelish sababiga ko`ra. Normal o`tkinchi jarayonlar biror sabablarga ko`ra sistema parametrlari o`zgarish tufayli sodir bo`ladi. Ushbu sabalar turtki ta`sirlar (rejim turtkilari yoki turtkilar) deb nomlanadi va rejim parametrlarida boshlang`ich og`ishlar paydo bo`ladi.

4) O`rganilayotgan sistema strukturasi murakkabligiga ko`ra.

5) O`tkinchi jarayonlar kesish tezligiga (vaqtiga) ko`ra (mikrosekunddan) to bir necha soatgacha davom etishi mumkin) to`lqinsimon, elektromagnit va elektromehanik o`tkichi jarayonlar turlariga ajratiladi (4–rasm).



5 – rasm. Nonormal rejimdagi o‘tkinchi jarayonlarni tadbiq qilish uchun Matlab dasturidagi tizim modeli.

Rejimga turtki berish o‘rnida hosil bo`lgan o`tkinchi jarayonlar nazariy jihatdan cheksiz vaqt davom etadi. Amalda o`zgarishlarni harakterlovchi parametrning qiymati nazariy jihatdan hisoblangan turg`un qiymatlardan konkret shartlarga bog`liq bo`lgan biror bir cheklangan kichik qiymatga farq qiladi deb olinadi.

To`lqinsimon o`tkinchi jarayonlar [$t_{to`liq} = (10^{-8} \div 10^{-5}$ )s] ular ichki kommutatsiya, momaqaldiroq va boshqa o`ta kuchlanishlar bilan bog`liq. Mehanik o`zgarishlar ushbu jarayonga ta`sir etmaydi.



6 – rasm. Qisqa tutashuvdan so‘ng tizimdagi kuchlaning, tok va generatorning chiqish qiiymatlarining o‘zgarishi.

Elektromagnit o`tkinchi jarayonlar [$t_{to`liq} = (10^{-8} \div 10^{-5}$)s] – sistemada yuz berayotgan mehanik rejimlarni hisobga olmagan holda o`rganiladi. Bunda sinxron generator rotorlaning aylanish tezligi o`zgarmas ($\omega_r = const$) deb faraz kiritiladi.

Elektromagnit o`tkinchi jarayonlarga [$t_{emx} = 0.02 \div 10$s va undan katta generator, turbina, matorlarning aylanish tezliklarining o`zgarishi sezilarli darajada ta`sir etadi. Elektromagnik va mehanik rejimlar bir vaqtda ko`tariladi.

Demak, Energiya tizimning nonormal ish rejimlarini taxlil qilish uchun ma’lum bir simulyatsiya modelini ko‘rib chiqish kerak. 5 – rasmda bitta manbaga ega bo‘lgan elktr energiya sistemasining sodda sxemasi Matlab dasturida modellashtirildi. Unda bitta asosiy ta’minot blogi hamda 6 ta chiqish tarmoqlari mavjud. Ushbu tarmoqlar ixtiyoriy bittasining shinasida bir fazali qisqa tutashuv qilish orqali tizimda nonormal rejim hosil qilinadi hamda ushbu nonormal rejimning taqsimash shinasiga hamda asosiy manbaning texnik parametrlariga qanday ta’sir qilinishi ko‘rib o‘tiladi.

6 – rasmda uchta grafik tasvirlangan. Ushbu grafiklar tizimdagi nonormal rejim holatlarini ifodalaydi.Birinchi grafikda tizimning chiqish shinasiga qisqa tutashuvning ta’siri hamda undagi kuchlanish o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra bir fazali qisqa tutashuv natijasida C fazadgi kuchlanish nolga yaqinlashganini hamda ikkinchi grafikda tokning qiymati oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Natijada uchinchi grafikda tizim generatorining holati ko‘rsatilgan.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, enegiya tizimdagi har qanday kichik nonormal rejimlar tizimning umumiy o‘tish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Modeldan olingan natijalardan kelib chiqib tizimdagi shunday holatlar elektromagnit o`tkinchi jarayonlarga sabab bo‘ladi. Ushbi jarayonlarni chuqurroq modellashtirish natijasida o‘tish jarayonlarini kengroq o‘rganish va oldindan “black out” holatlarini taxlil qilsh imkonini beradi.

Adabiyotlar

[1]. G.Nazirova O‘tkinchi jarayonlar “Sano standart” nashriyoti Toshkent 2017
[2]. Q.R. Allayev Elektromexanik o‘tkinchi jarayonlar Toshkent “Moliya” 2007
[3]. Лукашов Э. С. Введение в теорию электрических систем. Под ред. В. К. Шербакова. Издательство Наука сибирское отделение. 1981 г.
[4]. I.X.Xoliddinov, A.X.Eraliev “Elektr Stansiya va podstansiya” fanidan o‘quv qo‘llanma. FarPI , 2020
[5]. Лосев С.Б., Чернин А.Б. Расчет электромагнитных переходных процессов для релейной защиты на линиях большой протяженности. М.: Энергия, 1972. 144с.,ил.

ВИДЫ КОМБИНИРОВАННЫХ СИСТЕМ, ПРЕИМУЩЕСТВА ИХ ПРИМЕНЕНИЯ

У.А. Мадмарова, Ж.М. Иброхимов

Ферганский политехнический институт
(Получена 12.05.2023 г.)

Ушбу ишда комбинациялашган қурилмаларнинг турлари, уларни кўринишлари, қўлланилишф услублари, қўлланилиш йўналишлари хамда фойдаланишдаги устунлик тарафлари келтирилган. Бундан ташқари қуёш энергетик қурилмаларини бир биридан фарқи ва устунлик жихатларини тахлиллари келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: *энергия, қуёш нурлари оқими, қувват, қурилма, комбинациялашган тизим, фотомодул, модул тип, коллекторлар.*

В данной работе представлены виды комбинированных устройств, их внешний вид, способы использования, направления использования, преимущества в использовании. Кроме того, дан анализ отличий и преимуществ устройств солнечной энергетики друг от друга.

Ключевые слова: *энергия, солнечеый поток, мощность, установка, комбинированная система, фотомодул, модульный тип, коллекторы.*

This work presents the types of combined devices, their appearance, methods of use, directions of use, and advantages in use. In addition, the analysis of the differences and advantages of solar energy devices from each other is given.

Key words: *energy, solar flux, power, installation, combined system, photomodule, modular type, collectors.*

Одной из тенденций последних лет является постоянный рост объемов получаемой энергии за счет использования возобновляемых источников на основе солнечных, ветряных и других установок. Это наряду с очевидными преимуществами имеет и принципиальный недостаток, связанный с непостоянством вырабатываемой электроэнергии (темное время суток, отсутствие ветра или слишком сильный ветер и т.п.). Этот недостаток может быть успешно скомпенсирован путем создания комбинированных энергоустановок, где, наряду с возобновляемыми источниками энергии используются топливные элементы и аккумуляторы. При этом водород для работы топливных элементов может быть получен в электролизере, в период наиболее эффективной работы ВИЭ, может быть запасен в специальных емкостях, и при необходимости использоваться для генерирования электроэнергии.

Основные преимущества применения комбинированных энергоустановок:

- Экономия средства на содержание энергоустановки
- Экономия топлива
- Низкий уровень выбросов вредных веществ в окружающую среду
- Низкий уровень шума энергоустановки

Комбинированные солнечные системы теплоснабжения в отличие не только от традиционных электростанций и котельных, но и от установок, преобразовывающих возобновляемые источники энергии (ветроэлектростанции, геотермальные, приливные, гидроэлектростанции), можно устанавливать в непосредственной близости от потребителя. Их можно устанавливать непосредственно в центре густонаселенных городов на крышах зданий для обеспечения электроэнергией коммунального сектора и промышленных предприятий.

Определено, что по всем энергетическим показателям комбинированные установки значительно превосходят плоские и параболоцилиндрические солнечные паротурбинные установки, применяемые раздельно.

По состоянию на 2020г. самой мощной тепловой солнечной электростанцией (354 МВт) являлась Solar Energy Generating Systems, Калифорния (США) (рис. 1.) [7]. Проект, разработанный компанией Luz International, представляет собой систему из девяти

солнечных электростанций, расположенных в пустыне Мохава в Калифорнии. Из них пять имеют мощность 30 МВт каждая, две по 80 МВт и еще две 14 МВт. При создании электростанции было использовано 936384 параболоцилиндрических концентратора, которые расположены на площади 6,5 км^2. В 2018 г. мощность существующих солнечных нагревательных систем увеличилась на 21 %, достигнув уровня около 180 ГВт тепловой мощности.

В работе [5] выдвинута сформулированная в ЭНИН им. Г.М. Кржижановского концепция создания комбинированных фототермодинамических энергоустановок, эффективность которых более подробно рассмотрена в [5]. Схема комбинированной солнечной энергоустановки соответствует ее основной идее - сочетании в одной установке фотоэлектрического и термодинамического методов преобразования энергии. Это сочетание основано на применении паросилового цикла для утилизации тепла, отводимого от фотоэлектрической батареи.

Рис. 1. Модульные установки солнечной электростанции Solar Energy Generating Systems, Калифорния (США).

На станции имеется поле параболоцилиндрические зеркальные концентраторы, в фокусах которых расположены линейные приемники солнечного излучения – фотобатареи из одного или нескольких рядов фотоэлектрических элементов, избыточное тепло от которых отводится в паротурбинную энергоустановку. Электроэнергия от фотобатарей через инверторы поступает в систему выдачи мощности, куда подается также электроэнергия от генератора паротурбинной установки. Выбор такой конфигурации обоснован успешным опытом создания и эксплуатации солнечных термодинамических электростанций с параболоцилиндрическими концентраторами фирмы Луз и энергомодулей фирмы ОРМАТ на низкокипящих рабочих телах.

Еще одним важным преимуществом использования ИИ в образовании является персонализация обучения: ИИ может анализировать поведение и учебную ситуацию каждого студента, определять его сильные и слабые стороны и на основе этого создавать индивидуальные программы обучения, которые наилучшим образом соответствуют потребностям каждого студента. Это приводит к более эффективному обучению и повышению успеваемости.

ИИ также можно использовать для анализа данных и выявления тенденций в образовании. Например, он может определить, какие методы обучения наиболее эффективны, какие предметы наиболее сложны для студентов и какие программы обучения наиболее востребованы на рынке труда. Эта информация может быть использована для оптимизации программ обучения и повышения качества образования в целом.

Есть другие методы применение ИИ в образовании – это разработка интеллектуальных учителей и образовательных роботов: Репетиторы на базе ИИ могут работать с отдельными учениками, анализировать их успехи в учебе и создавать индивидуальные учебные материалы и задания. Образовательные роботы могут помочь в

2 Big Data- это структурированные или неструктурированные массивы данных большого объема. Min Chen, Shiwen Mao, Yin Zhang, Victor C.M. Leung. Big Data. Related Technologies, Challenges, and Future Prospects. — Spinger, 2014. — 100 p.

[3] Deep Learning-это тип машинного обучения, который с помощью искусственных нейронных сетей обеспечивает цифровым системам возможность обучаться и принимать решения на основе неструктурированных данных без меток. *Гудфеллоу Я., Бенджио И., Курвилль А.* Глубокое обучение = Deep Learning. — М.: ДМК Пресс, 2017. — 652 с

[4] Платформа Smart Sparrow — это адаптивная учебная платформа, которая предлагает курсы по химии, программированию и другим наукам. В процессе обучения используются стратегии доставки контента и индивидуальный заказ материалов (Хендерсон, Дж. «Умный воробей нацелен на обучение следующего поколения после получения первого раунда финансирования»)

обучении навыкам, требующим высокой степени точности и повторяемости, таким как медицина и инженерное дело.

Искусственный интеллект исходя из текущих промежуточных и других оценок также может быть использован для автоматического выставления оценок за курсы и тесты. Это может значительно сократить время, затрачиваемое преподавателями на проверку работ, и снизить вероятность ошибок. Кроме того, автоматическое выставление оценок может обеспечить студентов быстрой обратной связью, мотивируя их учиться дальше и добиваться лучших результатов. Одним из простых примеров можно назвать систему «HEMIS», которая была запущена в конце 2021года в вузах Узбекистана[5]. «HEMIS» это информационная система управления процессами высшего образования, которая позволит перевести в электронный формат административное, учебное, научное и финансовое направления. А также это информационная система электронного образования, которая предоставляет свои услуги для автоматизации основной деятельности высших учебных заведений. которая направлена на улучшение качества образования и повышение эффективности работы административного персонала, профессорско-преподавательского состава и студентов.

Искусственный интеллект также может быть использован для прогнозирования успеваемости студентов. Алгоритмы машинного обучения могут анализировать данные об успеваемости студентов и выявлять факторы, наиболее сильно влияющие на успеваемость. На основе этих данных можно разработать стратегии для повышения успеваемости, например, внеклассные занятия или индивидуальное репетиторство. ИИ также может помочь учителям адаптировать учебные материалы к потребностям отдельных учеников и обеспечить индивидуальный подход к обучению.

Однако, как и в других областях, существуют риски и опасения, связанные с использованием ИИ в образовании. Например, автоматизированная оценка работ учащихся не всегда может быть справедливой, а персонализированные подходы к обучению могут усугубить проблему сегрегации учащихся по различным критериям, таким как раса или статус.

Существуют также опасения по поводу конфиденциальности данных студентов, когда искусственный интеллект используется для анализа и хранения больших объемов персональных данных. Важно принять соответствующие меры безопасности и внимательно следить за защитой данных учащихся.

В целом, использование ИИ в образовании имеет потенциал для значительного повышения качества образования и результатов обучения. Однако, как и в других областях, следует учитывать риски и ограничения. Например, важно не забывать о важности межличностного и социального взаимодействия в обучении: Использование ИИ не должно заменять учителя и межличностное общение в процессе обучения, а скорее дополнять его и делать более эффективным.

С развитием технологий и искусственного интеллекта (ИИ), возникает все больше вопросов о том, как это может повлиять на нашу жизнь и на образовательную систему, в частности. Одним из наиболее интересных и сложных вопросов является возможность замещения учителей роботами и использование ИИ в качестве педагогов. В этой статье мы рассмотрим эту тему и проанализируем все ее аспекты.

Может ли робот стать педагогом?

Сначала рассмотрим возможность замещения учителей роботами. Роботы уже успешно применяются в различных сферах, и образование - не исключение. Использование роботов в качестве педагогов может привести к ряду преимуществ.

- ✓ Во-первых, роботы не устают и не теряют терпение. Это может быть особенно полезно для работы с детьми, которые могут быть непослушными и дефицитными внимания. Роботы могут повторять одно и то же объяснение несколько раз, не уставая и не теряя терпения, в то время как человек может устать и потерять концентрацию.

[5] Подробности: https://regnum.ru/news/society/3422747.html

- ✓ Во-вторых, роботы могут быть более точными и объективными, чем люди. Робот не будет предпочитать одного ученика другому, не будет иметь личных предубеждений и предпочтений, что может привести к более справедливой и объективной оценке учебных достижений.
- ✓ В-третьих, роботы могут иметь доступ к большому объему знаний и быстро анализировать данные. Они могут просмотреть большое количество материалов и выбрать те, которые наиболее соответствуют конкретному ученику, что может помочь в индивидуальном обучении.

Однако, несмотря на все эти преимущества, есть и некоторые ограничения. Робот не может заменить учителя полностью, потому что у него нет эмпатии и способности понимать эмоции и чувства учеников. Эти качества очень важны для эффективного обучения, так как они помогают учителю лучше понимать потребности и потенциал учеников.

Может ли ИИ заменить учителя в образовании?

С развитием искусственного интеллекта (ИИ) все больше людей задаются вопросом, может ли ИИ заменить учителя в образовании. Некоторые представители образовательного сообщества видят в этом возможность решения некоторых проблем, таких как нехватка квалифицированных преподавателей, ограниченность учебных ресурсов и т.д. Однако, другие опасаются, что использование ИИ может привести к потере гуманности и персонального подхода в образовании.

Существуют уже роботы-педагоги, которые используются в некоторых школах и вузах для обучения студентов и учащихся. Они обладают возможностью распознавания лиц, голосов и жестов, что позволяет им взаимодействовать с учениками и подстраиваться под их потребности.

Одним из примеров таких роботов является NAO[6], разработанный французской компанией Aldebaran Robotics[7]. Он может использоваться как средство обучения, так и в качестве социального робота для работы с детьми с нарушениями аутистического спектра. В Японии уже существуют роботы-учителя, которые занимаются обучением детей в детских садах и начальных классах.

NAO Robots, Производитель SoftBank Robotics (ранее Aldebaran Robotics), (Франция)2008, Предназначение- Исследования, образование и развлечения.

Различные версии робота были выпущены с 2008 года. Академическая версия Nao была разработана для исследований и обучения в университетах и исследовательских центрах; она была выпущена для учреждений в 2008 году и стала общедоступной в 2011 году. С тех пор было выпущено несколько обновлений платформы Nao, включая Nao Next Gen 2011 и Nao Evolution 2014.

Роботы Nao используются для исследований и обучения во многих академических учреждениях по всему миру; по состоянию на 2015 год более несколько тысячей устройств Nao используются в более чем 50 странах.

Роботы высотой по колено и двигаются как дети. Школа использует их для обучения акустике и игры в карты или игры на память и имитационные игры с детьми в возрасте от пяти до 10 лет.[8]

Однако, существуют также аргументы против использования ИИ в образовании. Некоторые ученые считают, что ИИ не может полностью заменить учителя в педагогическом

[6] NAO- Это автономный программируемый человекоподобный робот, разработанный компанией Aldebaran Robotics, штаб-квартира которой находится во Франции. Разработка робота началась с запуска Проекта NAO в 2004 году.

[7] Aldebaran Robotics -Французская компания, специализирующаяся на разработке гуманоидных роботов. Основные проекты: NAO - автономный программируемый человекоподобный робот (исследовательская платформа)

[8] Автор: Джудит Бернс- Репортер BBC News по образованию (*https://www.bbc.com/news/education-20252593*)

процессе. Это связано с тем, что ИИ не может заменить человеческий опыт, интуицию и эмоциональный интеллект, что является необходимым взаимодействием между учителем и учеником.

Еще одной проблемой является отсутствие адаптивности ИИ в обучении. Учителя, как правило, имеют возможность подстраиваться под индивидуальные потребности каждого ученика, используя различные методы обучения и материалы. ИИ, в свою очередь, работает по заранее заданной программе, не способной адаптироваться к конкретному ученику.

Несмотря на это, существуют и положительные стороны использования ИИ в образовании. Он может быть полезен как дополнение к учителю, облегчающий ему работу и помогающий студентам лучше усваивать материал. ИИ может предоставлять индивидуальный подход к каждому студенту, учитывая его потребности и уровень знаний. Он также может помочь студентам с особенностями развития, такими как нарушения слуха, зрения или внимания, обеспечивая им дополнительную поддержку и ресурсы.

Таким образом, можно сделать вывод, что ИИ не может полностью заменить учителя в образовании, но он может помочь учителям стать более эффективными, освободив их от некоторых рутинных задач. Использование ИИ в образовании должно быть рассмотрено как инструмент для улучшения обучения, а не как замена для учителей. Использование ИИ должно быть осуществлено с учетом уникальных потребностей каждого ученика и не должно приводить к неравенству в образовании.

В заключение следует отметить, что ИИ обладает огромным потенциалом для улучшения образования и повышения его эффективности. Его использование может привести к более персонализированному и эффективному обучению, повышению качества образования и доступности для всех учащихся. Однако для получения максимальных результатов от использования ИИ в образовании необходимо тщательно проанализировать его потенциал и ограничения, рассмотреть этические и правовые аспекты, а также сочетать его с межличностным общением и социальным взаимодействием в образовательном процессе.

Список литературы

[1]. Гудфеллоу Я., Бенджио И., Курвилль А. «Глубокое обучение»/«Deep Learning». — М.: ДМК Пресс, 2017. — 652 с.

[2]. Николенко С., Кадурин А., Архангельская Е. Глубокое обучение. — СПб.: Питер, 2018. — 480 с.

[3]. Аверкин А. Н., Гаазе-Рапопорт М. Г., Поспелов Д. А. Толковый словарь по искусственному интеллекту. — М.:Радио и связь, 1992. — 256

[4]. Peter Menzel and Faith D’Aluisio. Robosapiens. Cambridge: The MIT Press, 2000. Pg. 66

[5]. Henderson, J. "Smart Sparrow targets Next Generation Learning after securing first Round of Funding"

[6]. Al-Fahad, F., & Al-Fahad, A. (2019). Artificial intelligence applications in education: A review of the literature. Educational Technology & Society, 22(3), 74-84.

[7]. Aram, M., & Kwak, D. H. (2019). Artificial intelligence in education: Opportunities, challenges, and applications. Smart Learning Environments, 6(1), 1-16.

КИМЁ САНОАТДАГИ ИККИЛАМЧИ ГАЗГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ГИДРОДИНАМИК КУЧЛАРНИ НАЗАРИЙ АСОСЛАШ

Р.Ж. Тожиев, А.О. Хошимов

Фарғона политехника институти, a.khoshimov@ferpi.uz
(Қабул қилинди 2.05.2023 й.)

Мақолада кимё саноати корхоналаридан атроф муҳитга чиқаётган иккиламчи газларнинг физик ва кимёвий хоссаларини ўрганиш ва уларнинг тахлили асосида газларни утилизация қилиш муаммоларини ечиш масалалари ўрганилган. Мақолада кимё саноатдаги иккиламчи газга таъсир этувчи гидродинамик кучларни назарий асослаш ва қурилманинг самарадорлиги ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: *ташлама газлар, тозаланадиган газ, гидравлик қаршилик, сёмник, қовушқоқли, газ оқими.*

В статье исследуются вопросы изучения физико-химических свойств вторичных газов, выбрасываемых в окружающую среду предприятиями химической промышленности, и решения проблем утилизации газов на основе их налогооблагаемости. В статье разработано теоретическое обоснование гидродинамических сил, действующих на вторичный газ в химической промышленности, и эффективности устройства.

Ключевые слова: *отбрасывающие газы, очищающий газ, гидравлическое сопротивление, семник, коагулянт, газовый поток.*

The article explores the issues of studying the physical and chemical properties of secondary gases emitted into the environment from enterprises of the chemical industry and solving the problems of gas utilization on the basis of their taxability. The paper developed the theoretical justification of hydrodynamic forces acting on secondary gas in the chemical industry and the efficiency of the device.

Key words: *throwing gases, purifying gas, hydraulic resistance, syomnik, coagulant, gas flow.*

Қурилма гидравлик қаршилигининг тозалаш самарадорлиги таъсирини назарий асослашда қуйидаги параметрлар аниқланади. 1.1-расмда қурилманинг ҳисоблаш схемаси келтирилган.

-қурилманинг ишчи органларидаги махаллий қаршилик коэфициентлари;

-қурилмада йўқотиладиган умумий гидрвалик босим;

-қурилманинг тозалаш самарадорлиги;

-тадқиқот учун иккиламчи газ наъмуналарини танлаш ва уларни абсорбентли суюуқликка ютилишининг лаборатория анализларини ўтказиш.

Иккиламчи ташлама газларни нейтралловчи қурилмаларда газ тезлигига қурилманинг ишчи органларида таъсир қиладиган юкламаларни тадқиқ этиш ва хисоблаш тенгламаларини тўғри тузиш муҳим ахамиятга эга. Бу ҳолат қурилманинг гидравлик қаршилиги, ишчи органлардаги қаршлик коэффиценти ва иш унумдорлигининг мақбул параметрларини белгиловчи асосий омил ҳисобланади. Қурилманинг ишчи органларида гидравлик қаршиликнинг ортиши тозалаш самарадорлигига яхши таъсир кўрсатсада, иш унумдорлигининг пасайишига сабаб бўлади. Бу эс ўз навбатида тозалаш учун сарфланадиган энергия истеъмолини кўпайтиради. Тадқиқ этилаётган скруббер иккиламчи газларни йўналтирувчи қувир (8) ва оқим энергияси таъсирида суюқлик муҳитида газ оқимига айланма бериб тарқатувчи сёмникдан (2) ташкил топган бўлиб, газ оқими қувирдаги харакати давомида, сёмникнинг йўналтирувчи тешигидан ўтганда ҳамда суюқлик муҳитидаги харакати давомида гидравлик қаршиликга учрайди.



1.1-расм. Скрубберни ҳисоблаш схемаси.

Қурилмада тозаланадиган газга таъсир қилувчи умумий гидрвалик қаршиликларни [1-5 ва бошқалар] адабиётларда берилган ҳисоблаш

тенгламаларидан ва қурилмани ҳисоблаш схемасининг А-А кесимидан фойдаланиб қуйидагича ёзиш мумкин (1.1-расм).

Қурилманинг умумий гидравлик қаршилигини аниқловчи тенгламани қуйидагича тузиш мумкин бўлади,Па;

$$\Delta P_{ум} = P_{йк} + P_{тс} + P_{с} \text{,Па} \tag{1.1}$$

бунда $P_{йк}$ - иккиламчи газларни йўналтирувчи қувурдаги ҳаракати давомида йўқотилган босими бўлиб, у Дарси-Вейсбаха тенгламаси ёрдамида аниқланади [40;41]. У ҳолда тенгламани қуйидагича ёзиш мумкин бўлади, Па;

$$P_{йк} = \xi_{йк} \frac{\rho_{ар} \cdot \upsilon^2{}_{йк}}{2} \text{,Па} \tag{1.2}$$

бунда $\upsilon_{йк}$- иккиламчи газнинг йўналтирувчи қувурдаги тезлиги, м/с; $\xi_{йк}$-йўналтирувчи қувирнинг маҳаллий қаршилик коэффициенти бўлиб уни қуйидаги тенглама бўйича аниқланади;

$$\xi_{йк} = \lambda \frac{l}{d_{э}} \tag{1.3}$$

бунда l-қувур узунлиги, м; $d_{э}$ -қувурнинг эквивалент диаметри, м; λ-Дарси коэффициенти бўлиб унинг ўзгариш қонунини эмперик тенгламалар билан ифодалашда жуда кўп омилларга боғлиқлиги аниқланган. Тажриба қурилмасининг тузилишидан келиб чиқиб тенгламадаги Дарси коэффицентини Блазиус қонуни бўйича аниқлаш киритилди [4]. У ҳолда (3) тенглама қуйидаги кўринишга келади;

$$\xi_{йк} = \frac{0{,}3164l}{d_{э}\sqrt[4]{\mathrm{Re}}} \tag{1.4}$$

(1.2) тенгламага (1.4) тенгламани қўйсанг, у ҳолда (1.2) тенглама қуйидаги кўринишга келади, Па.

$$P_{йк} = \frac{0{,}3164l\rho_{ар}\upsilon^2{}_{йк}}{2d_{э}\sqrt[4]{\mathrm{Re}}} \text{,Па} \tag{1.5}$$

$P_{тс}$- газ оқимини тарқатувчи сёмникнинг йўналтирувчи тешигидан ўтгандаги йўқотилган босими бўлиб у қуйидаги тенглама орқали аниқланади, Па;

$$P_{тс} = \xi_{тс} \frac{\rho_{ар} \cdot \upsilon^2{}_{тс}}{2} \text{,Па} \tag{1.6}$$

бунда $\upsilon_{тс}$- газ оқимининг сёмник тешигидан оқиб чиқишдаги тезлиги, м/с; $\xi_{тс}$-сёмник тешигининг қаршилик коэффициенти бўлиб, уни Б.А.Алиматов ва И.Т.Каримовларнинг қувур тешиги қаршилик коэффициентининг қувур тешиги қалинлигининг тешик диаметрига нисбатига боғлиқ ҳолда ўзгариши бўйича ўтказган тажриба усулидан фойдаланиб аниқлаймиз [5]. У ҳолда ҳисоблаш тенгламасини қуйидагича ёзиш мумкин бўлади;

$$\xi_{тс} = \frac{\delta}{d_{т}} \tag{1.7}$$

бунда δ-сёмник тешигининг қалинлиги, мм; $d_{т}$-сёмник тешигининг диаметри,мм

(1.6) тенгламага (1.7) тенгламани қўйсанг, у ҳолда (1.6) тенглама қуйидаги кўринишга келади, Па.

$$P_{тс} = \frac{\delta \cdot \rho_{ар} \cdot \upsilon^2{}_{тс}}{2d_{т}} \text{,Па} \tag{1.8}$$

$P_{тс}$- газ оқимининг суюқлик муҳитидан ўтгандаги йўқотилган босими бўлиб у қуйидаги тенглама орқали аниқланади, Па;

$$P_c = \xi_c \frac{\rho_{ap} \cdot \upsilon^2{}_c}{2}, \text{Па} \quad (1.9)$$

бунда υ_c- газ оқимининг суюқлик муҳитидан ўтгандаги йўқотилган тезлиги, м/с; ξ_c-ишчи суюқликнинг газ оқимига кўрсатадиган қаршилик коэффициенти бўлиб, уни фақатгина тажриба йўли билан аниқланади.

ρ_{ap}-иккиламчи газ ва ҳаво аралашмаси зичлиги бўлиб, уни қуйидаги тенглама орқали аниқланади. кг/м^3;

$$\rho_{ap} = \rho_x + (\rho_г \cdot \gamma), \quad (1.10)$$

бунда $\rho_г$ – иккиламчи газ зичлиги, кг/м^3; ρ_x – ҳаво зичлиги, кг/м^3; γ – хаво таркибидаги иккиламчи газ миқдори, %.

(1.5) тенгламага (1.8) ва (1.9) тенгламаларни (1.1) тенгламага қўйсак қуйидаги кўринишга келади.

$$\Delta P_{ум} = \rho_{ap}\left(\frac{0{,}3164 l \upsilon^2{}_{йк}}{2 d_э \sqrt[4]{\mathrm{Re}}} + \frac{\delta \upsilon^2{}_{тс}}{2 d_т} + \frac{\xi_c \upsilon^2{}_c}{2}\right), \text{Па} \quad (1.11)$$

Ҳосил қилинган (1.11) тенглама орқали қурилмадаги умумий гидравлик қаршиликни аниқлаш имконига эга бўламиз.

(1.9) тенгламадаги қаршилик коэффициентини ξ_c аниқлаш мурракаб характерга эга ва турли четга чиқишларни талаб этади. Шу сабабли қаршилик коэффициентини сёмникнинг газ оқими кучи таъсирида очиқ циклдаги ва суюқлик ичидаги айланишлар сонининг нисбати орқали аниқлаш тенгламасини киритамиз.

$$\xi_c = k \frac{n_{хб}}{n_{сб}}, \quad (1.22)$$

бунда $n_{хб}$ – сёмникнинг табиий ҳаво босими таъсиридаги айланишлар сони, мартта/минут; $n_{сб}$ – сёмникнинг сув босими таъсиридаги айланишлар сони, мартта/минут; *k*-тўғриллаш коэффициенти бўлиб, уни тажриба йўли билан аниқланади.

Ушбу тенгламадан кўринадики сув босими ёки қовушқоқлигининг ортиши қаршилик коэффицентининг кўпайишига сабаб бўлади.

Юқорида келтирилган омилларга асосланиб (1.11) тенгламага ўзгартириш киритиб, қурилманинг умумий гидравлик қаршилигини қуйидагича аниқлаш мумкин бўлади, Па.

$$\Delta P_{ум} = \rho_{ap}\left(\frac{0{,}3164 l \upsilon^2{}_{йк}}{2 d_э \sqrt[4]{\mathrm{Re}}} + \frac{\delta \upsilon^2{}_{тс}}{2 d_т} + k \frac{n_{хб} \upsilon^2{}_c}{2 n_{сб}}\right) \quad (1.13)$$

Адабиётлар

[1]. Sadullaev, X., Muydinov, A., Xoshimov, A., & Mamarizaev, I. (2021). ECOLOGICAL ENVIRONMENT AND ITS IMPROVEMENTS IN THE FERGANA VALLEY. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 1(5), 100-106.

[2]. Ergashev, N. A., Xoshimov, A. O. O. G. L., & Muydinov, A. A. O. (2022). KONTAKT ELEMENTI UYURMALI OQIM HOSIL QILUVCHI REJIMDA ISHLOVCHI HO ‘L USULDA CHANG USHLOVCHI APPARAT GIDRAVLIK QARSHILIKNI TAJRIBAVIY ANIQLASH. Scientific progress, 3(6), 94-101.

[3]. Axmadjonovich, E. N., Obidjon o‘g‘li, X. A., & Abduqayum o'g'li, A. M. (2022). INDUSTRIAL APPLICATION OF DUST EQUIPMENT IN THE INDUSTRIAL WET METHOD WITH CONTACT ELEMENTS AND EXPERIMENTAL DETERMINATION OF ITS EFFICIENCY. American Journal of Applied Science and Technology, 2(06), 47-54.

[4]. Алиматов, Б. А., Садуллаев, Х. М., & Хошимов, А. О. У. (2021). СРАВНЕНИЕ ЗАТРАТ ЭНЕРГИИ ПРИ ПНЕВМАТИЧЕСКОМ И МЕХАНИЧЕСКОМ ПЕРЕМЕШИВАНИИ НЕСМЕШИВАЮЩИХСЯ ЖИДКОСТЕЙ. Universum: технические науки, (5-5 (86)), 53-56.

[5]. Xoshimov, A. O., & Isomidinov, A. S. (2020). Study of hydraulic resistance and cleaning efficiency of dust gas scrubber. In International online scientific-practical conference on" Innovative ideas, developments in practice: problems and solutions": Andijan.-2020.-51 p.

[6]. Алиматов, Б. А., Садуллаев, Х. М., & Хошимов, А. О. У. (2021). Кўп поғонали барботаж экстракторида капролактамни икки босқичда экстракциялаш. Фарғона политехника институти илмий–техника журнали.(6), 40-44.

TURLI TRIKOTAJ MAXSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR TADQIQI

B.B. Nizamova

Farg‘ona politexnika instituti, E-mail: barno.nizamova.89@bk.ru,
(Qabul qilindi 13.04.2023 y.)

Mamlakatimizda yildan-yilga rivojlanib kelayotgan yengil sanoat yo‘nalishi keng va dolzarb muammoli yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. Ush bu maqolada yengil sanoatda aynan trikotaj ishlab chiqarish bo‘yicha xalq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va texnologik jarayonlarini yangi na’munalari to‘g‘risida keng ishlar olib borilayotganligi to‘g‘risida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Trikotaj, buyum, maxsulot, to‘qima, mato, tarkib, pardozlash, texnik ko‘rik, asos, bo‘yalgan, tuzilish, bo‘linish, dag‘al, halqa.*

Направление легкой промышленности, которое из года в год развивается в нашей стране, является одним из обширных и актуальных проблемных направлений. В данной статье поясняется, что ведется большая работа по производству важного в народном хозяйстве трикотажа, а в легкой промышленности осуществляются новые образцы технологических процессов.

Ключевые слова: *Трикотаж, изделие, изделие, ткань, ткань, наполнение, отделка, технический осмотр, основа, крашение, структура, членение, грубая ткань, кольцо.*

The direction of light industry, which is developing year by year in our country, is one of the broad and urgent problem areas. In this article, it is explained that extensive work is being carried out on the production of knitwear, which is important in the national economy, and new samples of technological processes are being carried out in the light industry.

Key words: *Knitwear, item, product, fabric, fabric, content, finish, technical inspection, base, glove, dyed, structure, division, coarse, ring.*

KIRISH

Respublikada keng turdagi sifatli to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliylashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan davr mobaynida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirildi. Respublika to‘qimachilik sanoatining jadal rivojlanishini ta’minlash, yuqori sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yirik xorijiy bozorlarga yanada ilgari surish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalari izchil amalga oshirilmoqda.

Trikotaj sanoati — to‘qimachilik sanoati tarmogi. Trikotaj sanoati korxonalarida trikotaj polotnolar, jumladan, texnik polotnolar, paypok, buyumlari, ichki va ustki trikotaj kiyimlar, qo‘lqoplar, bosh kiyimlar, sharflar hamda sanoat va tibbiyotda qo‘llaniladigan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Trikotaj buyumlari ishlab chiqarish.da paxta, jun va kimyoviy tolalardan tayyorlangan iplardan keng ko‘lamda foydalaniladi. Trikotaj sanoati 18-asr oxiri va 19-asr boshlarida Buyuk Britaniya va Fransiyada, 19-asr oxirlarida Rossiyada vujudga keldi.[3]

Trikotajdan tayyorlangan kiyimlar salmog‘i muntazam ortib bormoqda. Bu trikotaj buyumlarining xizmat vazifasining yuqoriligi va iqtisodiy tejamligi bilan bog‘liq. Kimyoviy tolalar, ayniqsa, sintetik iplar ishlab chiqarish.ning muntazam o‘sib borishi, trikotaj ishlab chiqarish. texnikasinig tez rivojlanishi Trikotaj sanoatining taraqkiyotiga katta yordam berdi.

Trikotaj ishlab chiqarish. texnikasi va texnologiyasi taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari polotno va paypoq ishlab chiqarish. uchun avtomatlashtirilgan uzluksiz liniyalar yaratishdan,

uskunalarni yanada unumliroklari bilan almashtirish orqali ishlab chiqarish. jarayonlarini jadallashtirishdan, organik eritgichlar qo‘llab polotnolarga uzluksiz ishlov berish; turli xildagi buyumlar ishlab chiqarish. bo‘yicha korxonalarni ixtisoslashtirib borishdan iboratdir.[4]

Trikotaj bu nima — bir yoki bir necha iplardan halqalar hosil qilib, ularni o‘zaro biriktirish (o‘rish) natijasida olinadigan mato yoki buyum. Trikotaj iplarning tarkibiga, ishlatilishi, pardozlash usuli va tuzilishiga qarab turlarga bo‘linadi. Tarkibiga qarab, paxta ipi, jun, ipak va kimyoviy tola aralashgan iplardan to‘qilgan xillarga bo‘linadi. Ishlatilishiga qarab, Trikotaj buyumlar yoki matolarga bo‘linadi. Trikotaj buyumlariga kostyum, jemper, kofta, palto, qo‘lqop, ko‘ylak, ichki kiyim, paypoq va boshqa matolariga sun’iy mo‘yna, sun’iy charm kiradi; bular texnik maqsadlarda va turli xil kiyimlar tayyorlashda ishlatiladi. Pardozlash usuliga qarab, dag‘al, oqartirilgan, tekis va bo‘yalgan xillarga bo‘linadi [1].

Trikotajning asosiy fizik mexanik xossalari uning tuzilishiga, halqalarning shakli va o‘lchamiga, ipning yo‘g‘on va ingichkaligiga, qalinligi va pishiqligiga bog‘liq. Tuzilishi (strukturasi) ga qarab, ko‘ndalang to‘qilgan, tanda o‘rilishli, bir qavatli va ikki qavatli bo‘ladi. Trikotaj yumshoqligi, elastikligi, g`ijimlanmasligi, yengilligi, oson yuvilishi bilan boshqa to‘qima matolardan ustun turadi. Trikotaj o‘rilish boshqa oddiy gazlamalar o‘rilishidan farq qiladi. Bir yoki bir necha uzluksiz ip xalqalarini bir-biriga birlashtirib hosil qilinadi. Trikotaj halqalarining qanday hosil bo‘lishiga qarab, ko‘ndalang to‘qilgan (kulir) va bo‘ylama (tandadan to‘qilgan) trikotaj farqlanadi. [2]

Ko‘ndalang to‘qilgan (kulir) trikotaj matodagi hamma halqalar qatori bitta ipning birin-ketin egilib bukilishidan hosil bo‘ladi. Bo‘ylama (tandadan to‘qilgan) trikotajda esa har bir xalqa alohida ipdan hosil bo‘ladi. Trikotaj o‘rilish bir qavatli va ikki qavatli bo‘lishi mumkin. Bir qavatli trikotajning o‘ng tomoni bir tomonda, teskari tomoni boshqa tomonda joylashadi. Ikki qavatli trikotajda esa ikkala o‘ng tomoni yoki ikkala teskari tomoni bir yoqda joylashgan bo‘ladi. Ikki kavatli trikotaj qalinroq, pishiqroq va og‘irroq trikotaj o‘rilish asosiy, xosilaviy va gulli o‘rilishga bo‘linadi. Asosiy o‘rilishlar guruhiga bir xil halqa beradigan oddiy o‘rilishlar kiradi. Bunday o‘rilishlarga kulir to‘qimasi, triko zanjir, atlas misol bo‘la oladi. Hosilaviy o‘rilish asosiy o‘rilishni o‘zgartirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Bunday o‘rilishlarga hosilaviy kulir to‘qimasi, movut va boshqa misol bo‘ladi. Gulli o‘rilishlar guruhiga asosiy o‘rilishlar bazasida gul shakli hosil bo‘ladigan o‘rilishlar kiradi; bularni tayyorlash uchun mashinaga qo‘shimcha mexanizm kiritiladi hamda hosil qilish jarayonini o‘zgartirish yo‘li bilan mato sirtida gul hosil qilinadi. Bunday o‘rilishlarga pressli, arqoqli, jakkard, futer va boshqa gulli o‘rilgan trikotaj misol bo‘ladi. [1]

Trikotaj mashinasida to‘qiladi. U dumaloq va tekis trikotaj mashinalariga bo‘linadi. Trikotaj mashinasining asosiy detali xalka hosil qilish mexanizmining ignasi hisoblanadi. Ignaning tilli, ilgakli, o‘yikli va boshqa turlari bor. Ignalar po‘lat sim yoki lentadan 25–100 mm uzunlikda, 0,3—1,0 mm yo‘g‘onlikda ishlab chiqariladi. Ignaning yo‘g‘on ingichkaligi trikotaj halqalarining o‘lchamiga qarab tanlanadi: halqalar qancha mayda bo‘lsa, shunchalik ingichka igna olinadi. Trikotaj mashinalari, asosan, trikotaj sanoati uchun ishlab chikariladi, lekin maishiy qo‘l mashinalari va apparatlari ham bor.

Trikotaj sanoati O‘zbekistonda 30—40-yillarda shakllandi. 1939-yilda O‘rta Osiyoda eng yirik hisoblangan Qo‘qon paypoq fabrikasi (1943-yildan kombinat) ishga tushirildi. 1945-yilda Toshkent tikuvchilik fabrikasi negizida trikotaj fabrikasi tashkil etildi. Unda 1960-yilda 4572 ming dona ichki va 1597 ming dona ustki trikotaj kiyimlari ishlab chiqarildi. Bundan tashqari, respublikada Toshkent ustki trikotaj kiyimlar fabrikasi (1960), Samarqand (1950), Buxoro (1961), Andijon (1968) trikotaj fabrikalari qurilib, mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Tarmoqdagi eng yirik korxona — Toshkentda 1941-yilda ishga tushirilgan "Malika" trikotaj ishlab chiqarish. birlashmasida erkaklar, ayollar va bolalarning 200 xildan ortiq ustki va ichki trikotaj kiyimlari ishlab chiqarildi. Ta’kidlash joizki, mahsulotlarni sinovdan o‘tkazish bo‘yicha laboratoriyalarning past samaradorligi, ularning ko‘pchiligida xalqaro akkreditatsiyaning mavjud emasligi mahalliy to‘qimachilik sanoati ishlab chiqaruvchilarining tashqi bozorlarga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun to‘qimachilik sanoati sohasida standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish, shu jumladan xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha

kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish nazarda tutildi va oxirgi usul bitta usulda to'qilgan bu usulda mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasiga mos keladigan nomga ega. Mahsulot butun trikotajdan yasalgan, agar alohida qismlar bo'lsa, ular kontur bo'ylab to'qilgan va zanjirli tikuv bilan tikilgan. So'nggi ikki usul, ayniqsa, eksklyuziv narsalar va buyurtma beradigan narsalar ishlab chiqarishda mashhurdir. Uskunalar sinfiga qarab trikotaj mahsulotlarini guruhli tasnifi mavjud. Uskunalar sinfi trikotaj mashinasining 1 dyuymiga to'g'ri keladigan ignalar soniga qarab belgilanadi. 4-guruhga (16-24-sinflar) zig'ir trikotaj kiyimlar, 3-guruhga (10-14-sinflar) kozok, shim va yubka, 2-guruhga (5-8-sinflar) paltolar, pidjaklar va yeleklar va 1-guruhga (2-guruh) kiradi , 5 - 3-sinflar) qo'lda to'qish va shakldagi mahsulotlarni o'z ichiga olishi kerak. Ko'rib turganingizdek, sinfning o'sishi bilan mahsulotning zichligi ham o'zgaradi. Trikotaj buyumlar ishlab chiqarish quyidagi harakatlarni ketma-ket bajarishdan iborat: ipni oldindan tayyorlash; to'qish, yuvish, quritish, bug'lash, kuponlarni kesish; yig'ish va mahsulotni oldindan dazmollash; qo'lda ishlov berish va mahsulotni dazmollash; mahsulotning sifatini tekshirish. Trikotaj buyumlarini ishlab chiqarishning har bir bosqichini sifatli amalga oshirish sizga sifatli narsalarni yaratishga imkon beradi. Taqdim etilgan bosqichlardan kamida bittasini to'g'ri bajarmaslik yoki o'tkazib yubormaslik mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa aşınma muddatini qisqartiradi. Ammo narsalarning sifati juda tez - birinchi yuvishdan keyin aniqlanadi. Qanday narsalar bo'lishidan qat'i nazar, siz ularni erta cho'zish va granulalar paydo bo'lishidan himoya qilish uchun ularga to'g'ri parvarish qilishni tashkil qilishingiz kerak. Yün iplarini o'z ichiga olgan trikotaj mahsulotlarini faqat qo'l bilan yuvish kerak. Bunday mahsulotlarni ehtiyotkorlik bilan siqish, ishqalanish va cho'zmaslik kerak, toza suvda bir necha marta sovunli suvni siqish etarli. Boshqa barcha trikotaj buyumlar mashinada yuvilishi mumkin, ammo nozik yuvishning to'g'ri rejimida, tejamkorlikni o'chirib, haroratni 40 darajaga o'rnatadi. Jihozlarni quritish ham nozik tarzda bajarilishi kerak: quruq, gorizontal yuzaga, xona haroratida soyada. Aslida, trikotaj buyumlar dazmollashni talab qilmaydi, uni 100 darajaga qadar haroratlarda noto'g'ri tomondan ehtiyotkorlik bilan bug'lash kerak. Ammo shuni yodda tutish kerakki, naqshli buyumlarni kamroq dazmollash, ular uzoq vaqt xizmat qiladi. Bundan tashqari, trikotaj buyumlarni ilmoqlarga saqlamang, chunki ular cho'zilib, biroz boshqacha shaklga o'tishi mumkin. Asarda: 25 sahifa, 3 jadval, 1 ta sxema mavjud. Kalit so'zlar: texnologik jarayon, ip, mato, to'qish, kesish, qism, tikish, mahsulot, sifat. Ishning maqsadi trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan asosiy jarayonlarni o'rganishdir. Trikotaj buyumlarni ishlab chiqarish texnologiyasini o'rgangan va tavsiflagan.

XULOSA

Bugungi kunda respublikada 7 mingga yaqin korxona faoliyat olib borayotgan yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo‘lgan to‘qimachilik tarmog‘i shakllantirildi. 1,4 million tonna hajmdagi paxta tolasini ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi, shundan 60 foizga yaqinidan mahalliy to‘qimachilik korxonalarining ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanilmoqda.

Eng avvalo, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini yo‘lga qo‘yish, tarmoqni boshqarishni tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish quvvatlarining taqsimlanishi, kadrlar malakasining yuqori emasligi bilan bog‘liq tizimli muammolarning mavjudligi paxta xom ashyosini yetishtirishning past rentabelligiga va uni qayta ishlashga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilishning yetarli darajada emasligiga olib kelmoqda. Turli to‘qimachilik mahsulotlari va buyumlarida ip qanday maqsadda ishlatilishi va foydalanishiga qarab o‘ziga xos tuzilish va sifatlarga ega bo‘lishi lozim. Yigirilgan ipning tuzilishi tushunchasini xarakterlovchi ko‘rsatkichlarni tolalarni ip uzunligi bo‘yicha joylashishi, tolalar soni va ularni ip ko‘ndalang kesimida joylashuvi, tolalarni soni va sifati bo‘yicha taqsimlanish qonuniyati (notekisligi)ga ajratiladi. Ularda jihozlar soni va ularning ishlab chiqarish firmalarining turlari ko‘p va ularning shunga mos ravishda texnik-texnologik imkoniyatlari ham turlicha.Ip yigirish korxonalari uchun texnologik jihozlar ishlab chiqaruvchi firmalar ko‘p va ularning ixtisoslashtirilishi turlicha bo‘lib, aynan biron turdagi ip yigirish uchun texnologik zanjirlarni tuzish murakkab masalaga aylanmoqda.

Adabiyotlar

[1]. Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis of the Range Of Modern Women's Coats. The American Journal of Engineering and Technology, 3(9), 18-23.

[2]. Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).
[3]. Mamatqulova, S. R., Nurmatov, D. X. O., Ergashev, M. I. O., & Moydinov, N. X. O. G. L. (2020). The influence of the qualification of repair workers on the efficiency of technical operation of automobiles. Science and Education, 1(9).
[4]. Raxmatovna.M.S.(2022).Research on the development of norms of time spend on the technological process of sewing and knitting production; basic raw materials, their composition and properties.Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3(03), 28-32. ISSN:2776-0987, Volume3, Issue5, May, 2022.7
[5]. Raxmatovna.M.S.(2021). The description of perspective fashion trends in men's clothing. Innovative Technological: Methodical Research Journal,2(10),15-20.
[6]. Ismoilova, D. S., & Mamatqulova, S. R. (2021). Improving the system of electrical equipment of cars on the basis of adaptive power converters. Science and Education, 2(2), 110-114.

KONTAKT ELEMENTI UYURMALI OQIM REJIMDA ISHLOVCHI APPARATGA BERILAYOTGAN GAZ SARFINI TAJRIBAVIY TAJRIBAVIY TADQIQ QILISH

N.A. Ergashev, A.A. Mo‘ydinov

Farg‘ona politexnika instituti e-mail: nasimbek1976@gmail.com
(Qabul qilindi 2.05.2023 y.)

Maqolada changli gazlarni kontakt elementi uyurmali oqim rejimda ishlovchi apparatga berilayotgan gaz sarfini tajribaviy aniqlash keltirilgan. Berilayotgan gaz sarfi orqali apparatning qarshilik koefitsentlarini o‘zgarishi tajriba tadqiqotlar natijasida aniqlandi.
Tayanch so‘zlar: *ho‘l usul,quruq usul, uyurmali oqim, suyuqlik va gaz sarfi, kontakt element, gaz zichligi, qiyalik burchagi, gaz oqimi.*
В статье представлено экспериментальное определение расхода газа, подаваемого на устройство, работающее в проточном режиме с контактным элементом запыленных газов. В результате экспериментальных исследований определено изменение коэффициентов сопротивления прибора за счет заданного расхода газа.
Ключевые слова: *мокрый метод, сухой метод, сосредоточенное течение, расход жидкости и газа, контактный элемент, плотность газа, угол наклона, расход газа.*
The article presents an experimental determination of the gas consumption supplied to the device operating in the flow mode with the contact element of dusty gases. The change of the resistance coefficients of the device due to the given gas consumption was determined as a result of experimental research.
Key words: *wet method, dry method, lumped flow, liquid and gas consumption, contact element, gas density, slope angle, gas flow.*

Hozirga kunda ishlab chiqarish sanoati rivojlangani sari atrof muhitga zaxarli gaz va changlar bilan ifloslantirish ham ortib bormoqda. Shuning uchun atrof muxitni muhofaza qilish va sanoat muammolarning yechimini topish, insoniyatning yer kurrasida yana bir necha ming yil yashashi va toza havodan nafas olishini ta’minlashning yagona yo‘lidir. Sanoat korxonalaridan chiqayotgan changli va zaxarli gazlarning bir necha turlari mavjud bo‘lib, achinarlisi ularning orasida toksik xususiyatga ega bo‘lgan zaxrli moddalarning borligidir. Hozirgi kunda korxonalarda changli va zaxarli gazlarni tozalash maqsadida turli tuzilishga ega bo‘lgan apparatlardan foydalaniladi. Chiqayotgan changli va zaxarli gazlarni tozalashning samarali usullaridan biri bu xo‘l usulda tozalash bo‘lib, bunday tipda ishlovchi apparatlarning bir qancha konstruksiyalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Qo‘llanilayotgan apparatlarda changli gazlarni namlash uchun turli xil kontakt elementlaridan foydalaniladi. Biroq kontakt elementning sarfi, gidrodinamik qarshiligi, hosil bo‘lgan shlamdan changni ajratib olish samarasining pastligi apparatdan optimal ravishda foydalanish imkonini bermaydi. Bunday tipdagi apparatlarning foydali ish koeffitsenti 70-90% ni tashkil qiladi holos. Ho‘l usulda changlarni tozalashda 100% natijaga erishish uchun suv va changni bir-biri bilan o‘zaro aloqasini ta’minlash va apparat gidrodinamikasining optimal variantlarini tanlash maqsadga muvofiqdir [1]. Bu muammolarni hal qilish maqsadida biz tomonimizdan loyihalangan va yaratilgan ho‘l usulda changli va zaxarli gazlarni tozalovchi

apparatda suyuqlik va gaz sarfi orqali apparatdagi qarshilik koeffitsentini aniqlash uchun tajriba tadqiqotlari olib borildi [2,3] .

Apparatning ishchi qismiga changli gazni berish maqsadida Ventliyator-VS-14-07 markazdan qochma tipdagi ventilator; ish unumdorligi Q_{max}=400 m^3/soat; elektromotor quvvati N_{dv}=1.5 kVt; aylanishlar soni n=1200 ayl/min; Pito Prandl naychasi 100 mm o‘lchamli; Gosreestr №50123-12 bo‘yicha; Gaz tezligini aniqlovchi D=100 mm, L=1200 mm bo‘lgan metall trubadan iborat. Trubada statik va dinamik kuchlarni aniqlovchi 2 ta ichki diametri 7 mm li Prandl naychalari mos ravishda tajriba modeli sifatida tanlandi.



1-rasm.Apparatga berilayotgan gaz sarfini solishtirish grafigi.

Apparatga berilayotgan gaz sarflarini o‘zgarishiga bog‘liq holda gaz tezliklari va kontakt elementlarning (zavixritel) burovchi burchaklarini o‘zgarishiga bog‘liq holda qarshilik koeffitsentlari aniqlandi. Yaratilgan apparatda tajribalar quyidagi tartibda olib borildi.

Gaz tezligini aniqlashda ventelyatorning so‘ruvchi potrubkasiga 0^0, 30^0, 45^0, 60^0, 90^0 li burchak hosil qiluvchi sheber o‘rnatildi. Buning asosiy sababi gazning har-hil tezligida apparatning qarshilik koeffitsentlarini aniqlash va shu orqali eksperemental tadqiqotlarni o‘tkazish. Har bir o‘tkazilgan tajribalar besh marotabadan olib borildi. Aniqlangan kattaliklarning o‘rta arifmetik qiymati tanlandi. (Havoning kinematik qovushqoqligi $1{,}51\cdot10^{-5}$ m^2/s ga teng deb qabul qilindi). Gaz sarfini tajribaviy yo‘l bilan aniqlashda har bir o‘tkaziladigan tajribalar bir necha bor takrorlangan holda olib borildi va har bir nuqtaning kvadrat o‘lchamlari hamda hosil bo‘lgan hatoliklari aniqlandi. Apparatga kontakt element (zavixritel) o‘rnatilmagan holatda changli gazni ventelyatordagi 0^0, 30^0, 45^0, 60^0, 90^0 li burchak hosil qiluvchi sheber orqali berilganda gaz sarfi Q=248,7÷400 m^3/soatgacha o‘zgarganligi aniqlandi.

Shuningdek apparatga 30^0 kontakt element (zavixritel) o‘rnatilib changli gazni ventelyatordagi 0^0, 30^0, 45^0, 60^0, 90^0 li burchak hosil qiluvchi sheber orqali berilganda gaz sarfi Q=124.3÷330.6 m^3/soatgacha o‘zgardi. Apparatga 45^0 kontakt element (zavixritel) o‘rnatilib changli gazni ventelyatordagi 0^0, 30^0, 45^0, 60^0, 90^0 li burchak hosil qiluvchi sheber orqali berilganda gaz sarfi Q=152,6÷353,2 m^3/soatgacha o‘zgardi. Apparatga 60^0 kontakt element (zavixritel) o‘rnatilib changli gazni ventelyatordagi 0^0, 30^0, 45^0, 60^0, 90^0 li burchak hosil qiluvchi sheber orqali berilganda gaz sarfi Q=175.2÷ 395.6m^3/soatgacha o‘zgardi.



2-rasm. Apparatga o‘rnatilgan kontakt elementlarning parrraklarini qiyalik burchagini o‘zgarishiga bog‘liq holda qarshilik koeffitsentini o‘zgarish grafigi.

Tajriba tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki har bir ko‘rsatkichga gaz sarf o‘rtacha o‘zgarishi 44.5 m^3/soat qadam bilan ortib borganligi aniqlandi. Tajribaviy tadqiqotlar natijasida apparatga o‘rnatilgan 30^0, 45^0, 60^0 kontakt elementlar (zavixritel) qiyalik o‘lchamlariga bog‘liq

holda gaz sarfi o‘zgarishi aniqlandi va olingan natijalar asosida bog‘liqlik grafigi qurildi (1-rasm).

Olib borilgan tajribaviy tadqiqotlar natijasida apparatga o‘rnatilgan 30^0, 45^0, 60^0 kontakt elementlar (zavixritel) qiyalik o‘lchamlariga bog‘liq holda gaz sarfi va qarshilik koefitsentlarini o‘zgarishi aniqlandi va olingan natijalar asosida bog‘liqlik grafigi qurildi (2-rasm) [4].

$$\xi_1 = \frac{0.400}{0.330} = 1.25\,; \quad \xi_2 = \frac{0.400}{0.353} = 1.1\,; \quad \xi_3 = \frac{0.400}{0.395} = 1$$

Olingan tajribaviy natijalar shuni ko‘rsatadiki, apparatga o‘rnatilgan 30^0 45^0 60^0 li kontakt elementlar (zavixritel) bo‘lgan holatda gaz sarfi qancha katta bo‘lsa, suyuqlik plyonkasi uzunligi yuqori bo‘ladi va changni tozalash samaradorligi ortadi. Bu holatda burchak hosil qiluvchi sheber, kontakt element (zavixritel) orqali va qarshilik koeffitsentining o‘zaro bog‘liqligidan foydalangan holda, apparatning gabarit o‘lchami, gaz tezligi va suyuqlik plyonkasidan kelib chiqib optimal gaz sarfi, gaz tezligi va suyuqlik plyonkasi uzunligini tanlash maqsadiga muvofiqligi tajribalar asosida aniqlandi.

Adabiyotlar

[1]. Alimatov B.A., Ergashev N.A., Karimov I.T. “Kontakt elementi buralgan yo‘ldosh quyunli rejimda ishlovchi ho‘l usulda chang tozalovchi apparat”, FarPI, “Ilmiy-texnika” jurnali, 2019y №2-son, 149-152-bet:

[2]. Валдберг А.Ю., Николайкина Н.Е. Протсесси и аппараты зашиты окружающей среды. – Москва: Дрофа, 2008. –239 с.

[3]. 3. Latipov K.Sh. «Gidravlika, gidromashina, gidroyuritmalar» Toshkent,O‘qituvchi, 1992 y.75-80 betlar.

[4]. Эргашев Н.А., Маткаримов Ш.А., Зияев А.Т.,Тожибоев Б.Т., Қўчқоров Б.У. Опытное определение расхода газа,подаваемое на пылеочищающую установку с контактным элементом, работающим в режиме спутникового вихря// Универсум.–Москва, 2019.–№ 12 (69).–С. 54-58.

[5]. Axmadjonovich, E. N. Obidjon o ‘g ‘li, XA, & Abduqayum o'g'li, AM (2022). Industrial application of dust equipment in the industrial wet method with contact elements and experimental determination of its efficiency. American Journal of Applied Science and Technology, 2(06), 47-54.

[6]. Ergashev, N. A., Mamarizayev, I. M. O., & Muydinov, A. A. O. (2022). Kontakt elementli ho ‘l usulda chang ushlovchi apparatni sanoatda qo ‘llash va uning samaradorligini tajribaviy aniqlash. Scientific progress, 3(6), 78-86.

THE RELATIONSHIP OF SURFACE QUALITY INDICATORS OF PARTS WITH STRUCTURAL AND TECHNOLOGICAL PARAMETERS AND PROCESSING FACTORS

Sh.N. Fayzimatov, A.M. Yakupov, A.M. Gafurov

Ferghana polytechnic institute,
+99890-302-16-84, +998-93-731-89+00, +99890-290-65-79 smyalik1989@mail.ru.

(Received on April 4 th, 2023)

Zamonaviy mashinasozlikda shaklli yuzalarda shtamplash qayta ishlashning texnologik jarayonini ishlab chiqish bugungi kunda eng muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Shaklli yuzalarni qayta ishlashdan oldin shtamplash shakllarining ishchi yuzalarini o'rganish kerak bo'ladi. Ushbu maqolada shaklli yuzalarda shtamplash shakllarini qayta ishlashda sirtning geometrik parametrlarini aniqlash usullari, xususan, shaklli yuzalarning kesish zonasining tuzilishi, keskichning kesish zonasiga kirib borishi va kesish zonasidagi tartibga solish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *kesish maydoni, mustahkamlik, chidamlilik, shtamplash, shtamplash shakli, kesish parametrlari.*

В современном машиностроении разработка технологического процесса обработки штамповочных форм на фасонных поверхностях остается важнейшей задачей на сегодняшний день. Перед обработкой фасонных поверхностей необходимо будет изучить рабочие поверхности штамповочных форм. В данной статье описаны методы определения геометрических параметров поверхности при обработке штамповочных форм на фасонных поверхностях, в частности, структуры рисунка зоны резания фасонных поверхностей, проникновение фрезы в зону резания и данные об условиях правки в зоне резания.

Ключевые слова: *зона резания, консистенция, долговечность, штамповка, конструкция штамповки, параметры резания.*

In modern mechanical engineering, the development of a technological process for processing stamping forms on shaped surfaces remains the most important task of today. Before processing the shaped

surfaces, it will be necessary to study the working surfaces of the stamping molds. This article describes methods for determining the geometric parameters of the surface when processing stamping forms on shaped surfaces, in particular, the drawing structures of the cutting zone of shaped surfaces, the penetration of the cutter into the cutting zone and data on the conditions of editing in the cutting zone.

Keywords: *cutting area, consistency, durability, punching, punching design, cutting parameters.*

[5] Л.И. Прохватилова. Исследование обжарочной печи как элемента системы управления тепловым процессом. Диссертация кандидата технических наук. Астрахань 1995.
[6] https://kirpich-om.ru/Proizvodstvo/Pech_dlja_obzhiga_kirpicha_doma_i_na_proizvodstve.htm
[7] В.А. Ошурков Модели и алгоритмы функциональной задачи подсистемы управления загрузкой дуговой сталеплавильной печи. Диссертация кандидата технических наук. Череповец 2020.

O‘ZBEKISTON ELEKTR TA’MINOTINING ISHONCHLILIGI MASALALARI

Sh.V. Xamidov, Z.M. Hamidjonov

Фарғона политехника институти

(Қабул қилинди 1.05.2023 й.)

In this article, the reliability of the energy system in the supply of electricity to consumers in the Republic of Uzbekistan and the factors affecting it have been analyzed.

***Key words**: Power supply, concept, reliability issues, power station, gas, hydroaccumulation*

stations

В данной статье проанализированы надежность энергосистемы при снабжении электроэнергией потребителей в Республике Узбекистан и факторы, влияющие на нее.

***Ключевые слова**: Электроснабжение, концепция, вопросы надежности, электростанция, газ, гидроаккумулирующие станции.*

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida istemolchilarni elektr energiyasi bilan ta’minlashda Energetika tizimi ishonchliligi va unga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda tegishli tahlillar olib borilgan.

***Kalit so‘zlar:** Elektr ta’minoti, konsepsiya, ishonchlilik masalalari, elektr stantsiyasi, gaz, gidroakumlatsion stansiyalar.*

Kirish: 2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasiga ko‘ra kelgusi 10 yillikda energetika sanoatida mavjud energetika obyektlarini modernizatsiya qilish, yangi elektr stansiyalarni qurish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish hisobiga 2030 yilga kelib respublikada energetika bo‘lgan talab 120.8 mlrd kvt soatini 2019 yilga nisbatan 1.8 barobarga oshishi kutilayotgan iste’molning ulushini qoplash nazarda tutilgan [2]. Aytish joizki har bir energiya manbasi ishlayotgan energiya tizimga parallel ishga qo‘yishda shu manbaning xususiyatlarini, energiya ta’minoti jihatdan turg‘unligini e’tiborga olish juda ham muhim sanaladi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda har bir energiya manbalarini energiya tizimga qo‘shayotganda o‘zaro ta’sirlarini va ishga qo‘yishdan oldin sinov ishlarni olib borish kerak.

Ishning maqsadi: So‘nggi yillarda tabiat fasllardagi nomutanosibligi energiya ta’minotiga o‘z ta'sirini bermasdan qolmayapti. Qish mavsumdagi noodatiy sovuq yoz oylaridagi keskin isishi bo‘lgan talab enektr energiya istemoli maksimumlarini oshirayapti. Bunga sabab esa elektr energiya ko‘p istemol qiluvchi maishiy texnikalarni tizimga ta’sirida ko‘rish mumkin. Bahor va kuzda mavsumlarida havo haroratdagi kunduzgi va kechki tafovuti esa energetika tizimida barqaror ish rejimining ushlab turilishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shu kabi vaziyatlatda elektr ta’minotining ishonchliligi masalalarini hal qilish muhim vazifa kasb etadi.

Tadqiqot materiallari: Elektr ishlab chiqarishda yana bir muhim mezon bu tabiiy gaz taqchilligidir. O‘zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarishning katta qismi gazga bog‘langanligini e’tiborga olinsa elektr energiyasiga talab yuqori bo‘lgan vaqtlarda energetika tizimi barqarorligini saqlash o‘ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi, albatta, o‘sib borayotgan 36 millionli O‘zbekiston aholisining ehtiyojlarni ham gaz taqchilligiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shundan kelib chiqib kuz-qish mavsumi uchun yetarli mazut zahrini yaratishga ehtiyoj tug‘iladi. Mazut zahiralarini yetarli hajmga yetkazish uchun mavjud omborlarni modernizatsiya qilish yangilarini qurish kerak. Buni esa elektr ta’minoti barqaror saqlash uchun kiritilgan qisqa muddatli investitsiya deb qarash mumkin.

Energiya yetishmovchiligi vaqtida elektr energiyasi istemolidagi o‘ta yuklanishlarni mintaqadagi qo‘shni energiya tizimlari bilan aloqalarini mustahkamlab ham bartaraf qilish imkoniyatini mavjudligini e’tiborga oladigan bo‘lsak,qo‘shni respublikalardagi zaxira energiyaning miqdori ham muhim ahamiyatga ega, jumladan suvga boy Qirg‘iziston, Tojikiston va bizga o‘xshab asosiy energiyasini issiqlik elektr stansiyalardan (IES) oladigan Qozog‘istondan o‘zaro muvozanatlashgan elektr energiyasining almashinuvi juda ham muhim. 60-70-yillarda tashkil topgan markaziy osiyo va janubiy Qozog‘iston birlashgan energiya tizimi doirasida elektr energiyasi ishlab chiqarish va suvdan oqilona foydalanishni muvozanalashgan tizimining qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini 2020-2021 kuz-qish mavsumida ro‘y bergan yirik avariyada ham ko‘rish mumkin. Yirik elektr tizimlari ishonchligini saqlash haqida gapirganda Rossiya fanlar akademiyasi Sibir bolimi Energetika boshqarish institutida tashkil etilgan “Yirik energiya tizimlarining ishonchligini tadqiq qilishning uslubiy masalalari” xalqaro ilmiy seminarning yakuni doirasida energetika tizimi ishonchli ishlashini ta’minlashda keltirib o‘tilgan takliflariga ko‘ra, zamonaviy elektr energiyasi almashinish sharoitida quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- energiya tizimlari va yoqilg‘i-energetika kompleksi ishonchliligi, samaradorligi, ekologik toza va xavfsizligini saqlash;

- energiyaning barcha manbalari sifat darajasini iste’molchilar uchun ta’minlash;

- energetika boshqaruv tizimlarini takomillashtirish ishlab chiqarish tuzilma uyg‘unlashtirish.

Bu jarayonlarni energiya tizimlarida boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirish, uskunalarni monitoring, diagnostika qilish tizimlari va energiya tizimlari rejimlarini muvofiqlashtirilgan boshqarish tizimi bilan birgalikda amalga oshirish kerak.[3]

Ushbu seminarda qabul qilingan xulosalari bizning energetika tizimziga ham ta’lluqliligini ko‘rish mumkin.

Yuqoridagilarni inonatga olib elektr energiyasi ta’minotidagi mavjud vaziyatdan kelib chiqib respublika energetika tizimida iste’molchilarni elektr energiya bilan barqaror taminlash va energetika xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatadigan masalalarni ko‘rib chiqaylik.

Energetika sanoatida ishlab chiqarish, kuzatish va yangi manbalarni o‘zlashtirishdagi moliyaviy masalalarga qo‘shimcha ravishda tizimdagi katta nomutanosibliklar bilan energetika sanoati chindanda katta texnik muammolarga duch keladi, yani energetika tizimlari yoki ularning qismlari orasida parallel ishlashning barqarorligi ta’minlash yaxlitligiga tahdid soladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek issiqlik elektr stansiyalarini gaz bilan ta’minlashdagi tanqislik bilan bog‘liq muammolar nafaqat keskin suvuq paytlarda shuningdek anoml issiq kunlarda kuzatilgan.

O‘zbekiston sharoitida elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun gaz yetkazib berish o‘rtasidagi nomutanosiblik yuklamalar maksimumi va minimunlari orasidagi o‘zgarishni qoplay olmaydi. Shu munosabat bilan gaz uzatish tizimini energiya tizimining kunlik jadvalga muvofiq o‘rtacha kunligi yetkazib berish rejimidan moslashuvchan tanlov rejimiga o‘tkazish choralarini ko‘rish zarur. Bu muammo, shuningdek, energiya tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng miqyosida joriy etish rejalashtirilganligi sababli murakkablashadi [2]. Ayniqsa kechki yuklamalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Umuman olganda energetika tizimimizda sodir bo‘lgan yirik avariya yagona energetika tizimi barqaror ishlashi ishonchlilik tamoyillarga qay darajada javob berish haqidagi tushunchalarimizda qayta ko‘rib chiqiladigan masalalar borligini yaqqol ko‘rsatib berdi. Jumladan, energiya ta’minotining sharqiy qismi bo‘lgan Farg‘ona vodiysi kuz-qish mavsumida elektr energiya bilan ta’minlash havo haroratining pasayishi mavjud elektr uzatish liniyalarining (220 kV va 500 kV) o‘tkazuvchanlik qobiliyatini cheklanganligi sharoitida bir muncha murakkablashadi. Shu va boshqa faktorlarga ko‘ra Farg‘ona vodiysini elektr energiyasi bilan ta’minlashda eng katta yuklamalar soatlarida istemolchilar uchun elektr energiya ta’minotiga cheklov o‘rnatiladi. Buni biz 2021-2022-yilgi qish mavsumida Farg‘ona vodiysini ta’minlovchi mintaqaviy 500 kVli havo uzatish liniyalarining birida ta’mirlash ishlari olib borilgan vaqtda xuddi shunday ikkinchi 500 kV li havo uzatish liniyasi avariyaviy o‘chishi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Bunday vaziyatda Farg‘ona vodiysida asosiy elektr energiya ishlab chiqaruvchi bo‘lgan Turaqurg‘on issiqlik elektr stantsiyasini asosiy ishlab chiqarish potensiyali gidroenergetikaga asoslangan Qirg‘iston energiya tizimning qish mavsumidagi energiya taqchilligi sharoitida juda katta bosimda ishlagani ko‘rshimiz mumkin.

So‘ngi yillarda eng katta yuklamalar vaqtida elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoj 1500 MVt gacha oshganini va o‘sishda davom etmoqda.[1]

Shuni e’tiborga olgan holda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining, jumladan, quyosh elektr stansiyalarning qurilishi fonida eng yuqori quvvatga bo‘lgan ehtiyot bir necha barobar ortadi. Bunday holatlarda yetarli darajada zahira quvvatiga ega an’anaviy elektr stansiyalar bilan kompensatsiya qilish ehtiyoji tug‘iladi. Oxir oqibat bunday ish sikli energetika tizimi barqaror ishlashiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Shundog‘am tabiiy gazga bo‘lgan bog‘liqligimiz yanayam ortadi. Agar bunda tegishli choralar ko‘rilmasa energiya tizimda yirik avariyalarning yuz bermasligi hech kim kafolat berolmaydi.

2022-yil noyabr oyida havo haroratining pasayishi fonida gaz yetishmovchiligi qish kelmasidan sezila boshladi.

Elektr stansiyalarga kelishilgan jadvalga nisbatan jami soatiga 350 ming kub metr (1200 MVt elektr energiyasi ekvivalentida), shu jumladan, Toshkent IESga rejadan soatiga 270 ming kub metr kam gaz yetkazib berilgan [4].

Kelgusida umumiy quvvati 4000 MVt bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarni o‘zlashtirish va energiya tizimiga ulash bilan energetika tizimida kechadigan o‘tish jarayonlarini oldindan baholashda Navoiy va Samarqand viloyatlarida ishga tushirilgan 100 MVt li quyosh elektr stansiyalari hamda Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 2024-yil yakuniga qadar ishga tushirilishi rejalashtirilgan quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyasidan tajriba sifatida foydalanish kerak [1].

Respublikalar gaz-transport va infratuzilmasining cheklanganligi (yer osti gaz omborlari, gaz rezeruvarlari, suyultirilgan gaz terminallarining yetishmasligi) konsepsiyada nazarda tutilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng miqyosda integratsiyalashuviga jiddiy qiyinchiliklarni keltiradi [1].

Olingan natijalar: Yuqoridagilarni hisobga olgan holda elektr stansiyalar uchun moslashuvchan gaz uzatish tizimini yaratish zarur.

Buning yechimlarini sifatida quyidagi amallarni bajarish kerak

- issiqlik stansiyalari kam yuklanganda (yuklamalarning yo‘qligida) gaz zahiralarni yaratish va uni yuklamalarning eng yuqori soatlarida ishlatish uchun gaz omborlarini qurish;
- mamlakatda yer osti gaz omborlar sonini oshirish (bu borada yevropa mamlakatlari xususan Italiya tajribasini o‘rganish kerak);
- qayta tiklanib energiya manbalarini integratsiyalashgan holda energiya tizimiga ulash shuningdek ular uchun energiya saqlash tizimlarini qilish;
-gidroakumlatsion elektrostansiyalar sonini oshirish;
- yuklamalarning kunlik taqsimlanishi grafigini qayta ko‘rib chiqish orqali eng katta yuklama soatlarini kamaytirish;
-bu borada joriy yilda o‘rnatilishi tugallangan ASKUE tizimi imkoniyatlardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
-qayta tiklanuvchi energiya manbalarini O‘zbekiston energetika tizimi barqarorligiga ta’sirini o‘rgangan holda xavfsiz ulash, ularning zaruriy miqdorini hisoblab chiqish;
-qo‘shni mamlakatlarning quyosh va shamol energiya sohasida rejalashtirishlarini e’tiborga olish kerak;
-energiya saqlash stansiyalarini qurishning istiqbolli loyihalarini ishlab chiqish. Ushbu stansiyalarning tan narxi jihatdan qimmatligini unutmagan holda uzoq yillar foydalanish uchun maqbul bo‘lgan li-ion asosli batareyalardan foydalanish samarasini baholash.

O‘zbekiston elektr ta’minoti ishonchliligini oshirish haqida fikr yuritar ekanmiz buning mintaqa elektr tizimidan ayro amalga oshirish salohiyatining kamligini ko‘rish mumkin.

Xulosa: Ushbu maqolada elektr energiyasiga oshib borayotgan talab, energiya tizimlari o‘rtasida energiya almashinuvi va qayta tiklanadigan energiya manbalarini jadal qurish sharoitida elektr ta’minoti ishonchliligi yuzasidan fikrlar bayon etilgan. (bu hulosa annotatsiyaga o’xshab qolibdi, xulosada biron taklif o’zgartirish kiritish bo’yicha, yangilash bo’yicha, yaxshilash bo’yicha takliflarini, yoki fikrlarizi yozasiz, ko’proq shaxsiy bo’lishi kerak)

Adabiyotlar

[1]. Насиров, Хамидов, Шамсиев, Мирзаев Проблем вопросы в энергетике. ПРОБЛЕМЫ ЭНЕРГО И РЕСУРСОСБЕРЕЖЕНИЯ. № 4, 2021 г

[2]. 2020-2030 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИ ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯСИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ КОНЦЕПЦИЯСИ 30.04.2020 y. Manba: ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ЭНЕРГЕТИКА ВАЗИРЛИГИ rasmiy sayti. https://minenergy.uz/uz/lists/view/77#

[3]. “Методические вопросы исследования надежности больших систем энергетики" выводы по итогам 94-го заседания международного научного семинара

[4]. O‘zbekistonda blekaut xavfi yuzaga keldi. Manba: Kun.uz https://kun.uz/uz/news/2022/11/13/ozbekistonda-blekaut-xavfi-yuzaga-keldi

[5]. Shamsiev Kh.A. The Unified Energy System of Central Asia: Prospects for Regional Trade. // 26th meeting of the ESCC CAREC. –Ashgabat, March 13–14, 2018.

REAKTIV QUVVATNI KOMPENSATSIYALASH ORQALI ELEKTR ENERGIYA YO‘QOTISHLARINI KAMAYTIRISH

S.X. To‘xtasinov

Farg‘ona politexnika instituti, (toxtasinovsaidislomxon@gmail.com)
(Qabul qilindi 8.05.2023 y.)

Ushbu maqolada elektr tarmoqlarida reaktiv quvvat hisobiga xosil bo‘ladigan energiya isroflarini hisoblash keltilgan. Bundan tashqari reaktiv quvvatni avtomatik kompensatsiyalash qurilmasini joriy etishdan olingan natijalar taxlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Avtomatik boshqarish tizimi, reaktiv quvvatni avtomatik kompensatsiyalash, quvvat koeffitsenti, reaktiv quvvat, kondensator, PFR-12.*

Система автоматического управления, автоматическая компенсация реактивной мощности, коэффициент мощности, реактивная мощность, конденсатор, ПФР-12.

Ключевые слова: *Система автоматического управления, автоматическая компенсация реактивной мощности, коэффициент мощности, реактивная мощность, конденсатор, ПФР-12.*

This article calculates power losses due to reactive power in electric networks. In addition, the results obtained from the introduction of the automatic reactive power compensation device are presented.

Keywords: *Automatic control system, automatic compensation of reactive power, power factor, reactive power, capacitor, PFR-12.*

Kirish. Bizga ma’lumki elektr energiyasi bir joydan boshqa joydan uzatilgan o‘zining bir qismini sarflaydi. Bu fizika qonunlariga ko‘ra 4-7 % atrofida tashkil etishini nazariy adabiyotlardan bizga ma’lum. Hozir zamonaviy elektr tarmoqlarida elektr energiya yo‘qolishlari bu ko‘rsatkichdan 3-4 barobar yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin.

Zamonaviy adabiyotlar bizga shuni ko‘rsatmoqdaki elektr energiyasining yo‘qotishlarini ortib ketishining faqatgina tijoriy yo‘qotishlar emas balki hozirda elektr iste’molchilarning turi o‘zgarganligi bilan ifodalanmoqda. Oldinlari elektr iste’molchilarining asosiy tarkibi aktiv-induktiv (RL) turidagi yuklamalar tashkil etgan bo‘lsa, texnika-texnologiyaning rivojlanishi bilan tarkibida sig‘im **(C)** elementlari mavjud qurilmalar keng iste’molga kirganligi bu o‘z navbatida elektr energiyasining sifatiga sezilarli ta’sir etishi shu bilan birga qo‘shimcha quvvat yo‘qotishlariga olib kelayotganligini ko‘rsatmoqda [1].

Elektr tarmoqlarida (xususan ochiq tarmoqlarda) elektr quvvati va energiyasi isrofini kamaytirishning eng samarali va keng foydalaniluvchi usuli reaktiv quvvatni kompensatsiyalashga asoslangan [2] . Ushbu usul bo‘yicha isrofni kamaytirish imkoniyatlari bilan sxemasi 1-rasmda tasvirlangan bitta liniyadan iborat bo‘lgan tarmoq misolida ko‘rib chiqamiz.



1-rasm. Reaktiv quvvatni kompensatsiyalash.

Reaktiv quvvat kompensatsiyalanmagan liniyada aktiv quvvat isrofi quyidagicha aniqlanadi: [3]

$$\Delta P = \frac{P_n^2 + Q_n^2}{U_n^2} \cdot r_l \qquad (1)$$

Liniyaning oxirida ulangan iste’molchilarning yonida kompensatsiyalovchi qurilma ulangandan so‘ng yuklamaning umumiy (kompensator bilan birga hisoblanganda) aktiv quvvat koeffitsienti *cosφ* oshadi va liniyadagi aktiv quvvat isrofi kamayadi:

$$\Delta P = \frac{P_n^2 + (Q_n - Q_k)^2}{U_n^2} \cdot r_l \ . \qquad (2)$$

Kompensatorning tarmoqdagi quvvat isrofini eng kam bo‘lishini ta’minlovchi optimal quvvatni isrof funksiyasi minimumligining zaruriy sharti, ya’ni u bo‘yicha xususiy hosilaning nolga tengligidan foydalanib topish mumkin: [4]

$$\frac{\partial \Delta P}{\partial Q_k} = -\frac{2(Q_n - Q_k)}{U_n^2} \cdot r_l = 0. \quad (3)$$

$$W = P_n \cdot \Delta t \quad (4)$$

$$\Delta W = W_2 - W_1 \quad (5)$$

1 – jadval

Kompensatsiya qurilmasi o‘rnatilishidan oldingi aktiv quvvat iste’moli

P_1(kVt)	P_2(kVt)	ΔP_n(kVt)	Δt	$\sum$ so‘m
93583	98332	47332	12.04.2022/22.04.2022	2137050

2 – jadval

Kompensatsiya qurilmasi o‘rnatilishidan oldingi reaktiv quvvat iste’moli

Q_1(kVar)	Q_2(kVar)	ΔQ_n(kVar)	Δt	$\sum$ so‘m
182462	192462	10302	12.04.2022/22.04.2022	195738

3 – jadval

Kompensatsiya qurilmasi o‘rnatilgandan keyingi aktiv quvvat iste’moli

P_1(kVt)	P_2(kVt)	ΔP_n(kVt)	Δt	$\sum$ so‘m
102676	106104	3428	02.05.2022/12.05.2022	1542600

4 – jadval

Kompensatsiya qurilmasi o‘rnatilgandan keyingi reaktiv quvvat iste’moli

Q_1(kVar)	Q_2(kVar)	ΔQ_n(kVar)	Δt	$\sum$ so‘m
196096	198188	2092	02.05.2022/12.05.2022	39748

2 – rasm. PRF-12 markali kondensator qurilmasini avtomatik boshqarish qurilmasi.

Shunday qilib, ko‘rilayotgan tarmoq uchun $Q_{k,\text{opt.}} = Q_n$. Demak, ushbu holatda yuklamaning reaktiv quvvati kompensator yordamida to‘la kompensatsiyalanganda (liniya orqali iste’molchiga faqat aktiv quvvat uzatilganda) tarmoqdagi aktiv quvvat isrofi eng kam, ya’ni minimal bo‘ladi.

Kondensator qurilmarini boshqarishda zamonaviy avtomatik boshqarish qurilmalaridan foydalanish ancha qulay xisoblanadi. Ushbu ishda PRF-12 markali kondensator qurilmasini avtomatik boshqarish



3-rasm. PRF-12 markali avtomatik boshqarish sxemasini tarmoqqa ulash sxemasi.

qurilmasidan foydalanilgan [5].



4-rasm TM 630/10/0.4 transformatorining aktiv va reaktiv quvvat iste'moli grafigi (22.04.2022 sanada kompensatsiya o'rnatilgan).

Bu qurilma istemolchi qancha reaktiv quvvat istemol qilayotganini o'lchaydi va kerakli bo'lgan reaktiv quvvatni avtomatik ravishda tarmoqqa ulaydi va uzadi.Qurilmaning 12 ta pog'onasi mavjud bo'lib har-bir pog'onasiga kondensator batareyasi ulandi va avtomatik ravishda pog'onalar boshqarilib tarmoqqa reaktiv quvvatni silliq ta'minlashga erishiladi.

1-grafikda ishlab chiqarish korxonasining TM 630/10 transformatorining 0.4 kVli shinasiga kondensator batareyasi o'rnatilgandan keyingi holatlardagi aktiv va reaktiv quvvatlarning bir oylik farqi keltirilgan. Bunda reaktiv quvvat iste'moli sezilarli darajada pasaygan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ushbu qurilma o'rnatilgandan keyin 10 kun davomidagi o'lchov natijasida tarmoqdan 32% qo'shimcha aktiv quvvat iste'molini kamaytirish imkonini bergan.

Bu elektr energiya narxi 450 so'm bo'lganligi sababli kompensatsiya qurilmasini o'rnatish orqali bir oy muddatda 594 450 so'm miqdorda pul mablag'larini tejab qolindi.

Adabiyotlar

[1]. Комолддинов С.С.Ў., Кодиров Афзал Ахрор Ўғли, Ашуров Абдулахад Валижон Ўғли, & Тухтасинов Саидисломхон Хасанхон Ўғли (2022) //Регулировка изменения напряжения в устройстве автокомпенсации (на примере одной фазы). Universum: технические науки,(5-9 (98)). – С. 49-54.

[2]. Холиддинов И.Х. О компенсации реактивной мощности на предприятиях. // Проблемы энерго- и ресурсосбережения, 2015. – №1-2. – С. 82-88.

[3]. Ильяшов В.П. Автомотическое регулирование мощности конденсаторных установок. 1977. – С.122

[4]. Kamoliddinov S. et al. Регулировка изменения напряжения в устройстве автокомпенсации (на примере одной фазы) //Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн. наук. – 2022. – С. 49.

[5]. Kholiddinov I. Kh. The application of an information and measurement device for the calculation of level nonsymmetry of voltages and current in low-voltage networks. // European Applied Sciences, Stuttgart, Germany, 2015. – №7. – p. 55-59.

UDC 621.393.

UGLEVODORODLARNING PORTLASHGA XAVFLI KONSENTRATSIYASINI MASOFADAN NAZORAT QILUVCHI IKKI TO'LQINLI OPTOELEKTRON QURILMA MATEMATIK MODELI.

U.Mirzaeva[1], M.I. Abdubannopov[1], S.Z. Xoldorova[1], X.T. Yo'ldashev[2]

[1]Farg'ona Davlat Universiteti
[2]Farg'ona politexnika instituti, hurshid5704@mail.ru
(Qabul qilindi 11.05.2023 y.)

Ushbu ishda uglevodorodlarning portlashga xavfli konsentratsiyasini masofadan nazorat qiluvchi ikki

to‘lqinli optoelektron qurilma matematik modeli ishlab chiqilgan. optoelektron qurilmaning ishlash prinsipini ifodalovchi vaqt diagrammalari va uning blok sxemalari ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar. *Optoelektron qurilma, kontsentratsiya, boshqaruvchi generator, fotoqabulqilgich, nazorat ob’ekti, matematik model.*

В данной работе разработана математическая модель двухволнового оптико-электронного прибора для дистанционного контроля взрывоопасных концентраций углеводородов. разработаны временные диаграммы, отображающие принцип работы оптико-электронного прибора и его структурные схемы.

Ключевые слова. *Оптоэлектронное устройство, концентрация, управляющий генератор, фоторецептор, объект управления, математическая модель.*

In this work, a mathematical model of a two-wave optoelectronic device for remote monitoring of the potentially explosive concentration of hydrocarbons was developed. time diagrams representing the principle of operation of the optoelectronic device and its block diagrams were developed.

Key words. *Optoelectronic device, concentration, control generator, photoreceptor, control object, mathematical model.*

Uglevodorodlarning portlashga xavfli konsentratsiyasini masofadan nazorat qiluvchi ikki to‘lqinli optoelektron qurilmaning blok-sxemasi 1-rasmda ko‘rsatilgan. Bunda: BG – boshqaruvchi generator, T- trigger; CHB – chastota bo‘luvchisi; EM – eksponenta modulyatori; EQ – emitter qaytargich; IK – impulьs kuchaytirgi; ND_1 – tayanch nur diodi; ND_2 – o‘lchov nur diodi; L – nazorat ob’ektigacha bo‘lgan masofa; DK_1 va DK_2 – birinchi va ikkinchi differensiallovchi qurilmalar; NO – nazorat ob’ekti; FP – fotopriemnik; KSHK – kam shovqinli kuchaytirgich; TKK – taqqoslovchi qurilma; XS – hisoblagich; DSH – deshifrator; IN – indikator.

Uglevodorodlarning portlashga xavfli konsentratsiyasini masofadan nazorat qiluvchi ikki to‘lqinli optoelektron qurilmaning ishlash prinsipini ifodalovchi vaqt diagrammalari 1 va 2 – rasmlarda keltirilgan.

Optoelektron qurilma quyidagi ko‘rinishda ishlaydi: boshqaruvchi generator BG 2000,0 Gs chastota ketma-ketlikdagi to‘g‘ri burchakli impulslar ishlab chiqaradi (2.a-rasm). Hosil bo‘lgan impulsьlar trigger T ning kirishiga ta’sir etadi. Uning chiqishida chastotasi 1000,0 Gs teng bo‘lgan to‘g‘ri burchakli impulьslar xosil bo‘ladi (2,b,v -rasm) va ular chastota bo‘luvchisi CHB kirishga ta’sir etadi va uning chiqishida chatotasi 10Gs ga teng bo‘lgan mipulslar formalanadi (2,g-rasm). To‘g‘ri burchakli impulьslar chastota bo‘lgich chiqishidan eksponenta modulyatorining birinchi kirishiga beriladi va ikkkinchi kirishiga to‘g‘ri burchakli impulьslar trigger chiqishidan keli tushadi. Natijada eksponenta modulyatori chiqishida amplitudasi vaqt bo‘yicha eksponensial qonuniyat bo‘yicha kamayib boruvchi diskretlangan impulьslar zosil bo‘ladi. Bu impulьslar emitter qaytargich EQ yordamida tok bo‘yicha kuchatirilib tayanch nur diodi ND1 ning kirishiga beriladi. Diskret eksponensial impulsga teskari fazali impulslar trigger chiqishidan impulьs kuchaytirgich IK kirishiga beriladi. Uning chiqishidan amplituda bo‘yicha kuchaygan va diskret eksponensial impulьslarga qarqama qari fazada o‘lchash nur diodi ND2 ning kirishiga beriladi. Xosil bo‘lgan o‘lchash va tayanch nur oqimlari L masofada joylashgan nazorat ob’ekti NO - ga yo‘naltiriladi va nazorat ob’etidan qaytgan nur oqimlari fotopriemnik FP orqali qabul qilinadi (2,d-rasm).

Fotopriyomnik yuzasiga tushayotgan nur oqimlari quydagicha aniqlanadi.

$$\Phi_{\lambda 1} = \gamma_{\lambda 1} I_{0\lambda 1} \frac{S_{\Phi\Pi}}{L^2} e^{-k_1 N_1} \tag{3.1}$$

$$\Phi_{\lambda 2} = \gamma_{\lambda 2} I_{0\lambda 2} \frac{S_{\Phi\Pi}}{L^2} e^{-k_2 N_1} e^{-k_3 N_2} \tag{3.2}$$

bu erda: $\gamma_{\lambda 1}$ va $\gamma_{\lambda 2}$ - o‘lchash va tayanch to‘lqin uzunliklariga mos keluvchi nazorat ob’ektining qaytarish koeffitsientlari; $I_{0\lambda 1}$ va $I_{0\lambda 2}$ - nazorat ob’ektidan qaytgan o‘lchash va tayanch nur oqimlariga mos keluvchi yorug‘lik kuchi; $S_{\Phi\Pi}$ - fotopriyomnik kirish tirqishining yuzasi; L –

nazorat ob’ektigacha bo‘lgan masofa; N_1 - nazorat ob’ektida yig‘ilgan gazsimon moddalarning umumiy konsentratsiyasi; N_2 - uglevodorodlarning portlashga xavfli konsentratsiyasi.

Shuni aytib o‘tish kerakki boshlang‘ich tayanch nur oqimining intensivligi vaqt bo‘yicha eksponensial qonuniyat bilan o‘zgaradi ya’ni

$$\Phi_{0\lambda 1} = Ae^{-\frac{t}{\tau}} \qquad (3.3)$$

bu erda: A- boshlang‘ich tayanch nur oqimining amplitudasi; t - vaqt; τ - eksponensial impulьsning vaqt doimisi.

Shuning uchun fotopriemnikka tushayotgan tayanch nur oqimi quydagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$\Phi_{\lambda 1} = A\gamma_{\lambda 1} I_{0\lambda 1} \frac{S_{\Phi\Pi}}{L^2} e^{-k_1 N_1} e^{-\frac{t}{\tau}} \qquad (3.4)$$

O‘lchash va tayanch nur oqimlarining tenglashgan vaqtida ya’ni $\Phi_{\lambda 1}=\Phi_{\lambda 2}$, bo‘lganida quydagiga ega bo‘lamiz

$$A\gamma_{\lambda 1} \frac{S_{\Phi\Pi}}{L^2} e^{-k_1 N_1} e^{-\frac{t_{CP}}{\tau}} = \gamma_{\lambda 2} I_{0\lambda 2} \frac{S_{\Phi\Pi}}{L^2} e^{-k_2 N_1} e^{-k_3 N_2} \qquad (3.5)$$

bu erda: t_{CP} - $\Phi_{\lambda 1}$va $\Phi_{\lambda 2}$ nur oqimlarining tenglashgan vaqti.

Agar tayanch va o‘lchash nur oqimlarining to‘lqin uzunliklari bir biriga yaqin qilib tanlab olinsa u xolda tayanch va o‘lchash to‘lqin uzunliklariga mos keluvchi qaytarish va sochish koeffitsientlari o‘z aro teng bo‘ladi ya’ni $\gamma_{\lambda 1} = \gamma_{\lambda 2}$, $k_1 = k_2$.

Shuning uchun o‘lchash va tayanch nur oqimlarining boshlang‘ich qiymatlari teng bo‘lgan xolda qudagiga ega bo‘lamiz.

$$e^{-\frac{t_{CP}}{\tau}} = e^{-k_3 N_2} \qquad (3.6)$$

bundan

$$N_2 = \frac{1}{k_2 \tau} t_{CP} \qquad (3.7)$$

Oxirgi tenglikdan ko‘rinib turibdiki uglevodorodlarning portlashga xavfli konsentratsiyasi o‘lchash va tayanch nur oqimlarining tenglashgan vaqti t_{CP} ga proporsional ekan, chunki $\frac{1}{k_2 \tau}$ kattalik doimiy o‘zgarmas son.



1-rasm. Uglevodorodlarning portlashga xavfli konsentratsiyasini masofadan nazorat qiluvchi optoelektron qurilmaning blok-sxemasi.



2-rasm. Uglevodorodlarning portlashga xavfli konsentratsiyasini masofadan nazorat qiluvchi optoelektron qurilmaning ishlash prinsipini ifodalovchi vaqt diagrammasi.

Yuqorida bayon qilingan jarayonlarni amalga oshirish uchun fotopriemnik chiqishidagi fotoelektrik signal kam shovqinli kuchaytirgich yordamida kuchaytirilib birinchi differensialovchi qurilmada differensiallanadi (3.2,e,j-rasm) so‘ng taqqoslovchi qurilmaning birinchi kirishiga beriladi. Taqqoslovchi qrilma TQQ ning ikkinchi kirishiga esa ikkinchi differensiallovchi qurilmada differensiallangan impulslar kelib tushudi (2,z-rasm). Natijada taqqoslovchi qurilmaning chiqishida uglevodorodlarning portlashiga xavfli konsentratsiyasiga proporsional bo‘lgan impulьslar seriyasi formalanadi (2,i-rasm). Bu impulslar xisoblagich XS da xisoblanadi va mos deshifratorlar yordamida indikatorda aks ettiriladi. Shunday qilib indikatorlarning ko‘rsatishiga qarab uglevodorodlarning portlashga xavfli konsentratsiyasi aniqlanadi.

Adabiyotlar

[1]. Kh.T. Yuldashev, Sh.S. Akhmedov Physical properties at the contact semiconductor - gas discharge plasma in a thin gas discharge cell // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) Vol 10, Issue 9, September, 2021

[2]. S.Z. Mirzayev, X.T. Yo’ldashev Investigation of background radiation and the possibility of its limitation in a semiconductor ionization system. // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2021, Vol : 11, Issue : 4, PP.1364-1369.

[3]. Kh.T. Yuldashev, A.Tillaboyev, A.Komilov, X.I.Sotvoldiyev Transition photoelectric processes in a superfluid gas-discharge cell with semiconductor electrodes // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020, T10, №5, PP.100-109.

[4]. Kh.T. Yuldashev G.M.Qipchaqova, Z.I. Abdumalikova, G.M. Umurzakova The study of photoelectric and photographic characteristics of semiconductor photographic system ionisation type // An International Multidisciplinary Research Journal 2020. T10, №5, PP72-82.

[5]. Kh.T.Yuldashev, B.T.Abdulazizov Research Photoelectric And Photographic Characteristics Of The Converter Of The Image Of The Ionization Type // Scientific Bulletin of Namangan State University 2020. №10, st. 16-22.

[6]. O.S. Rayimjonova, Kh.T. Yuldashev, U.Sh. Ergashev, G.F. Jurayeva, L.R. Dalibekov Photo Converter for Research of Characteristics Laser IR Radiation // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 7, Issue 2 , February 2020. pp. 12788-12791.

[7]. Kh.T.Yuldashev, Sh.S. Akhmedov, J.M.Ibrohimov Damping Cell From Gallium Arsenide With Plasma Contacts In An Extreme Gas Discharge Cell // Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers 2020. T16, №1, st,36-41.

[8]. Kh.T. Yuldashev, B.J. Akhmadaliev, Sh.S. Ahmedov, Q.M Ergashov Analysis Of Kinetics Of Image Formation On Bismuth Films Under Action Of Gas Discharge. // International Scientific Journal Theoretical and Applied Science. Philadelphia, USA 2020. Issue 04., Vol 84. PP. 839-843.

MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISHDA PAYDO BO'LADIGAN SIFAT NUQSONLARINI OLDINI OLISHNING TO'RT BOSQICHI

I.Ya. Xasanov

Farg'ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 8.05.2023 y.)

Mahsulotni ommaviy ishlab chiqarishda so'ng sifat nuqsonlarini bartaraf etish ko'pincha xaridorga jo'natish muddati kechikishiga sabab bo'ladi. Bu bo'yicha Ommaviy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bo'yicha o'rganish olib borildi, o'rganish jarayonida ularning avzalliklari va kamchiliklari aniqlandi. Sifat nuqsonlarini bartaraf etishda barcha mumkin bo'lgan variantlarini ko'rib chiqib, optimal rivojlanish yo'larini aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, tanlangan loyiha mavzusining dolzarbligi asoslandi. Mahsulot ishlab chiqarishda bo'ladigan sifat nuqsonlarni sabablari topildi hamda ushbu sabab omillarga sifat nuqsonlarini oldini olishning to'rt bosqichi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: *Mahsulotni ommaviy ishlab chiqarish, sifat nuqsonlari, xom ashyo, sifat nuqsonlarni sabablari, sifat nuqsonlarini oldini olishning to'rt bosqichi, sifat unimdorligini belgilash, tolerantlik, nuqsonli, nuqsonsiz.*

После серийного производства изделия устранение дефектов качества часто приводит к задержке сроков поставки покупателю. В связи с этим было проведено исследование предприятий массового производства, в ходе исследования были определены их преимущества и недостатки. Рассмотрев все возможные варианты устранения дефектов качества, мы определили оптимальные пути развития. На основании полученной информации была обоснована актуальность выбранной темы проекта. Выявлены причины дефектов качества при производстве продукции и показаны четыре этапа предотвращения дефектов качества этим причинным факторам.

Ключевые слова: *массовое производство продукции, дефекты качества, сырье, причины дефектов качества, четыре этапа предотвращения дефектов качества, определение показателей качества, допуск, дефектный, бездефектный.*

After the mass production of the product, the elimination of quality defects often causes a delay in the delivery time to the customer. In this regard, a study was conducte on mass production enterprises, and their advantages and disadvantages were determined during the study. Considering all possible options for eliminating quality defects, optimal ways of development were determined. Based on the received information, the relevance of the selected project topic was justified. The causes of quality defects in product production were find, and four stages of preventing quality defects were show to these causal factors.

Key words: *Production, quality defects, raw materials, causes of quality defects, four steps to prevent quality defects, determination of quality indicators, tolerance, defective and non-defect.*

Mahsulotni ommaviy ishlab chiqarishdan so'ng sifat nuqsonlarini bartaraf etish ko'pincha xaridorga jo'natish muddati tugashidan oldin qimmatli vaqtni oladi. Xaridorga mahsulotni yetkazib berishda vaqt juda muhim omil hisoblanadi. Lekin Mahsulotni sifat nuqsonlari sababli bu muammo o'z yechimini topa olmaydi. Materiallarini o'zgartirish yoki butlovchi qismlarga buyurtma berish, almashtirish birliklarini ishlab chiqarish, mahsulotni qayta ishlash va qayta tekshirish kabi omillar eng muhim bo'lgan vaqtda etkazib berishni kechiktirishiga sabab bo'ladi. Ko'pgina ishlab chiqarish korxonalari mahsulot sifatini boshqarish uchun jo'natishdan oldin tekshirishga tayanadilar. Ammo agar siz mahsulotlaringizdagi sifat nuqsonlarini aniqlash va bartaraf etishda yordam berish uchun faqat tekshiruvga tayansangiz, bu sifat kamchiliklarini bartaraf etish uchun ishlab chiqarish

tugashini kutish va ko'pincha oldini olish mumkin bo'lgan sifat kamchiliklari buyurtmangizning katta qismiga ta'sir qiladi. Ishlab chiqarishdan oldin bir nechta profilaktika choralarini ko'rish [2,3] orqali ishlab chiqaruvchilar ko'pincha o'z mahsulotlarining sifat nuqsonlari sonining sezilarli darajada pasayishini ko'rishlari mumkin. Keling, sifat nuqsonlarining oldini olishning eng muhim to'rt bosqichni va ular mahsulot sifatini boshqarishda qanday yordam berishi mumkinligini ko'rib chiqaylik.

1. ***Mahsulotingizga xom ashyo yetkazib beruvchilarning sifat menejmenti tizimlarini tekshirish.***

- Xom ashyo yetkazib beruvchilar o'z korxonasida qanday standartlarni joriy etganligini tekshirish va qanday darajada amal qilishini ko'rish;
- Xom ashyo yetkazib beruvchilarni sifat menejmant tizimini o'rganish;
- Xodimlarni yetarli malakada ega ekanligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar bilan tanishish, xodimlarni o'qitish va ularning roli bilan bog'liq muayyan kamchiliklar haqida o'qitish qay darajada ekanligi, bor yoki yo'qligini tekshirish;
- Tekshirish, o'lchash va sinov uskunalari, shu jumladan aniq o'lchovlar va natijalarni ta'minlash uchun asboblar va jihozlarning to'g'ri kalibrlanishini tekshirish;
- Mos kelmaydigan mahsulotlarni nazorat qilish, shu jumladan nomuvofiq yoki nuqsonli mahsulotlarni markalash, identifikatsiya qilish, baholash, ajratish, utilizatsiya qilish va qayta ishlash jarayonlarini tekshirish;
- Belgilash, qadoqlash, qayta ishlash va saqlash, shu jumladan mahsulotlarning aralashishi, shikastlanishi, yomonlashishi yoki ifloslanishidan himoya qilishni ta'minlash uchun tekshirish tartib-qoidalari;
- Sifat yozuvlari, statistik ma'lumotlar va tahlillar, shu jumladan namuna olish, nuqsonlarni yig'ish, tuzatish va profilaktika choralarini tekshirish va mijozlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish.

Xom ashyo yetkazib beruvchilar bilan ishlashni boshlashdan oldin yuqorida aytib o'tilgan malakaviy jarayonlarning bir qismi sifatida sifat auditini o'tkazadilar. Sifat auditida to'plangan ma'lumotlar sizning ishlab chiqarish holatingizga javob bera oladigan yoki "yomon" yetkazib beruvchi bilan ishlash xavfini cheklashga yordam beradi.

2. Yetkazib beruvchilar bilan muzokaralar olib borishda sifat darajangizga mos narxni belgilang.

Sifatli materiallar va ehtiyot qismlardan foydalanmasdan sifatli mahsulot ishlab chiqarish qiyin. Ko'ylak qanchalik yaxshi mo'ljallangan bo'lishidan qat'i nazar, dizayn, masalan, sifatsiz matodan foydalanishni engib bo'lmaydi. Noto'g'ri kamera yoki displey bilan ishlab chiqarilgan silliq yangi smartfon, iste'molchi tomonida qaytarib yuborilishiga olib keladi. Ko'pgina etkazib beruvchilar buyurtmangiz uchun past narxni mamnuniyat bilan qabul qiladilar. Ammo bu past narx deyarli har doim mahsulot sifati narxiga to'g'ri keladi. Bu turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin, masalan:

- Dastlab kelishilganidan arzonroq xom ashyolardan foydalanish
- Mahsulot komponentlarini arzonroq alternativa bilan almashtirish

Ushbu narx bilan bog'liq masalalar bevosita mahsulot sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatibgina qolmay balki, ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan o'lchash asboblari, sinov laboratoriya jihozlariga va albatta mahsulotni yaratishdagi jarayoni kechishiga olib keladi.

Mahsulotning sifat nuqsonlarining oldini olish uchun quydagilarni hisobga olish tavsiya etiladi;

- *Narxlarni taqqoslash:* Mahsulotingiz uchun odatiy narx qanday ekanligini va potentsial yetkazib beruvchining taklifi raqobatbardoshligini bilish uchun bir nechta etkazib beruvchilardan narx takliflarini so'rang (qisqa qilib aytganda tender o'tkazing).

- Yetkazib beruvchilardan xom ashyo materiallar ro'yxatini va batafsil narxlarni so'rash;
- *Mahsulot dizaynini o'zgartirish:* Ko'pincha ishlab chiqarishdagi murakkab protseduralar va qancha ko'p komponentlar kerak bo'lsa, mahsulotni ishlab chiqarish shunchalik qimmatga tushadi.
-

3. Sifat unumdorligini belgilash uchun oltin namunani yarating.

Yetkazib beruvchining "hamma gap va hech qanday harakat yo'qligini" tekshirishning eng yaxshi usullaridan biri ishlab chiqarishdan oldin mahsulot namunasini so'rashdir. Mahsulot namunasini yaratish bu yetkazib beruvchidan siz xohlagan sifat standarti bo'yicha ishlab chiqarishga qodirligini haqiqatda ko'rsatishini talab qiladi. Mahsulot namunasi sifat nuqsonlarini oldini olish uchun ommaviy ishlab chiqarishdan oldin sifat nazoratini belgilash amalyotini joriy etish kerak.

Oltin namuna sizga yetkazib beruvchiga fikr-mulohaza bildirish va ishlab chiqarishdan oldin sifat masalalarini hal qilish imkoniyatini beradi:

- Ishlatilgan qismlar va materiallar;
- Mahsulot spetsifikatsiyalariga rioya qilish;
- Tegishli funksionallik va ishlash;
- Qadoqlash dizaynlari, brending va san'at asarlari.

Yuqoridagi qoida bo’yicha ko'rib chiqib, yetkazib beruvchini tasdiqlaganingizdan so'ng, mahsulotingiz namunasi "oltin" namunaga aylanadi. Oltin namuna sifat standartini belgilaydi, shuning uchun ishlab chiqarish jarayonida sifat muammolari yuzaga kelganda ishchilar o'z xohishlariga ko'ra tuzatuvchi choralar ko'rishlari mumkin. Bu tayyor mahsulotning katta qismiga sifat nuqsonlari ta'sir qilishining oldini olishga yordam beradi.

Ko'pgina mahsulotlar o'zlarining mo'ljallangan sotish bozorida ma'lum bir xalqaro standartga yoki huquqiy tartibga solishga muvofiqligini tekshirishni talab qiladi. Bunday quyidagi amaliyotlarni joriy etish kerak bo’ladi:

- Xavfsizlik sinovi;
- Mahsulotning ishlashi va chidamliligi sinovi;
- Materialning tarkibi va tozaligini tekshirish;
- Taqqoslash testi yoki taqqoslash, odatda raqobatdosh mahsulotning ishlashiga nisbatan;
- Qadoqlash sinovi.

4. Sifat qo'llanmasida sifat nuqsonlari uchun tolerantliklaringizni belgilang.

Korxonada xodimlar uchun talablar va asosiy manba sifatida sifat qo’llanmasi yoki sifat nazorati ro’yxati bo’lishi kerak. Oddiy mahsulotlar uchun sifat nazorat ro'yxatlarining uzunligi odatda 3-10 sahifani tashkil qiladi, keng ko'lamli sinovdan o'tgan murakkabroq mahsulotlar uchun nazorat ro'yxatlari uzoqroq bo'lishi mumkin. Samarali sifat qo'llanmasi korxona va inspeksiya xodimlari uchun tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, jumladan:

- Mahsulot spetsifikatsiyalari;
- Sifat kamchiliklariga nisbatan bardoshliligingiz;
- Mahsulotni tekshirish talablari, shu jumladan mahsulotni joyida sinovdan o'tkazish talab qilinadi;
- Qadoqlash talablari, shu jumladan yuk tashish va chakana qadoqlash;

Sifat nuqsonlarining eng ko'p uchraydigan sabablaridan biri bu birinchi navbatda nimani xohlayotganingizni tushunmaslikdir. Bu boyicha quyidagi tushunchalarni bilish kerak.

- Sifat nazorat ro'yxatini yetkazib beruvchingizga yuborish:
- Sizning talablaringiz bo'yicha savollar bor yoki yo'qligini bilish.

Albatta buni ya’na bir yo’li korxonaning ijtimoiy saytida sinovdan o'tkazish tartib-qoidalari, jumladan, mahsulot uchun qaysi sinovlar o’tkazilishi va qanday uskunalardan foydalanish kabi ma’lumotlarni doimiy ravishda qo’yib borish kerak. Kamchiliklarni tasniflash tartib-qoidalari, shu jumladan, topilgan nuqson turi va soniga qarab tekshirish uchun “nuqsonsiz” yoki “nuqsonli” natijani chiqarish.

Nuqsonsiz mahsulot tayyorlash tizimida, Saratov shahridagi samolyotsozlik zavodida 1955 yilda nuqsonsiz mahsulot tayyorlash va uni texnik nazorat bo'limiga yoki buyurtmachiga birinchi ko'rsatishdan topshirishni tashkil etish (Saratov) tizimi yaratilgan [1,2] va joriy etilgan. Ushbu tizimi yaratilgan va joriy etilgan. Mehnat sifatini baxolash tizimining asosida vaqtning xisobot davri T (smena, xafta, oy)da ko'rsatishdan topshirilgan mahsulotning foiz miqdori yotadi:

$$K = \frac{P_T}{N_T} 100\% \qquad (1)$$

bunda, P_T — texnik nazorat bo'limi tomonidan T vaqtda birinchi ko'rsatishdan qabul qilingan mahsulotning soni; N_T — texnik nazorat bo'limiga T vaqtda kiritilgan mahsulot soni.

Alohida ishchining, guruhning, bo'linmaning mehnati sifati baholanadi, natijasi bo'yicha mukofot qiymati aniqlanadi. Nuqsonsiz mahsulot yaratish va nuqsonsiz mehnat tizimiga o'tish odatda ishlab chiqarish texnik bazani takomillashtirishni talab etadi [4]. Tizimni amal qilish sharoitida korxonalarda nazorat, hisob, taxlil, xodimlar tayyorlash tizimlari qayta tashkil etilib, takommilashib borilgan. Sifat maktablari, sifat kunlari keng qo'llanilib kelmoqda.

Adabiyotlar

[1] Abduvaliyev A.A "metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" Darslik. Sharq nashiryoti, Toshkent 2018y.

[2] P.R.Ismatullaev, B.M.Axmedov, P.M.Matyakubova, G'.X.Xamroqulov, Sh.A.Turaev "Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish" Darslik. "Sano-standarti" nashiryoti, Toshkent 2014y.

[3] Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S. R., Hakimov O.Sh., Xvan V. I. "Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat" O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI 2008. – 267 bet.

[4] Ахмедов Б.М., Абасов А.А. "Система менежмента качества – основа конкурентоспособности". Изд. «Asr-matbuot». 2004. 96 bet.

[5] www.standart.uz

[6] www.quality.eup.ru

NEYTRALI YERGA REZONANSLI ULANGAN TARMOQLARDA BIR FAZALI YERGA TUTASHUV TOKLARINI TATQIQ QILISH

M.Sh. Sharobiddinov

Farg'ona politexnika instituti
(mirzohidsharobiddinov2@gmail.com)

(Qabul qilindi 8.05.2023 y.)

Maqolada neytrali yerga rezonansli ulanishi ko'rib o'tilgan. Ushbu o'tkazilgan tajribalar transformatorning neytrali turli usulda ulangan holatlarda bir fazali yerga tutashuv tokining o'zgarishi, faza kuchlanishlarining o'zgarishi aktiv va induktiv qarshilik qiymatlari o'zgarishiga bog'liqligi ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Transformator, neytrali yerga rezonansli ulangan, neytral, induktiv qarshilik, aktiv qarshilik, qisqa tutashuv toki, kuchlanish og'ishi,bir fazali yerga tutashuv*

В статье рассматривается резонансное соединение нейтрали с землей. В данных экспериментах было рассмотрено изменение тока однофазного заземления в случаях, когда нейтраль трансформатора подключена по-разному, изменение фазных напряжений зависит от изменения значений активного и индуктивного сопротивления.

Ключевые слова*: Трансформатор, нейтраль с резонансным заземлением, нейтраль, индуктивное сопротивление, активное сопротивление, ток короткого замыкания,отклонение напряжения, однофазное заземление*

The article deals with the resonant connection of the neutral with the ground. In these experiments, a change in the single-phase grounding current was considered in cases where the transformer neutral is connected differently, the change in phase voltages depends on the change in the values of active and inductive resistance.

Keywords: *Transformer, neutral with resonant grounding, neutral, inductive resistance,*

active resistance, short circuit current,voltage deviation, single-phase grounding.

Bugungi kunda elektr energetika tarmoqlarining jismonan va ma’nan eskirgan qismlarida keng ko‘lamda modernizatsiya ishlari olib borilyabti. Bu jarayon esa Neytrallarning ish xolatlari bilan bevosita daxldor. Ushbu ishda neytrali yerdan izoylatsiyalan tarmoqlarda bir fazali yerga tutashuv toklarining xisobiy qiymatlari belgilangan normalardan yuqori chiqgan taqdirda ular yerga yoy so‘ndiruvchi g‘altak yordamida ulanishi belgilangan. Bir fazali shikastlanishlarning xavfli oqibatlarini va ularning tokka bog‘liqligini xisobga olib, sig‘im tokening kuchi elektr uskunalarini tuzilish qoidalari (EUTQ 11-bob) bo‘yicha normalanadi[1].

1-jadval

Tarmoq kuchlanishi, kV	6	10	15-20	35
Yerga tutashgan bir fazali sig‘im toki,A	30	20	15	10

Temir beton va metal tayanchli linyalarga ega bo‘lgan 35 kV li tarmoqlardagi bir fazali sig‘im toki 10 A dan oshmasligi lozim[1]

Generator – transformator blok sxemalarda generator kuchlanishida sig‘im tokining kattaligi 5 A dan oshmasligi kerak.

Yuqorida ko‘rsatilgan normalarni qanoatlantirish maqsadida yerga tutashish tokining kamaytirish uchun bizning qitalarda 6-35 kVli tarmoqlarda neytrallarni yoy so‘ndiruvchi g‘altak yordamida yerga tutashtiriladi.



1-rasm Neytrallari yerga rezonansli ulangan uch fazali tarmoqlar.

Mashina va transformatorlar neytrallarining yer bilan tutashish turi ko‘p jihatdan elektr tarmoqlarining izolyatsiyalanish sifati va kommutatsiya jihozlarini tanlashga, o‘ta kuchlanishlar kattaligi va ularni cheklash usullariga, yer bilan bir faza orqali qisqa tutashuvdagi toklarning kattaligi, releli himoyaning ish sharoitiga va elektr tarmoqlaridagi xavfsizlikka, aloqa liniyalariga ko‘rsatiladigan elektromagnit ta’sirga va hokazolarga ko‘p jihatdan bog‘liq[3].

Neytrallash uchun kerakli induktivlikning matematik aniqlanishini faqat simmetrik tarkibiy qismlar usulidan foydalanilgan holda qayta amalga oshirish mumkin.

Yerga tutashuvni neytrallagichning reaktiv qarshiligi uchun quyidagi shart qo‘llaniladi:

$$X_E = \frac{1}{3\omega C_E} \qquad (1)$$

Qisqa tutashuv toki liniya qarshiliklari doimiy mavjudligi tufayli aktiv tarkibiy qismga ham egaligi sababli to‘liq kompensatsiya qilish mumkin emas. Aktiv tarkibiy qism qisqa tutashuv tokining taxminan 10% ni tashkil etadi va yerga ulanishning muvozanatlanmagan qoldiq toki sifatida tavsiflanadi.

